Ushbu izlanishlar bizga shuni berdiki, tanklarni suv ostidan o‘tkazish tizimidan takomillashgan tizim o‘rtasidagi farq juda katta, bir misol tariqasida tezlikni oladigan bo‘lsak:

Tanklarni o‘zidagi mavjud tizim bilan tank suv ostida II uzatmada 10-15 km/soat tezlikda harakatlanayotgan bo‘lsa ;

tanklarni suv ostidan boshqarish tizimini takomillashtirilgandan keyin esa III uzatmada 20-35 km/soat ni tashkil etib turibdi (Rasm-5).

Ushbu loyiha har tomondan jangga ishonchli kirib borishni ta‘milamoqda.

Boshqa davlatlarning tanklarini suv ostidan o‘tkazish tizimiga nisbatan solishtiradigan bo‘lsak eng zamonaviy tank bilan bizning tanklardagi yangi tizimdan 3/2 tezlik past yuribdi. Ushbu tizim dushman bizni kutayotgan vaqtdan ancha erta jang maydoniga kirib borishni ta‘minlaydi.

Barcha tajriba sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tdi va ushbu qurilmani tanklarga jihozlab amaliy o‘tkazishni amalga oshirishimiz zarur ekanligiga amin bo‘ldik va tajriba sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tganimizdan keyin O‘zbekiston Respublikasida mavjud barcha tanklarga o‘rnatishimiz kerak. Ushbu tizim tankning jangovar imkoniyatlarini ancha oshirishga xizmat qiladi.



3D max dasturida tayyorlangan T-62 tankining modeli



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. TANK, BMP VA BTR LARNI SUVLI TO'SIQLARDAN KECHIB O'TISH BO'YICHA QO'LLANMA B.Raimov Chirchiq-2018 y
2. TANK VA ZIRXLI TEXNIKALARNI SUVLI TO'SIQLARDAN KECHIB O'TISH BO'YICHA QO'LLANMA A.Qodirov Chirchiq-2016 y
3. 3D MAX DASTURINI O'RGANISH BO'YICHA QO'LLANMAD.X. Mirhamidov, Q.J. Xolliyev.
4. T-62 TANKINI TUZILISHI VA EKSPLUATATSIYA QILISH KITOBI
5. [www.world](http://www.worldtanks.com/) Tanks.Com.

## “IJODKOR BOLALAR” TO‘GARAGI

***Haqberdiyeva Dilnoza***

*Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi  
Respublika bolalar kutubxonasi  
Matbuot kotibi*



**Annotatsiya:** Respublika bolalar kutubxonasi “Ijodkor bolalar” to‘garagi

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston radiosi, bolalar ijodi, tanlov va tadbirlar

Prezidentimizning iqtidorli yoshlarni qo‘llab quvvatlash borasidagi qator qarorlarini hayotga tadbiq etish maqsadida Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika bolalar kutubxonasida 2022-yil 1-iyun kuni “**Ijodkor bolalar**” onlayn va offlayn adabiy to‘garagi tashkil qilindi.

Respublika Bolalar kutubxonasi rahbariyati qarori bilan men ushbu “Ijodkor bolalar” to‘garagiga mas’ul rahbar sifatida tayinlandim. To‘garak tashkil etilgandan buyon yosh iqtidorlarni kitob mutolaasiga jalb etish, badiiy ijod namunalarini muhokama qilish, ularga ijod jarayoni va sirlarini o‘rgatish maqsadida doimiy mashg‘ulotlar o‘tkazib kelmoqdamiz.

“Ijodkor bolalar” to‘garagi a‘zolari soni hozirgi kunda 266 nafardan oshdi. “Ijodkor bolalar” to‘garagi a‘zolari o‘rtasida “Insholar tanlovi”, “Mushoira kechasi”, “Yilning eng iste’dodli yosh shoiri”, “Yoz mavsumining eng yaxshi kitobsevar bilimdoni”, “Eng iste’dodli kitobxon”, “Yil hikoyasi” kabi qator tanlov va viktorinalar o‘tkazilib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining 2022-yil 10-iyundagi 01-205-sonli chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida Respublika bolalar kutubxonasi tomonidan “O‘zbek tilim-iftixorim” mavzusida respublika insholar tanlovi o‘tkazildi.

Bundan tashqari, “Ijodkor bolalar” to‘garagidagi ijodkor bolalarning ijodiy ishlarini O‘zbekiston radiosidan efirga uzatishda ham tashabbus ko‘rsatmoqdamiz. Shu kungacha O‘zbekiston radiosida “Yaxshi kayfiyat” va “Bolalar uchun” eshittirishlarida to‘garak a‘zolari 40 dan ziyod chiqishlar qilishdi.

Shuningdek, “Respublika Bolalar kutubxonasi”ning telegramdagi rasmiy sahifasi orqali ham yoshlarimiz ijodini qo‘llab-quvvatlash, ijod namunalarini targ‘ib qilish, ularni kitob mutolaasiga jalb etish borasida namunali ishlar amalga oshirib kelinmoqda. “Ijodkor bolalar” to‘garagida respublikamizning barcha viloyat, tumanlaridan ko‘plab o‘quvchilar yoz davomida kitob mutolaasi madaniyati hamda nazm, nasr yo‘nalishida ijodkorlik sir-asrorlarini o‘rganib kelmoqdalar.

“Ijod borasidagi tadbirlar meni yanada ruhlantiryapti”, “Ijodkor bolalar” to‘garagida malakali ustozlardan bilim sirlarini o‘rganib kelyapman, endilikda

o'qishimni ijod maktabida davom ettiraman" - deydi to'garak a'zosi Samarqandlik Hulkaroy Po'latova.

Quvonarlisi, "Ijodkor bolalar" guruhida o'qib-o'rganib, o'z ustida ishlagan ko'plab bolalar, respublikamizning bir qancha ijod maktablariga qabul qilindilar. Ana shunday o'quvchilardan biri Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabida tahsil olayotgan Zuhlajo Mingboyevadir

"Ijodkor bolalar" to'garagi a'zolaridan biri bo'lgan Farzona Hoshimova "Men Respublika bolalar kutubxonasi qoshida ochilgan "Ijodkor bolalar" klubiga a'zo bo'lganimdan juda hursandman! Men bu to'garakka a'zo bo'lganimdan buyon ko'plab saboqlar oldim. Men bu to'garakni tashkil qilgan Respublika bolalar kutubxonasi rahbariyati va ustozlarimga rahmatlar aytaman!" - deydi.

Yana bir faol o'quvchimiz, to'garak a'zosi Qoraqalpog'istonlik Gulfiya Begdullayeva ham "Men kitob o'qish orqali dunyoni tanidim! Inson kitob o'qib turganida o'zi bilmagan holda boshqa olamga tushib qoladi. Kitob o'qigan insonning ruhiy, ma'naviy dunyosi boyib, dunyoga bo'lgan ko'z qarashi, fikrlashi kengayadi", - deydi Gulfiya.

"Bu yilgi yozgi ta'tilni Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika bolalar kutubxonasi qoshida tashkil etilgan "Ijodkor bolalar" klubidagi samimiy ijodkorlar davrasida va "Al-kimyogar", "Chol va dengiz", "To seni topgunimcha" kabi kitoblar mutolaasi bilan mazmunli o'tkazdim" - deydi Jizzaxlik Mashhura Usmonova.

Qoraqalpog'istonlik Samandar Qalmurodov ham Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika bolalar kutubxonasi qoshida ochilgan "Ijodkor bolalar" to'garagi a'zosi. Samandar yoz davomida, ushbu to'garakdagi respublikamizning turli viloyatlaridan yig'ilgan ijodkor tengdoshlari bilan birgalikda muntazam ravishda fikrlar almashib, ijodga kun sayin qiziqib bormoqda.

"Shu kunlarda "Ijodkor bolalar" klubimizning barcha a'zolari, ustozlarimiz bilan birga ijodkorlik qobiliyatlarimizni yanada rivojlantirib, ularni yuzaga chiqarish maqsadida she'r, birimiz boy tariximizga ega yurtimiz haqida maqola yozyapmiz" - deydi "Ijodkor bolalar" to'garagi a'zosi Nozira Egamqulova.

Noziraning ijodi nufuzli jurnallarda muntazam ravishda yoritib kelinmoqda, u yoz davomida turli tanlovlarda faol qatnashib kelyapti.

Aytib o'tish joizki, "Ijodkor bolalar" orasidagi faol o'quvchi yoshlarning she'rlari O'zbekiston Radiosidan "Bolalar eshittirishi" rukni ostida efirga uzatib kelinmoqda.

Bilasizmi, Vatanimizga munosib so'zni topa bilish - bu katta mas'uliyatni talab qiladi. Biz o'quvchilarga mana shu narsani o'rgatyapmiz. Vatanni balandparvoz gaplar bilan sevib bo'lmaydi, unga duch kelgan so'zni qofiyalashtirib she'r yozish kerak emas. Uning o'ziga yarasha mas'uliyati bor. Munosib she'r yozish uchun ham, munosib ijodkorlarni yetishtirmog'imiz darkor. Respublika bolalar kutubxonasi mana shunday ijodkor yoshlarni, kitobxon o'quvchilarni ko'paytirish maqsadida doimo izlanishda, doimo tayyor!

## PAXTA YETISHTIRISHDA SUV TEJAMKOR SUG‘ORISH TEKNOLOGIYALARINI JORIY QILISH VA RIVOJLANTIRISH

*Karimova M.N. – TIQXMMI magistranti*

**Annotatsiya:** Bu maqolada paxta yetishtirishda yurtimizda qo‘llanilgan tajribalar, ulardan olingan natijalar keltirilgan. Turli sug‘orish usullarini qo‘llagan holda qanday samaraga erishilganligi ma‘lumotlari berilgan. Egatga qora plyonka to‘shab sug‘orish, uning afzalliklari, g‘o‘zani ekilgandan to‘pishib hosil bergunga qadar amalga oshirilgan ishlar, qo‘lga kiritilgan yutuqlar to‘g‘risida batafsil ma‘lumotlar taqdim etilgan.

**Kalit so‘zlar:** G‘o‘za, tuproq, sug‘orish usullari, iqlim, egat, tomchilatib, yomg‘irilatib, plyonka to‘shab sug‘orish, o‘g‘itlar, egat oralatib.

### KIRISH

Bugungi kunda suv tanqisligi butun sayyoramizda kuzatilayotgan ekologik muammolardan biridir. Iqlim o‘zgarishi, yalpi isish oqibatida suvga talab oshgani sayin uning manbalari tobora kamayib ketayotganligi muammoning dolzarb tus olganini ko‘rsatib turibdi. Yangi asr boshlariga qadar kam suvli mavsum har 6-8 yilda bir marta kuzatilgan bo‘lsa, oxirgi paytlarda bunday holat 2 barobar tezlashib, har 3-4 yilda takrorlanyapti. Hozirgi kunda yurtimizda mavjud suv resurlaridan unumli foydalanish maqsadida o‘qariqlar o‘rniga egiluvchan plyonka quvurlarni ishlatish, tuproq ostidan sug‘orish texnologiyasini qo‘llash, egatlarga plyonka to‘shab, yomg‘irilatib, tomchilatib sug‘orishdan keng foydalanilmoqda. Yurtboshimizning sai-harakatlari, suv xo‘jaligi sohasida o‘tkazilayotgan ko‘plab islohotlarning amalga tatbiq qilinishi 2019-yildan boshlab suv tejoychi sug‘orish texnologiyalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimi joriy qilindi. Natijada, 77470 gektar maydonda tomchilatib, 2000 gektar maydonda diskret usulda sug‘orish texnologiyalari joriy qilindi. 2020-yilning o‘zida qo‘shimcha 133 ming gektar maydonda suvni tejaydigan texnologiyalar amalga joriy etildi.

“O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyani tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga asosan zamonaviy suv tejoychi sug‘orish texnologiyalaridan foydalanish ko‘lamini kengaytirish yo‘nalishida qishloq xo‘jalik ekinlarini sug‘orishda suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini joriy qilish 175 ming gektardan 2025-yilgacha 1 million gektarga, 2030-yilga kelib, 2 million gektargacha yetkazish ko‘zda tutilgan [1, 2].

Yurtboshimizning 2021-yil 24-fevraldagi qaroriga asosan, O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan

konsepsiyasi ustuvor yo'nalishlari hamda tegishli davrga mo'ljallangan maqsadli parametrlari va ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, har uch yilda tasdiqlanadigan O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirish strategiyalari orqali bosqichma-bosqich amalga oshirish belgilab qo'yildi. Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan manfaatdor vazirlik va idoralar hamda xalqaro ekspertlar ishtirokida ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021-2023-yillarga mo'ljallangan strategiyasi tasdiqlanishi belgilandi. Ushbu strategiya mamlakatimizning suv resurslarini barqaror boshqarish va irrigatsiya sektorini takomillashtirishni qamrab oladigan bir qator infratuzilmaviy, siyosiy, institutsional va salohiyatni rivojlantirish choralari o'z ichiga oladi. Strategiya doirasida: irrigatsiya tizimi kanallarining beton qoplamali qismi 35 foizdan 38 foizgacha oshishi, irrigatsiya tizimi va sug'orish tarmoqlarining foydali ish koeffitsiyenti 0,63 dan 0,66 gacha oshishi; suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy qilish 308 ming gektardan 1,1 million gektargacha yetkazilishi ko'zda tutilgan [3].

Suv resurslari taqchilligi kuchli sezilayotgan hozirgi kunda sug'orish tizimlaridagi isrofgarchilik suvni nafaqat foydasiz yo'qotish bo'libgina qolmay, balki ular sug'oriladigan yerlarda sizot suvlar sathini kritik chuqurliklardan yuqoriga ko'tarilishga olib keladi va bu esa o'z navbatida tuproqlar meliorativ holatini yomonlashuvini keltirib chiqaradi [4]. Isrof bo'layotgan suvlar sug'oriladigan yerlar maydonini kengaytirish uchun qo'shimcha suv zaxirasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Sug'orish tizimlarida bo'layotgan suv isrofgarchiliklarini shartli ravishda ikkiga bo'lish mumkin: sug'orish tarmoqlarida va dalalarda sug'orish vaqtida bo'ladigan isrofgarchiliklar.

N.R. Hamroyevning ma'lumotiga ko'ra Surxon-Sherobod vohasida sug'orish suvining 3,72% bug'lanishga, 12,9% chuqur qatlamlarga singib ketishga va 18,12% oqovaga sarflanadi [5].

Sug'orish usullari ularni qo'llash maqsadlari va sharoitlariga ko'ra tanlab olinadi. Ekinlarni mavsumiy sug'orish me'yorlari sug'orish usullari va iqlim mintaqalariga ko'ra turlicha bo'ladi. Masalan, shimoliy iqlim mintaqasida egatlab sug'orishda g'o'zani mavsumiy sug'orish me'yori 4-6 ming  $m^3$ /ga bo'lsa, tuproq orasidan sug'orishda 3-4 ming  $m^3$ /ga, yomg'irilatib sug'orishda 1,5-2 ming  $m^3$ /ga ni tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichlar markaziy iqlim mintaqasida tegishlicha 6-8, 5-6 va 2,5-3 ming  $m^3$ /ga hamda janubiy mintaqada 8-10, 7-8 va 3,0-4,0 ming  $m^3$ /ga ga tengdir [5].

Shunday qilib, paxta yetishtirilayotgan joyning iqlim, tuproq gidrogeologik sharoitlari, tuproqning meliorativ holatini hisobga olgan holda maqbul sug'orish rejimini tanlash va qo'llash, qishloq xo'jaligida suvni mexanizatsiyalashtirilgan va avtomatlashtirilgan holda taqsimlashga imkon beruvchi texnik jihatdan mukammal gidromeliorativ tizimlarni barpo etish, melioratsiya qilinayotgan yerlarning

samaradorligini oshirish maqsadida mavjud tizimlarini qayta qurish va jihozlash, ularga texnik xizmat ko'rsatishda yangi tashkiliy uslublarni tatbiq qilish, suvni behuda isrofgarchiligini kamaytirish, sug'orish texnikasini takomillashtirish, ekinlarni sug'orish rejimini tabaqalashtirib qo'llash, ekinlarni parvarishi bo'yicha jadal texnologiyalarni qo'llash mo'l va sifatli hosil yetishtirish garovidir.

Egatlarga plyonka to'shab sug'orilganda oqava suvlar miqdori kamayadi, egatlar butun uzunligi bo'yicha bir tekis namlanadi, o'qariqni qisqa masofada olinmaydi sug'oriladigan maydondan bug'lanish kamayadi.

Fermer dalasi toshli yerdan iborat bo'lsa hamda havo harorati sovuq bo'lgan mintaqalarda (Farg'ona vodiysida) qora plyonkadan foydalanish yaxshi natijalar beradi. Sug'oriladigan maydondagi issiq harorat me'yorida ushlab turishi bilan bir qatorda, yetishtiriladigan hosilning pishib yetishish kuni tezlashadi (mevali daraxtlar ertaroq meva beradi) [6].

### NATIJALAR

Surxon-Sherobod dashtidagi taqirli-o'tloqi tuproqlarda B.Jo'raqulov va Sh.Mirzayev (2001) tomonidan g'o'zani har xil sug'orish texnikalari samaradorligini oshirish bo'yicha 1997–1999-yillar davomida maxsus ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, bunda egatlab (har bir egatdan va egat oralatib), tomchilatib (namlagichlar har bir egatga va egat oralatib joylashtirilgan), plyonka to'shama ustidan (to'shama har bir egat va egat oralatib yotqizilgan) va yomg'irilatib sug'orish texnikalari o'rganilgan (1- jadval). Ushbu sharoit uchun maqbul bo'lgan 0–50 sm li hisobiy qatlamda sug'orishlardan oldingi tuproq namligini ChDNS ga nisbatan 70–75–65 foizdan yuqori darajada tutib turish uchun g'o'za odatdagi egatlab sug'orish variantlarida 5 marta 5545–5585 m<sup>3</sup>/ga umumiy me'yorda sug'orilgan bo'lsa, tomchilatib sug'orishda 10 marta 2945–3050 m<sup>3</sup>/ga, plyonka ustidan sug'orish variantlarida 10 marta 2140–1840 m<sup>3</sup>/ga umumiy me'yorda sug'orilgan. G'o'za tomchilatib va plyonka to'shama ustidan sug'orilganda suvni oqovaga sarfi va chuqur qatlamlarga filtratsiyaga bo'ladigan isrofini kamayishi evaziga mavsumiy sug'orish me'yori egatlab sug'orishdagiga nisbatan 50–60% ga kamaygan. Shuningdek, egat uzunligi bo'ylab tuproqning bir xil chuqurlikda namiqtirishga erishilgan, o'simlikning o'sib rivojlanishi yaxshilangan va gektaridan qo'shimcha 8–12 setnerdan hosil olingan.

#### 1-jadval

#### Sug'orish texnikasiga bog'liq holda paxta hosildorligi

(Jo'raqulov B., Mirzayev Sh. ma'lumotlari)

Sug'orish texnikasi	Hosildorlik, s/ga	Qo'shimcha hosil	
		s/ga	foiz
Egatlab sug'orish	32,0	-	-
Egat oralatib sug'orish	33,2	-	-



Tomchilatib sug'orish: – har bir egatdan	42,2 38,0	10,2 4,8	31,8 14,5
– egat oralatib			
Plyonka to'shama ustidan sug'orish: – har bir egatdan	44,0 41,1	12,0 8,2	37,5 24,7
– egat oralatib			
Yomg'irlatib sug'orish	30,5	-1,5	-4,7

G'ozani turli sug'orish texnologiyalarini o'rganishga oid dala tajribalari Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi kuchsiz sho'rlangan tuproqlar sharoitida (M. Qudratov fermer xo'jaligi) 2010-2011-yillarda, 2006- va 2007-yillarda PSUYEAITning Jizzax filialida (Oqbuloq xo'jaligi) 2 va 3- jadvallarda keltirilgan sxemalarda o'tkazilgan. Tajriba dalasi tuproqlari bo'z-o'tloqi, kuchsiz sho'rlangan. Tajriba dalasiga g'ozaning AN-Boyovut-2 navi ekilgan.

**2-jadval**

**Dala tajribasi sxemasi**

(Sirdaryo viloyati Guliston tumani: M. Qudratov fermer xo'jaligi, 2010- va 2011- y.y.)

Var. №	Ekin	Sug'orish variantlari	Sug'orishdan oldingi tuproq namligi, ChDNS ga nisb. %
1	G'oz - nazorat	Oddiy egatlab sug'orish	70-70-60
2	G'oz - tajriba	Egatga to'shalgan plyonka orqali sug'orish	

**3-jadval**

**Dala tajribasi sxemasi**

(PSUYEAITning Jizzax filiali: Oqbuloq xo'jaligi, 2006- va 2007- y.y.)

Var. №	Tajriba variantlari
1	Oddiy egatlab sug'orish + N - 100 kg/ga
2	Oddiy egatlab sug'orish + N - 200 kg/ga
3	Oddiy egatlab sug'orish + N - 300 kg/ga
4	Egatga to'shalgan plyonka orqali sug'orish + N – 100 kg/ga
5	Egatga to'shalgan plyonka orqali sug'orish + N - 200 kg/ga
6	Egatga to'shalgan plyonka orqali sug'orish + N - 300 kg/ga

Tajriba dalasida g'ozani parvarishlash agrotexnikasi Mirzacho'l sharoiti uchun umum qabul qilingan tadbirlar kabi tanlab olindi. Faqat g'ozani qator orasiga to'shalgan plyonkalar orqali sug'orish hamda turli me'yordagi azotli o'g'itlardan foydalanish variantlariga ko'ra ayrim o'zgarishlar yuzaga keldi.

Mineral o'g'itlarning yillik me'yori N:P:K - 200:140:100 kg/ga ni tashkil etgan. 3 marta sug'orish o'tkazilgan. Tajriba variantlarida qator oralarini kultivasiya qilish 2 martaga va egat olish 2 martaga va shuningdek, chopiq qilish 2 martaga kamaygan hamda begona o'tlarni o'rish o'tkazilmagan.

G'oz qator oralariga to'shalgan plyonkalar orqali sug'orish sharoitda quyidagi tadqiqotlar amalga oshirilgan: sug'orish suvini hisobga olish 50 sm li ostanaga ega Chipoletti suv o'lchagichi bilan bajarilgan. Sug'orish oxiri berk egatlar orqali oqova chiqarmasdan o'tkazilgan. G'oz o'suv davrida 3 marta sug'orilgan bo'lib, nazorat variantida sug'orish me'yori 740-802 m<sup>3</sup>/ga ni, tajriba variantida esa 561-615 m<sup>3</sup>/ga ni tashkil etgan. Mavsumiy sug'orish me'yori esa nazorat variantida 2325 m<sup>3</sup>/ga ga teng bo'lib, tajriba variantida undan 559 m<sup>3</sup>/ga yoki 24% kam bo'lgan.

## XULOSA

Har xil tuproq sharoitlarida g'ozaning turli navlarini sug'orish rejimi, irrigatsiya eroziyasini oldini olishda qo'llaniladigan tadbirlar, sug'orish suvini tejashga imkon beruvchi usul va texnikalarini o'rganish bo'yicha qator tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan maxsus eksperimental tadqiqotlar natijalarini ilmiy manbalardan o'rganish, ularni umumlashtirish va tahlil etish asosida quyidagilarni xulosa qilib aytish mumkin:

1. Ekinlarni sug'orish uchun qabul qilinadigan sug'orish texnikasi suvni dalaga tekis taqsimlash va tuproqning hisobiy qatlamini bir xilda namiqtirish, suvni filtratsiya va oqovaga behuda sarfini eng kam darajaga tushirish, tuproqqa va ekinlarga ishlov berishni mexanizatsiyalash, suvchilar uchun tegishli gigiyena-sanitariya sharoitlarini yaratgan holda sug'orishni kechayu-kunduz o'tkazish va ularning ish unumdorligini oshirish imkoniyatlarini berishi lozim. Maqbul sug'orish usullari va texnikasini qo'llash imkoniyati ularning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini taqqoslash orqali aniqlanadi

2. PSUYEAITI tomonidan Oqbuloq tajriba xo'jaligida olib borilgan tajribalar ko'rsatadiki, g'ozaning C-4727 va AN-Boyovut-2 navlarini odatdagi usulda sug'orishda g'oz 4 marta 2850 m<sup>3</sup>/ga umumiy me'yorda sug'orilganda 36,5 s/ga dan hosil yetishtirilgan bo'lsa, qator oralatib egatlarga to'shalgan qora plyonka orqali sug'orilganda bu ko'rsatkichlar tegishli ravishda 1600 m<sup>3</sup>/ga va 41,4 s/ga ni tashkil etgan, ya'ni mavsumiy sug'orish me'yori 1250 m<sup>3</sup>/ga gacha kamaygan, hosildorlik esa 4,9 s/ga ga ortgan.

3. G'oz qator oralatib egatga to'shalgan plyonka orqali sug'orish va 100 kg/ga dan azotli o'g'it qo'llanilganda yalpi daromad 2319668 so'mni, ishlab chiqarish

xarajatlari 1777450 so‘mni, sof daromad 542218 so‘mni va rentabellik darajasi 30,5% ni tashkil etdi. Azotli o‘g‘it qo‘llash me‘yorini 200 kg/ga berish evaziga sof daromad 707914 so‘mga, rentabellik darajasi 37,1% ga yetib boradi. O‘g‘it me‘yori 300 kg/ga qilib belgilanganda sof daromad 559 168 so‘mni va rentabellik darajasi 32,7% ni tashkil etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi PF-6024 sonli “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-dekabrda PQ-4919 sonli “Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 202- yil 24-fevraldagi PQ-5005 sonli “O‘zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Qarori.
4. Артукметов З.А., Шодманов М. Фермер хўжалигида сувдан самарали фойдаланиш, суғоришнинг илғор усуллари ҳамда ернинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш. Т.: ТoшДАУ таҳририят-нашриёт бўлими, 2004. -50 б.
5. Artukmetov Z. A., Ekinlarni sug‘orish asoslari va sug‘orish tizimlaridan foydalanish. Т.: ToshDAU tahririyat-nashriyot bo‘limi, 2009. – 160 b.
6. Isashov A., Matyakubov B.Sh, Sobitov O.U. “Irrigatsiya va melioratsiya” Andijon 2019. - 76 b.

UDK: 633.635.658.351

**INFLUENCE OF SOWING DATES AND NORMS ON SYMBIOTIC  
ACTIVITY OF DARMON CULTIVAR OF LENTIL**

*Kurbonov A.A., Researcher of Tashkent State Agrarian University*  
*Khayrullaev S.SH., PhD student of Tashkent State Agrarian University*

**ABSTRACT**

This article provides data on the impact of sowing "Darmon" cultivar of lentil in autumn, spring and summer at the rate of 2.0, 3.0, 4.0 million seeds per hectare on the symbiotic activity of the plant. Sowing date and norm were found to affect the symbiotic activity of lentil varieties. It was noted that the number of nodules and weight per plant decreased with increasing sowing rate. It was observed that the number and weight of nodules increased as the sowing rate per hectare increased.

**Keywords:** sowing date, sowing norm, "Darmon", nodule bacteria, number of nodules, weight of nodules, symbiotic activity, hectare

**INTRODUCTION**

Cereals are richer in protein, essential amino acids and vitamins than cereals, and contain 25-50% protein. Lentils play an important role in cereals. Lentils are one of the oldest food crops. Lentils contain 23-32% protein, 0.6-2.1% fat, 47-70% nitrogen-free extractives, 2.3-4.4% ash, 2.4-4.9% tissue and B vitamins available. Lentils are eaten whole, as a porridge or flour. The stem contains 6-14% protein. Lentils are very productive and the grain is almost equal in nutrition to beef. Lentils are used to make soups and porridges. In cooking, lentils ripen much faster than grains from other legumes. Lentils grown in Uzbekistan ripen especially quickly. In the food industry, canned lentils are made. Lentils are one of the most useful fodder for livestock. Therefore, increasing grain production in the world and meeting the needs of the population in cereals and legumes, environmentally friendly, protein content remains one of the most pressing issues today.

**LITERATURE REVIEW**

Lentils are grown for food purposes. The high solubility of the protein in the seeds, with its high taste quality, makes it superior to all legumes in digestibility. The seeds are used in the preparation of various kitchen dishes, including lentil flour and cereals [1; 5-18-p], [2; 41-48-p], [3; 57-59-p], [10; 161-163-p].

According to Pashchenko L.P., A.A.Olekhovich, lentils are grown for food purposes. The protein in the seeds is superior to all other legumes in its rapid solubility, delicious quality and digestibility. The seeds are used in the preparation of various

kitchen dishes, including lentil flour and cereals. Lentils are also used in the preparation of bread, pies, hard loaves [9; 297-298-p], [8; 18-21-p].

Lentils provide an environmentally friendly product, its grain does not accumulate toxins, nitrates, radionuclides [5; 9-21-p].

### **MATERIALS AND METHODS**

Our research was conducted in 2011-2013 in the fields of the experimental plot of the Tashkent State Agrarian University. The soil of the experimental field is a typical sierozem, which has been irrigated for a long time, the mechanical composition is sandy, the groundwater is located at a depth of 15-18 meters.

In our research, the effect of sowing lentil varieties "Oltin don" and "Darmon" in autumn and spring at the rate of 2.0, 3.0, 4.0 million seeds per hectare on the dry mass of the plant was studied.

The research was conducted in the field and in the laboratory, including the placement of field experiments, calculations and observations "Methods of field experiments" (T. UzPITI 2007), "Methods of field experiments (B. Dospekhov, 1985) and" Methods of State Variety Testing of Agricultural Crops " (1985) based on methodological guidelines [4, 6, 7].

### **RESULTS AND DISCUSSION**

We know that a characteristic feature of legumes is the accumulation of biologically pure nitrogen in the presence of endogenous bacteria at the root of the legume. Biological nitrogen-fixing plants accumulate more protein in their products. The protein formed in the presence of biological nitrogen is environmentally friendly, high quality and gives good results in food and animal husbandry. Increasing the amount of protein in the plant by providing it with a high amount of mineral nitrogen increases nitrate in the plant, reduces the quality of the product, alters nitrate metabolism and can lead to many diseases, because nitrate changes the function of hemoglobin and the body lacks oxygen. In the lentil plant, a symbiotic bacterial species, *Bradyrhizobium leguminosarum*, develops.

The studied sowing date and norms were found to affect the development of nodules in lentil varieties. When the Darmon variety was planted in the fall, the number of nodules decreased from 11.6 to 10.6 as the sowing rate increased. During the flowering phase, the number of nodule bacteria increased, but as the sowing norms increased, the number of nodules decreased from 18.6 to 17.5. The same pattern was repeated during the podded period, when it was 21.3-20.5. At the end of the application period, as the sowing rate increased, the number of nodules per bush decreased, but it was found to be higher per hectare.

**Table 1**

**Dependence of the number of nodules of lentils sown in autumn on the date and norm of sowing, (2011-2013, average)**

№	Options		In a per bush plant, piece			In per hectare, mln/ piece
	Cultivar	Sowing rate, mln.piece/ha	branching	flowering	podded	
<b>Sown in Autumn</b>						
4	Darmon	2	11,6	18,6	21,3	40,6
5	Darmon	3	10,9	18,2	20,8	59,4
6	Darmon	4	10,6	17,5	20,5	77,9
<b>Sown in Spring</b>						
4	Darmon	2	10,5	17,5	20,2	38,7
5	Darmon	3	9,8	17,1	19,8	56,6
6	Darmon	4	9,6	16,4	19,4	74,0
<b>Sown in summer</b>						
4	Darmon	2	9	16,4	19,1	29,7
5	Darmon	3	8,4	16	18,7	42,7
6	Darmon	4	8,1	15,3	18,3	53,1

The number of seedlings per hectare in the Darmon variety was 40.6-77.9 million / table (Table 1).

Even in spring sowing, the number of nodules per plant has been decreasing as the sowing rate per plant has increased. Compared to the autumn period, the number of nodules when planted in the spring decreased by 1.0-1.1.

When the Darmon variety was planted in the spring, the number of nodules decreased from 10.5 to 9.6 during the budding phase as the sowing rate increased. During the flowering phase, the number of nodules increased, but as the planting norms increased, the number of nodules decreased from 17.5 to 16.4.

The same pattern was repeated in both varieties during the growing season, when it was 20.2-19.4. At the end of the application period, as the planting rate increased, the number of nodules per bush decreased, but it was found to be higher per hectare. The number of nodules per hectare was 38.7-74.0 million / Table (Table 1).

When lentils were replanted in the summer, the number of nodules decreased from 9.0 to 8.1 during the budding phase as the sowing rate increased. During the flowering



phase, the number of nodules increased, but as the planting norms increased, the number of nodules decreased from 16.4 to 15.3.

The same pattern was repeated during the podded period, when it was 19.1-18.3. The number of nodules per hectare was 29.7-53.1 million.

There was a decrease in the number of lentils when planted in summer compared to the autumn and spring sowing periods (Table 1).

The influence of sowing dates and norms on the development of nodules was significant. The nodules were well developed when planted in the autumn, and the nodules were well developed when planted in the spring, but less than in the autumn period. When planted in the summer it is poorly developed due to unfavorable conditions for the development of nodules.

When evaluating the symbiotic activity of lentil varieties, the weight of the bacteria in them is also taken into account. When lentil varieties were planted in the autumn and reached the budding phase, the nodules weighed 0.07-0.04 grams. In all variants, the final weight decreased as the sowing rate increased. When the varieties reached the flowering period, the nodules weighed 0.13-0.09 grams, depending on the sowing norm. During the sowing period, this figure was 0.17-0.12 grams, and in all variants it was observed that the weight also decreased due to the decrease in the number of nodules when the sowing rate increased. The weight of the nodules was 3.24-4.56 c / ha when determined by the weight per hectare (Table 2).

When lentil varieties were planted in spring, the nodules weighed 0.06-0.03 grams during the budding phase. At the time of flowering it was 0.12–0.08 grams. During the podded period, this figure was 0.15-0.11 grams, and in all variants it was observed that the weight also decreased due to the decrease in the number of nodules when the sowing rate increased. The weight of the nodules per hectare was 2.87-4.20 c / ha, which is 0.29-0.37 c / ha less than in the autumn period (Table 2).

**Table 2**  
**Nodules weight of lentil varieties, grams / bush (average 3 years)**

Options	Cultivars	Sowing rates, mln. piece/ha	branching	flowering	podded	In per hectare field, c
Sown in Autumn						
	Darmon	2	0,07	0,13	0,17	3,24
	Darmon	3	0,05	0,11	0,14	4,00
	Darmon	4	0,04	0,09	0,12	4,56
Sown in Spring						
	Darmon	2	0,06	0,12	0,15	2,87

	Darmon	3	0,05	0,10	0,13	3,71
	Darmon	4	0,03	0,08	0,11	4,20
Sown in Summer						
	Darmon	2	0,05	0,06	0,07	1,09
	Darmon	3	0,04	0,05	0,06	2,74
	Darmon	4	0,01	0,04	0,05	1,45

When lentils were sown in the summer, the weight of the nodules was 0.05-0.01 grams during the budding period. At the time of flowering it was 0.06–0.04 grams. During the podded period, this figure was 0.07-0.05 grams, and in all variants it was observed that the weight also decreased due to a decrease in the number of nodules when the sowing rate increased. The total weight was 1.09-2.74 c / ha (Table 2).

### CONCLUSION

Sowing date and norm were found to affect the symbiotic activity of lentil varieties. It was noted that the number of nodules and weight per plant decreased with increasing sowing rate. It was observed that the number and weight of nodules increased as the sowing rate per hectare increased.

### REFERANCES

1. Бобкова Ю.А. Морфофизиологические особенности видов и генотипов чечевицы в условиях Среднерусской лесостепи: Автореф. дис.канд. с.-х. наук. Брян. гос. с.-х. акад. Брянск, 18 с.
2. Бобкова Ю.А. Физиология формирования продуктивности у видов чечевицы. // Вопросы физиологии, селекции и технологии возделывания сельскохозяйственных культур. Орел, 2001. С. 41-48.
3. Борисова М.М. Применение соевых белковых продуктов в пищевой промышленности. // Известия вузов. Пищевая технология. 2005. № 2-3. С. 57-59.
4. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. 5-ое изд. доп. и перераб. Агропромиздат. -Москва, 1985. -С.248-256.
5. Кобызева Л.Н., Безуглая О.Н. Видовое разнообразие зерновых бобовых культур в национальном центре генетических ресурсов растений Украины и его значение для селекционной практики-// Генетичны ресурси Рослин, Харьков, 2009, №7, С.9-21.
6. Methods of conducting field experiments - UzPITI, Tashkent. 2007. 180 p.
7. Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур. – М.: Колос. 1964. 184 с.
8. Олехнович А.А. Структура, компоненты и рецептурные ингредиенты в сложных пищевых системах // Хранение и переработка сельхозсырья. 2007. №2. С. 18-21.
9. Пащенко Л.П. Продукты модификации бобовых в технологии хлеба. // Прогрес пищевой технологии Краснодар, 2000. С. 297-298.
10. Щигорцова О.Л. Вирощування бобових культур – чини, сочевиці, гороху, нуту в Криму без застосування азотних добрив / О.Л. Щигорцова // Збірник матеріалів Всеукраїнської науково-практичної конференції «Проблеми та перспективи виведення землеробства в посушливій зоні Степу України», 16–18 червня 2009. – Херсон: ІЗПР УААН, 2009. – С. 161–163.

## THE IMPACT OF ADAPTATION IMPORTED SOYBEAN CULTIVARS FROM ABROAD ON THE RANCHING

*Choriyev O.B., Master student of Tashkent State Agrarian University*  
*Atabaeva H.N., doctor of agricultural sciences, professor of*  
*Tashkent State Agrarian University*

**Abstract:** This article provides data on the impact of the adaptation of soybean varieties imported from abroad on its branching. According to it, non-branching or low-branching varieties in its country was found to be prone to a slight branching, especially when it planted repeatedly, the number of varieties was much higher.

**Keywords:** Adaptation, branching, cultivars, irrigated earth, mean crop, repeated crop, soybean, sierozem soil

### INTRODUCTION

Nowadays, when protein deficiency is prevalent all over the world, the protein richness of soybeans, the presence of all the amino acids useful for humans in the protein content, is of particular importance, further increasing the nutritional value of soybeans. It should be noted that the advantage of soybean is comparable to a number of foods in terms of richness in lysine, methionine, arginine, leucine and other essential amino acids.

In many countries where soybeans are grown, this crop is the only source of protein, which also provides livestock with nutritious food and increases its productivity. Soybeans contain 30-52% protein, 17-27% oil and 20% carbohydrate water. The prevalence of soybean crop on earth is related to the quality of grain and protein.

Based on the positive biological properties of soybeans in the country, it is necessary to study the norms of micronutrients on the background of mineral fertilizers, to determine the optimal ones in the creation and improvement of technology for growing soybeans as a primary and secondary crop.

### LITERATURE REVIEW

Soybean is a plant demanding to nutrients. 124 kg of nitrogen, 22 kg of phosphorus, 102 kg of potassium, 34 kg of calcium, 23 kg of sulfur, 191 g of zinc, 18 kg of magnesium, 207 g of manganese, 865 g of iron and 75 g of copper are extracted from the soil at a grain yield of 24 c / ha per hectare. This shows that in addition to macronutrients, micronutrients are also necessary for the growth and development of soybean.

Micronutrients optimize plant nutrition [6], increase resistance to stress, stimulate growth [7]. Such cases are also observed in the soybean plant [3, 4].

According to the biological potential of modern soybean varieties, it is possible to grow 3.5-4.4 t / ha of seeds, but in practice, this is very difficult to achieve [2].

Sulfur promotes the formation of certain amino acids, namely protein. Sulfur is involved in the formation of chlorophyll, and soy absorbs a lot of sulfur during this period. Sulfur in the seeds yields 27–66% relative to the total amount. Kazakh scientists have studied the importance of sulfur and recommended the use of sulfur-containing nanopreparations to increase the germination of soybean seeds and increase the overall yield and quality. Among the various preparations, a good result was obtained from the dry nanopreparation [5].

Micronutrients are less absorbed by the soybean plant than nitrogen, phosphorus, potassium, calcium, magnesium, and sulfur. Nevertheless, their importance is not small, the lack of microelements in the soil slows down the growth rate of the plant, the yield is reduced.

Zinc activates enzymes, participates in plant nitrogen metabolism and protein formation.

Iron is a component of chlorophyll and is important in respiration and photosynthesis.

Symptoms of calcium deficiency: slow development of meristem tissue of the stem, leaf and root tips. Due to the slow mobility of calcium, its deficiency is first seen in young leaves and growth points.

Manganese, barium, and molybdenum do not form seeds in legumes unless they are sufficient. At the beginning of the application period, molybdenum and barium have a positive effect on the plant [1].

Magnesium deficiency begins with yellowing of the veins of aged leaves. The yellowing of the leaves begins at the bottom and reaches the young leaves as the deficiency intensifies. Symptoms of magnesium deficiency are similar to those of potassium, iron, or manganese.

In iron deficiency, chlorophyll production stops abruptly. The interstices of young leaves turn yellow. As the deficit increases, the leaf veins also turn yellow and the leaf turns completely white. Brown spots appear on the edges of the leaves.

Iron deficiency is common in soils with a soil environment pH greater than 7. Soybean varieties have different approaches to iron deficiency. In resistant varieties, iron assimilation begins in the root system, while in the developed root system, iron is assimilated from various root wastes. As the pH of the soil increases, the absorption of manganese becomes more difficult.

To support and activate physiological processes in the development of soybeans, it is recommended to feed soybean varieties with micronutrients during the period of

deficiency of micronutrients outside the root (chelate feeding). Periods demanding to micronutrients: during the development of 4-6 leaves, during the period of branching and pod formation.

X.N.Atabaeva, F.B.Namozov, A.A.Kurbanov and S.Sh.Khayrullayev in their experiments in 2018-2020, found that when micronutrients affected soybean crops, micronutrients affected stem height, leaf and root development, root nodule formation, grain quality and yield, and provided high yields [8].

According to R.Juraeva, J.Tashpulatov, A.Iminov, H.Bozorov, Khatamov S.R, Khayrullaev S.Sh and L.Zaynitdinova, in their experiments in 2015-2017, mineral fertilizers and rhizobium were applied to soybeans. When exposed to strains of azotobacteria belonging to the group, it was observed that the yield increased by 12.6-12.8 c / ha compared to the control variant, [9; pp.72-79], [10; p.172].

## MATERIALS AND METHODS

Our research was conducted in 2011-2013 in the fields of the experimental plot of the Tashkent State Agrarian University. The soil of the experimental field is a typical sierozem, which has been irrigated for a long time, the mechanical composition is sandy, the groundwater is located at a depth of 15-18 meters.

In our research, the adaptation of foreign soybean on the stem height of the plant was studied.

The research was conducted in the field and in the laboratory, including the placement of field experiments, calculations and observations "Methods of field experiments" (T. UzPITI 2007), "Methods of field experiments (B. Dospekhov, 1985) and" Methods of State Variety Testing of Agricultural Crops " (1985) based on methodological guidelines.

## RESULTS AND DISCUSSION

In the soybean, the branching is one of the most important parameters, and in return for the productivity can increase by it. The branches of the varieties are their sign and can also change depending on growing conditions. The fruits on good branches are reached and the yield may increase significantly, but when the branches are developed at the bottom of the stem, the yield decreases, the yield decreases. In the first year of experience, scientific work was done to adapt foreign varieties to local climatic, especially in this period, the early and mid-ripening varieties of soybeans were selected. When soybean cultivars were planted as the main crop, the optimal variety was 1.6 pieces / bush in 2021, Riana cultivar is a slightly higher, i.e. 2.2 pieces / bush because it is biological branching varieties, and it was assumed that the Optima variety was 0.6 pieces / bush or 27.3% higher.

Viola variety is a plant biologically low-branching plant in fact, but in our conditions, its branching reached 1.7 pieces / bush, while at this time it was found that 2.7 pieces of plant is formed in Planta variety. In 2022, when these varieties were replanted, the legality was further observed, and the number of branches in the optima variety was 1.8, in Riana variety, it was 2,6 piece/bush, or 0.8 pieces/bush higher than the Optima variety, and compared to the previous year It is found that more than 0.4 branches have been formed. In Viola cultivar, while the number of branches increased slightly than the previous year, accounting for 1.9 pieces / bush. In the Optima variety, the number of branches was 2.3 pieces / bush in 2022 due to sufficient conditions, i.e. 0.3 pieces / bush above the previous year was observed to be high.

**Table 1**

**The effect of adaptation of foreign varieties of soybean on branching**

№	Options	Number of branches, piece/bush		
		2021	2022	o'rtacha
<b>As maen crop</b>				
1	<b>SK Optima</b>	1,6	1,8	1,7
2	SK Riana	2,2	2,6	2,4
3	SK Viola	1,7	1,9	1,8
4	SK Planta	2,0	2,3	2,15
<b>As repeated crop</b>				
5	<b>SK Rusa</b>	3,4	3,6	3,5
6	SK Sparta	3,0	3,2	3,1
7	SK Veda	3,5	3,7	3,6
8	SK Optima	2,8	3,0	2,9

The number of branches in the Optima variety was 1.7 pieces/bush when calculated on average from 2-year data. Compared to other varieties, the best result was observed in the Riana variety, which averaged 2.4 pieces/bush. It was observed that the number of branches was slightly less in the Viola variety, it was found to be 1.8 pieces/bush. It was observed that this indicator was 2.15 units/bush in the Planta variety.

In order to adapt foreign varieties by planting them as repeated crops, we used very early, mid-early and early varieties in our experiments. In our 2021 experiments, it was found that the number of branches was 3.4 pieces/bush when the Rusa variety was planted as a repeat crop. In the Sparta variety, this indicator was 3.0 units/bush. Veda and Optima were planted early, and it was found that the number of branches in these varieties was 3.5 and 2.8 pieces/bush, respectively. The best branching was observed in Rusa and Veda varieties.



When the same varieties were planted in 2022, it was found that branching was slightly higher due to good climatic conditions and provision of all sufficient conditions. The number of branches was 3.6 pcs/bush in Rusa variety and 3.2 pcs/bush in Sparta variety. In the case of Veda and Optima varieties, this indicator was found to be 3.7 and 3.0 units/bush, respectively. This year, it was observed that the best branching was in Rusa and Veda varieties.

When we analyzed the average data of 2 years, the number of branches observed that in Rusa variety was 3.5 units/bush, Sparta variety was 3.1 units/bush, Veda variety was 3.6 units/bush and Optima variety was 2.9 units/bush. Even when the average data were calculated, the best results were obtained from Rusa and Veda varieties.

### CONCLUSION

In conclusion, it can be said that the varieties that do not branch at all or rarely branched in their homeland, when grown in our region, it was found that they tended to branch somewhat, especially when repeated planting, the level of branching of the varieties was much higher.

### REFERENCES

- [1] Babich A.A. - Soybeans in U.S.A (1987). Oil crops. № 6. P.33 - 34.
- [2] Basibekov B.O, Gusev V (1982). Scientific basis and recommendations on using fertilizers in Kazakstan Olma - ota, Kaynar, p.74 - 77.
- [3] Vavilov P.P. Posypanov G.S, (1983). – Legume crops and problem of plant oil - M: Rasselxozizdat, 256 p.
- [4] Kochurko V.I, Abarova E.E, (2014). Foliar application, №8, Farming,
- [5] Kurmanbaeva M.S, Burkitbaev M.M, Bachilova N.V, and others. Obtaining high germination of soybeans using new sulfur-containing nanocomposites and preparations. (Collection of scientific conference, 2019), Almata.
- [6] Lisina. K.I, Stepkin N.N, Kolesnik L.F, (1982). Soybean far from East. Forage crops. № 2, pp. 27-28.
- [7] Nagorniy V.A, Gubanov P.E, Panchenko Y.I, (2010). –The Volga region is a promising area for soybean cultivation. Farming. № 3. P.13-14.
- [8] Atabayeva Khalima Nazarovna., Namozov Fazliddin Bakhromovich., Kurbonov Akhmad Alavkhonovich., Kayrullayev Sardor Shamsiddin Ugli. Effects of Sulfur and Manganese Micronutrients on the Yield of Soybean Varieties. J. Agricultural Sciences, 2020, Vol.11. pp. 1048-1059. <https://www.scirp.org/journal/as>
- [9] (Juraeva R., Tashpulatov J., Iminov A., Bozorov X., Zaynitdinova L., & Kukanova S. (2020). Efficiency of symbiotic nitrogen fixation of soy nodule bacteria after preservation. Plant Cell Biotechnology and Molecular Biology, 21(61-62),2020,P.72-79). <https://www.ikpress.org/index.php/PCBMB/article/view/5644>.
- [10] Abduvali Abdumannobovich Iminov, Hatamov Salimjon Rakhimjon Ugli, Khayrullaev Sardor Shamsiddin Ugli. Effect of Nitragine and Mineral Fertilizers On Soil Microbiological Properties in Planted as Secondary Legume Crops. The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering, 02 Issue 08-2020, P.172 // <https://www.researchgate.net/publication/348554421>

## FOSFORLI O'G'ITLAR ME'YORLARINING SOYA NAVLARI BIOMETRIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI

*Ibodullayev A.K., Toshkent davlat agrar universiteti magistranti*  
*Atabayeva X.N., Toshkent davlat agrar universiteti professori*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada soya navlarini asosiy va takroriy ekin sifatida ekilib, fosforli o'g'itlarni turli me'yorlarini uning biometric ko'rsatkichlariga ta'siri haqida ma'lumotlar keltirilgan. Unga ko'ra biometrik ko'rsatkichlari soya navlari bahorda ekilganda fosfor me'yori 160 kg gacha oshganda poya balandligi 116,8 dan 121,8 sm gacha. Shoxlanishi 2,3 dan 3,2 donagacha, pastki dukkakning joylanishi 14,5-19,3 sm gacha va 1000 ta donning vazni 133 grammdan 146,4 gramm gacha oshgan. Takroriy ekilganda barcha ko'rsatkichlar kamayganligi aniqlangan.

**Tayanch so'zlar:** Azot, fosfor, kaliy, mineral o'g'itlar, temir, asosiy ekin, takroriy ekin, me'yor, muddat

### KIRISH

Bugungi kunda dunyo aholisining oqsilli oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini to'la qondirish maqsadida soya o'simligini yetishtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. BMT ning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra soyaning o'rtacha hosildorligi gektariga 2.7 tonnaga oshgan, pirovardida 2020 yilda soya ishlab chiqarish ko'rsatkichi 1.62 mln. tonnani tashkil etgan. Soya o'simligi umumiy ekilayotgan maydonga nisbatan Amerikada 32 %, Braziliyada 31 % va Argentinada 18 % maydonda yetishtirilmoqda. Soya donining tarkibida 30-52 % oqsil, 17-27 % moy va 20 % karbon suvlari mavjud. Yer yuzida ishlab chiqarilayotgan o'simlik moyining 40 % ini soya

Soya juda qadimiy ekin hisoblanadi. Soya turlari va shakllarining xilma-xilligini o'rganar ekan, olimlar uni asosan uchta markazda shakllangan deb hisoblashadilar: Janubiy-Sharqiy Osiyo, Avstraliya va Sharqiy Afrika. Ammo ko'pgina olimlar o'simlikning kelib chiqishi deb Xitoy markazini ko'proq tan olishadi – Xitoy, Koreya, Hindiston, Yaponiya. Yevropa va AQShda soya 1712 yilda paydo bo'ldi. Ko'p asrlar davomida soya va uning mahsulotlari sharq mamlakatlari aholisi uchun asosiy oqsil manbasi sifatida xizmat qildi [2]. Mikroelementlar o'simlikning oziqlanishini maqbullashtiradi [7], stress holatlarga bardoshligini oshiradi, o'sishini faollashtiradi [8]. Bunday holatlar soya o'simligida ham kuzatiladi [4, 5, 6]. Zamonaviy soya navlarining biologik imkoniyati bo'yicha 3,5-4,4 t/ga urug' yetishtirish mumkin, ammo amalda bunga erishish juda qiyin [3].

## TAJRIBA SHAROITI VA USLUBIYATI

Tadqiqot ishi Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti tajriba maydonlarida 2022 yil mobaynida olib borilgan. Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti Toshkent viloyatining janubiy-sharqiy qismida, Chirchiq vohasida, Toshkent shahridan 15 km uzoqlikda, Chirchiq daryosining chap qirg'og'ida joylashgan. Geografik o'rni jihatidan institut koordinatlari Grinvich shkalasida 69°18' sharqiy uzunlik va 41°20' shimoliy kenglikda chegaralanadi. Joyning reliefi tekis, tajriba olib boriladigan dalalardagi tuproq daryo bo'yidagi territoriyalar tuprog'iga mos, hududning tuproq qatlami o'tloqi-botqoq tuproqdan iborat.

Tajribalar 12 kartaning 2-chekida olib borildi. Dala tajribalari 4 qaytariqda paykallar uzunligi 10 m, eni 2,8 m. 4 ta qatorli bo'lib, har bir paykalning umumiy maydoni 28,0 m<sup>2</sup>, shundan o'rtadagi 2 ta qator hisobli, chetdagi 2 ta qator himoya qatorlari qilib belgilandi. Variantlar rendomizatsiya usulida joylashtirilgan.

Dala tajribalarini o'tkazish, hisoblashlar va kuzatishlar "Qishlok xo'jalik ekinlari navlarini sinash davlat komissiyasining uslubiy qo'llanmasi (1989)", "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari (O'zPITI, 2007)" va B.A.Dospexovning "Методика полевого опыта" asosida amalga oshirildi. Barg sathi A.A.Nichiporovich uslubida, barg kesmalari orqali aniqlandi, buning uchun himoya qatorlaridan 5 tadan tipik o'simlik olinib, tahlil qilindi.

## NATIJALAR

Soya navlari bahorda ekilganda hosil yig'ishdan oldin o'tkazilgan biometrik o'lchovlarning tahlili bo'yicha Nafis navining poya balandligi birinchi variantda 122,8 sm ni tashkil qilib, fosforni me'yori 120 kg gacha oshirilganda 3,9 sm ga oshgan, 160 kg gacha oshirilganda 5,7 sm ga oshgan, temir mikroelementi evaziga birinchi variantga nisbatan poya 1,4 sm ga oshganligi aniqlangan. Nena navining poya balandligi Nafis naviga nisbatan past bo'lib, birinchi variatda 81,7 sm ni tashkil qilgan, fosfor me'yorlari oshgan sari poya balandligi 2,2;4,7; 4,1 sm ga oshganligi aniqlangan.

Fosfor me'yorlari soya navlarining shoxlanishiga ham ta'sir ko'rsatib, fosfor me'yorlari oshgan sari shoxlar soni 0,4; 1,2 donaga oshgan, temir elementi qo'shilganda kamayishi kuzatilgan. Nena navida ham shunday qonuniyat takrorlangan. Fosfor me'yori oshgan sari shoxlar soni 0,5; 1,1; 0,4 ga oshganligi kuzatilgan.

Hosilni yig'ib olishda pastki birinchi dukkaklarning joylanishi muhim ko'rsatkichdir. Bahorda ekilgan tajribada birinchi variantda navlar bo'yicha pastki dukkak 13,3 va 12,1 sm da joylanishgani aniqlandi. Nafis navida fosfor me'yorini oshishi evaziga pastki dukkakning joylanishi 1,4-2,4 sm ga, Nena navida 0,7-1,4 sm ga yuqori bo'lganligi kuzatilgan. Bu demak, soya navlarini nobud qilmasdan yig'ib olish imkoniyatini yaratadi. Ekinlarning yetishtirish texnologiyasi donning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatib, 1000 dona donni mutloq vazni Nafis navida fosforli

o'g'itni me'yorlari oshgan sari 3,4-9,2 grammga, Nena navida 2,8-5,5 grammga oshganligi aniqlangan (1-jadval).

1-jadval

**Soya navlarini asosiy ekin sifatida ekilganda biometrik ko'rsatkichlari**

.r.	Variantlar		Ko'rsatkichlar			
	ekish muddati va navlar	o'g'it me'yorlari	poya balandligi, sm	shox soni dona	pastki dukkak joylanishi, sm	1000 ta don vazni, gramm
Nafis 5.V		N <sub>50</sub> P <sub>80</sub> K <sub>100</sub>	122,8	3,2	13,3	148,2
		N <sub>50</sub> P <sub>120</sub> K <sub>100</sub>	126,7	3,6	14,7	151,6
		N <sub>50</sub> P <sub>160</sub> K <sub>100</sub>	128,5	4,4	15,6	157,2
		N <sub>50</sub> P <sub>160</sub> K <sub>100+Fe</sub>	124,2	3,0	15,7	157,4
Nena 5.V		N <sub>50</sub> P <sub>80</sub> K <sub>100</sub>	81,7	3,0	12,1	127,1
		N <sub>50</sub> P <sub>120</sub> K <sub>100</sub>	83,9	3,5	12,8	129,9
		N <sub>50</sub> P <sub>160</sub> K <sub>100</sub>	86,0	4,1	13,3	132,4
		N <sub>50</sub> P <sub>160</sub> K <sub>100+Fe</sub>	85,8	3,8	13,5	132,6

Takroriy ekilgan tajribada hosil yig'ishdan oldin o'tkazilgan biometrik o'lchovlarning tahlili bo'yicha Nafis navining poya balandligi birinchi variantda 116,8 sm ni tashkil qilib, fosfor me'yorlari 120 kg gacha oshirilganda 2,6 sm ga oshgan, 160 kg gacha oshirilganda 4,5 sm ga oshgan, temir mikroelementi evaziga birinchi variantga nisbatan poya 4,0 sm ga oshganligi aniqlangan. Nena navining poya balandligi Nafis naviga nisbatan past bo'lib, birinchi variantda 74,1 sm ni tashkil qilgan, fosfor me'yorlari oshgan sari poya balandligi 3,1; 6,3; 5,7 sm ga oshganligi aniqlangan.

Fosfor me'yorlari soya navlarining shoxlanishiga ham ta'sir ko'rsatib, fosfor me'yorlari oshgan sari shoxlar soni 0,5; 0,9; 0,3 donaga oshgan. Nena navida ham shunday qonuniyat takrorlangan. Fosfor me'yorlari oshgan sari shoxlar soni 0,6; 1,2; 0,3 ga oshganligi kuzatilgan (2-jadval).

2-jadval

**Soya navlarini takroriy ekin sifatida ekilganda biometrik ko'rsatkichlari**

T.r.	Variantlar		Ko'rsatkichlar			
	ekish muddati va navlar	o'g'it me'yorlari	Poya balandligi, sm	Shox soni dona	Pastki dukkak joylashishi, sm	1000 ta don vazni
1	Nafis 25, VI	N <sub>50</sub> P <sub>80</sub> K <sub>100</sub>	116,8	2,3	14,5	133,0
2		N <sub>50</sub> P <sub>120</sub> K <sub>100</sub>	119,4	2,8	16,1	143,2
3		N <sub>50</sub> P <sub>160</sub> K <sub>100</sub>	121,3	3,2	18,4	146,4
4		N <sub>50</sub> P <sub>160</sub> K <sub>100+Fe</sub>	120,8	2,6	18,3	146,3
5		N <sub>50</sub> P <sub>80</sub> K <sub>100</sub>	74,1	2,1	10,3	120,0

6	<b>Nena</b> 25,VI	N <sub>50</sub> P <sub>120</sub> K <sub>100</sub>	77,2	2,7	11,2	124,2
7		N <sub>50</sub> P <sub>160</sub> K <sub>100</sub>	80,4	3,3	12,4	126,9
8		N <sub>50</sub> P <sub>160</sub> K <sub>100+Fe</sub>	79,8	2,4	12,8	126,1

Hosilni yig‘ib olishda birinchi variantda navlar bo‘yicha pastki dukkak 14,5 va 10,3 sm da jolanishgani aniqlandi. Nafis navida fosfor me‘yorini oshishi evaziga pastki dukkakning joylanishi 1,6-3,9 sm ga, Nena navida 0,9-2,9 sm ga yuqori bo‘lganligi kuzatildi. Bu soya navlarini nobud qilmasdan yig‘ib olish imkoniyatini yaratadi. Ekinlarning yetishtirish texnologiyasi donning rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatib, 1000 dona donni mutloq vazni Nafis navida fosforli o‘g‘itni me‘yori oshgan sari 10,2-13,4 gacha oshib borganligi kuzatildi. Nena navida biometrik ko‘rsatkichlari Nafis naviga nisbatan past bo‘lganligi kuzatilgan.

### XULOSALAR

Biometrik ko‘rsatkichlari soya navlari bahorda ekilganda fosfor me‘yori 160 kg gacha oshganda poya balandligi 116,8 dan 121,8 smgacha. Shoxlanishi 2,3 dan 3,2 donagacha, pastki dukkakning joylashishi 14,5-19,3 sm gacha va 1000 ta donning vazni 133 grammdan 146,4 grammgacha oshgan. Takroriy ekilganda barcha ko‘rsatkichlar kamaygan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M.-O‘zbekiston Respublikasi V M mamlakatimizning 2016 yildagi ijtimoiy –iqtisodiy rivojlantirish yakunlarini, har tomonlama tahlil qilish hamda respublika xukumatining 2017 yil uchun iqtisodiy va ijtimoiy dasturining eng muhim yo‘nalishlari va ustuvor vazifalarini belgilashga bag‘ishlangan kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasi.T. 14 yanvar 2017 yil.
2. Atabayeva X.N.,Umarova N.S. -“Soya biologiyasi”. -darslik, 2020, “Navro‘z” nashriyoti, 14,5 b.t.
3. Бабич А.А. – Соя в С.Ш.А. Ж. Масличные культуры, 1987, 6, с 33 – 34.
4. Брагина О.А. Эффективность удобрений «Кукурузы», 1982 № 6 с. 17-18.
5. Колиберда К.Ф., Губанов П.Е., Руденко В.И. -Соя при орошении М. Россельхозиздат, 1980, с 39 – 41.
6. Кузин.В.Ф. -Итоги и перспективы научных исследований по сое на Дальнем Востоке. /Ж. Масличные культуры, 1987, 1с. 6 – 8.
7. Ларина Р.Е., Демидова В.Н.-Особенности формирования урожая сои в условиях центральной зоны Нечерноземной зоны // Проблемы агрохимии и экологии, 2018, № 4, С.27-33
8. Мирзабаева Г.А., Абаева К.Т., Жумагелдинов Б.К., Идрисова А.Б.-Урожайность сои в зависимости от фона минерального питания возделывания на богаре в условиях Жамбылской области Чуского района, СПК “КОНАЕВ-ЕРХАН”/Сб.н.тр.межд.конф.”Современное состояние и пути инновационного развития аграрного сектора на примере Агрохолдинга “Байсерке-Агро”, Алмата, том 1, 2019, С. 138-142



## DORIVOR ISSOP O‘SIMLIGINING YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI VA SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI

*Sayramov Fayzullo Baratjon o'g'li*  
*Farg'ona davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Dorivor issop o‘simligining respublikamizda tarqalishi,navlari,yetishtirish texnologiyasi,hamda foydali xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:**Dorivor o‘simliklar,issop,Lamiaceae,poya,barg,nav,ko'p yillik yarim buta,foydali xususiyatlari.

*Hyssopus officinalis* L. - Lamiaceae oilasiga mansub ko‘p yillik yarim buta o‘simlik. Uning vatani O'rta Yer dengizi sohillari. Issop yetishtiriladi markaziy mamlakatlarda va janubiy Yevropa, Boltiqbo'yi davlatlari, Qrimda, Zakavkazda, Markaziy Osiyo.Issop poyasining balandligi 70-80 sm, bir o'simlikdagi poya soni elliktaga etadi. U iyun oyining oxiridan avgustgacha gullaydi, uzunligi 15 sm gacha cho'zilgan boshqoq shaklidagi gulzorlar, binafsha rangga bo'yalgan, kamroq pushti rangga bo'yalgan. Mevasi to'rtburchakli to'q jigarrang yong'oqdir.DA yangi issopning yosh barglari va poyalari yoqimli otquloq-zanjabil, o'tkir, achchiq ta'mga ega. Ular salatlar, sabzavot va go'shtli idishlar, konserva baliqlarida ishlatiladi. Yangi va quritilgan issop gullari pishirishda ishlatiladi. Issop va efir moylariga boy.Issop tuproqqa talabchan emas - u botqoq va sho'rlanganlardan boshqa hamma narsada o'sadi va eng yaxshisi - begona o'tlarsiz toza, bo'sh, yaxshi yoritilgan joylarda. Bu madaniyat qurg'oqchilik va sovuqqa chidamli.

Oldin, issopni qanday ekish kerak , ular kuzdan beri saytni tayyorlashmoqda: ular yerni qazib olishadi, organik moddalar va fosfor-kaliyli o'g'itlarni qo'llashadi.

Issop ko'chatlar, urug'lar yoki so'qmoqlar bilan ko'payadi. Issop ko'chatlar orqali o'stirilganda birinchi yilda gullaydi.Yovvoyi tabiatda issop Qrim, Qozog'iston va O'rta Yer dengizi mamlakatlarida o'sadi. Ustida bog 'uchastkalari manzarali maqsadlarda muvaffaqiyatli etishtirildi.Ko'k, binafsha rangli mayda to'pgullar bilan o'ralgan baland ko'p yillik buta, pushti soyalar, issop o'ti, ko'k Seynt Jonning go'shti va yuzefka deb ham ataladi.Agar bu o'simlik siz uchun hali ham notanish bo'lsa, oddiy issopga e'tibor bering, uni ekish va unga g'amxo'rlik qilish juda oddiy. Dahshatli butalar shunchaki go'zal emas, ularning kurtaklari uzoq vaqtdan beri ziravor sifatida ishlatilgan va shifobaxsh xususiyatlari bilan mashhur.Balandligi 80 santimetrga etadi. Gullash iyun oyida boshlanadi va oktyabr sovuqlarigacha davom etadi. Xushbo'y asal o'simligi gulchaglarga boy va asalarilarni o'ziga jalb qiladi.Bir nechta issop butalaridan iborat guruh landshaft dizaynini bezatadi va styuardessani soslar, salatlar va sho'rvalar,



marinadlar va tuzlangan bodringlar uchun o'tlar bilan ta'minlaydi; turli xil taomlar baliq va go'shtdan. Mavsum davomida yosh kurtaklari va barglari bir necha marta kesilishi mumkin, asirlari yana o'sadi. Oddiy chiroyli odam hatto unchalik ham gullamaydi unumdor tuproq. Ammo ekish qanchalik oddiy bo'lmasin, issopga g'amxo'rlik qilish e'tiborni talab qiladi, keyin u bir joyda 5 yildan ortiq yaxshi o'sishi mumkin. O'simlikning ko'payishi urug'lar, butani va so'qmoqlarni bo'lish orqali mumkin. Urug'lar may oyida ekilgan ochiq yer yoki o'sadi ko'chat usuli martda. Ikkinchi holda, ular tuproqli konteynerlarga joylashtiriladi, ustiga bir oz yerga sepiladi va issiqxonada qoldiriladi. Agar tungi sovuqlar vaqti hali o'tmagan bo'lsa, uni yuqoridan plyonka bilan yopishingiz mumkin. Ko'chatlar 14 kun ichida birga paydo bo'ladi. Barqaror bo'lgandan keyin issiq ob-havo, yetishtirilgan o'simliklar ekilgan doimiy joy, butalar orasidagi 8-10 santimetr masofani saqlash. Yer birinchi navbatda qazib olinadi va yaxshilab bo'shatiladi. Issop butalari bahorda bo'linadi, ekish paytida bo'linmalarni juda chuqur ko'mmang. So'qmoqlarni olish uchun siz kuzda unumdor tuproq bilan pastki kurtaklar bilan butaning asosini to'ldirishingiz mumkin, keyin muntazam ravishda sug'orishingiz mumkin. Shootlar ildiz beradi, bahorda ular ona butasidan ajralib, doimiy joyga ekilgan bo'lishi mumkin. Yaxshi ishlov berish uchun yosh o'simliklar kesiladi. Issop urug'lari ekish orqali ko'paytiriladi erta bahorda (aprel oxiri - may oyining boshi), yoki. Ushbu madaniyatni ko'paytirishning boshqa usullari bilan batafsilroq "" maqolasida tanishish mumkin. Bu o'simlikning urug'lari juda kichik va zich (ko'chatlar ekishdan keyingi 12-14 kun ichida paydo bo'ladi). Ularning bir xilda ekilishini ta'minlash uchun ularni 1: 3 nisbatda bo'sh torf yoki qum bilan aralashtirish tavsiya etiladi. Agar siz bahorda eksangiz, keyin tomonidan urug'lik material marker o'simliklar urug'lari (, suv teresi) ularning og'irligi 10% qo'shishingiz mumkin. Va ekish yanada osonroq. Bundan tashqari, issop ostidagi to'shakda 20-35 santimetr masofada jo'yaklar belgilanadi, ular ichiga urug'lar quyiladi va 0,5-1 sm tuproq qatlami bilan qoplanadi. Ekishdan so'ng, tuproq biroz siqiladi, bu esa yomg'ir bilan yuvilishining oldini oladi. Tuproq qobig'ining paydo bo'lish ehtimolini istisno qilish uchun to'shak torf yoki hijob va qum aralashmasi bilan mulchalanadi. Qishki ekish bilan bu usul qo'llanilmaydi, chunki bu urug'larning chirishiga olib kelishi mumkin. Issop etishtirish ko'chat usuli bilan ham amalga oshiriladi. Agar siz bu o'simlikni yaqinda bokira tuproqqa yoki siqilgan tuproqqa joylashtirishni rejalashtirmoqchi bo'lsangiz, bu usul o'z samarasini beradi. Issop urug'lari ko'chatlar uchun rejalashtirilgan ekishdan 50-60 kun oldin ochiq yerga, ya'ni o'rta bo'lak Rossiyada bu davr taxminan mart oyining oxiri - aprel oyining boshiga to'g'ri keladi. Birinchidan, urug'lar unumdor substratli qutiga joylashtiriladi va ko'chatlar ikkita haqiqiy barg bosqichiga yetganda, ular alohida idishlarga ekilgan. Har bir o'simlik 5-6 bargga ega bo'lganda, ular doimiy joyga ko'chirilishi mumkin. Qoida tariqasida, ko'chatlar may oyining oxirida - iyun oyining boshida, tuproq to'g'ri isinganda ekilgan.

Butalar o'rtasida kamida 25-30 santimetr masofani qoldiring. Birinchi mavsumda issop asta-sekin rivojlanadi, shuning uchun uni begona o'tlar bilan qattiq bostirish mumkin. Shuning uchun, uning ko'chatlari muntazam begona o'tlar va o'z vaqtida yupqalash kerak. Ko'chatlar 10 santimetrgacha o'sganda, ular orasida 25-30 santimetr masofa qoldiriladi. Voyaga etgan issop butalarini sug'orish kerak emas, chunki quruq ob-havoda o'simliklar ularni tuman kabi qoplaydigan va ularni kuyishdan himoya qiladigan maxsus uchuvchi birikmalarni chiqaradi. quyosh nurlari. Tabiiyki, ko'chatlarni ekishdan so'ng darhol va ildiz otishdan oldin, tez-tez va o'rtacha sug'orishni e'tiborsiz qoldirmaslik tavsiya etiladi. Ekishning birinchi yilida issop unib chiqqandan keyin uch hafta o'tgach oziqlanadi. O'simliklar har qanday to'liq mineral o'g'it (10 litr suv uchun 2 osh qoshiq) eritmasi bilan ildiz ostida sug'oriladi. Shunday qilib Keyingi yil kabi ozuqaviy sug'orish ko'katlarni har bir kesishdan keyin, shuningdek, keyin amalga oshiriladi sanitariya Azizillo quritilgan va shikastlangan kurtaklar. Bundan tashqari, ommaviy o'g'itlar erta bahorda 50 gramm superfosfat, 30 gramm karbamid, 30 gramm kaliy sulfat har kvadrat metr ekish uchun qo'llaniladi. O'ziga xos hidi tufayli issop zararkunandalar uchun yoqimsiz va kasalliklardan deyarli ta'sirlanmaydi. Bir joyda, bu ziravorning butalari 5 yilgacha o'sishi mumkin, keyin esa butani bo'lish yoki so'qmoqlar bilan yoshartirish kerak bo'lishi mumkin. Agar siz issopning ta'mi va xushbo'yligiga oshiq bo'lsangiz, uni oshpazlik biznesida ishlatish imkoniyatlari faqat sizning tasavvuringiz imkoniyatlari bilan cheklangan. Shu bilan birga, yangi hosilga qadar oilangizni quritilgan issop ko'katlari bilan to'liq ta'minlash uchun saytingizda ushbu ekinning atigi uchta o'simlikini sotib olish kifoya. Issop - bu shubhasiz go'zal o'simlik. Biroq, issop o'sishi nafaqat saytingizni bezashga, balki oshxonadagi ziravorlar zaxiralarini to'ldirishga yordam beradi, chunki o'tkir otquloq-zanjabil ta'miga ega bo'lgan bu o'simlik uzoq vaqtdan beri pishirishda ishlatilgan. Issopni ekish va unga g'amxo'rlik qilish hech qanday murakkablikni ta'minlamaydi - o'simlik qurg'oqchilikka, sovuqqa, tuproqqa osonlikcha toqat qiladi - bu injiq emas, u besh yilgacha bir joyda o'sadi.

#### **Xulosa:**

Issop navlaridan biri Moviy Avliyo Ioann wort balandligi 50-70 sm ga etadi va pastdan shoxlangan ko'plab tik, tetraedral kurtaklar nishga ega. Qarama-qarshi kichik quyuuq yashil barglar. Yosh kurtaklar dastlab yashil bo'lib, vaqt o'tishi bilan jigarrang bo'ladi. Lipiflora kichik gullar issop barglarning qo'ltig'ida butaning yuqori qismida joylashgan. Natijada uzun boshqoq shaklidagi gulzor hosil bo'ladi. Gullash cho'zilganligi sababli o'simlikning uzoq dekorativ effekti saqlanib qoladi. Gullar birdaniga ochilmaydi, lekin asta-sekin. Gullashni uzaytirish uchun ko'k giperikum sovuqqa qadar, siz xira inflorescences kesishingiz mumkin. Bunday holda, buta shoxlanadi va yangi kurtaklar hosil qiladi. Gullashdan keyin o'simlikda mayda, to'q

jigarrang urug'li yong'oqlar bilan sarg'ish qutilar hosil bo'ladi. Ularning o'sishi uch-to'rt yil davom etadi. Issopning qirq beshdan ortiq turlari mavjud.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. B.Azizov scientific research work in plant science.
2. O. Akhmedov The technology of cultivation of medicinal plants
3. [www.agro.uz](http://www.agro.uz) website.
4. [www.mehnat.uz](http://www.mehnat.uz) website.

## DESIGN TECHNOLOGY OF BUILDINGS AND STRUCTURES

*Kodirov Farkhodjon is a graduate student of the Tashkent Institute of Architecture and Construction.*

*Bakhshilloev Azizbek*

**Abstract:** This article provides information about the project, experimental projects, and the technology of designing buildings and structures.

**Key words:** Project, document, conditions, complex, building, structure, urban planning, geodetic project.

A project is a set of technical documents that includes all the work performed during the construction of a building, structure or their complex. Buildings and structures can be built on the basis of standard, private and experimental projects. A standard project is intended for repeated use. In its development, economic and operational requirements, natural and climatic conditions of the construction area, as well as high-level size-planning and structural requirements should be fully taken into account. (kindergarten, hospitals, etc.). In the process of application of model projects, a connecting project for the construction site (that is, relief for the exact location of the model project, based on the situation of urban planning of land) is developed. Such a connecting working project includes the foundation, basement, plinth part redefined projects, building engineering network connection drawings to the external network. The special project is developed in the design of buildings and their complexes, which are rare and complex, of significant urban planning importance. Experimental projects are introduced in order to design new types of buildings and test them in different conditions for the purpose of popularization. Projects are developed in design organizations and design institutes. It is created by the customer in cooperation with the design organization. The task for designing includes all the necessary information about the function, capacity (size) of the building being designed, the details of the construction area, the geodetic project of the area, the start and completion period of the construction of the object, the construction structures and materials used. The task and On the basis of construction norms and rules, a design program is developed that incorporates the main requirements for the composition of rooms, their area and the volume-planning, structural, and architectural-artistic solutions for them and the building as a whole. Civil and industrial design of buildings can be two-stage and one-stage. Two-stage design is carried out in the design of model projects, complex individual buildings and structures.

At the first stage, the project of the building is developed together with the completed estimate document. It serves to review and evaluate the architectural and

structural solutions of the building, the estimated value of the building, the main technical and economic indicators. , situation (situational) plan, main drawings of the building - basement, typical and unrepeatable floor plans, facade, characteristic cuts, necessary materials for construction organization and technology. In order to carry out all construction and assembly works based on the approved project at the second stage is developed together with the estimate of the working documents that will be the basis. The working documents include complex working drawings of the building with detailed estimate calculations, assembly schemes of structures and elements, drawings for knots and details, sanitary-technical devices, landscaping and engineering preparation of the area. It is used in designing and connecting typical projects to construction site conditions. In this case, based on the task for the project, the working project is drawn up together with the estimate. Unlike the two-stage design process, the working project is intended for approval, on the basis of which all construction and installation work is carried out.

The structures supporting the building, i.e. foundations, walls, separate supports, inter-floor coverings are connected to each other in space and form the foundation of the building. can be divided into types:

— frameless buildings consist of interconnected external walls and inter-floor coverings. The external and internal walls of the building receive the weight of the beams and the roof. This constructive type is common in the construction of residences, schools and other public buildings:

— in frame buildings, the system of columns together with horizontal beams forms the skeleton of the building. The frame of the building receives all the forces and weights acting on the building. Frame building constructions differ from each other according to their function and are divided into supporting and protective groups. In this case, the outer walls perform only a protective function, they can be self-supporting or suspended;

— if, instead of internal longitudinal or transverse walls, a system of columns is installed, and inter-floor coverings are placed on the horizontal beams resting on them, such buildings are called half-frame buildings. In this type of buildings, together with the internal frame, the external walls also receive the load from the roof and the roof. According to the nature of operation, the frames are frame, link and frame-link. In a frame frame, the column and beam are connected with a single knot, forming a transverse and longitudinal frame that receives all the vertical and horizontal loads. since the nodes between them are not identical, it is necessary to install additional connections that receive horizontal forces. The function of such connections is often performed by inter-floor coverings, which form a diaphragm and transmit horizontal force to a single vertical diaphragm. Recently, in construction practice, combined, that is, frames with frame-connections are more common. In this case, connections are

made in one direction, and frames are inserted in the other direction. It should be said that it is more beneficial to use frame buildings in the construction of large panel public and residential buildings. In addition to these, large volume blocks made in factories are widely used in the construction of residential buildings. In general, as well as frame structures, panel, large panel, monolithic, reinforced concrete, and combined structures are used as constructions of buildings and structures. is used.

**Reference:**

1. Adilova.L.A. Landscape architecture manual. Part 1 2009. Tashkent. Page 150[1]
2. Adilova.L.A. Landscape architecture manual. Part 2 2009. Tashkent. Page 156 [2]
3. Adilova.L.A. Landscape architecture manual. Part 1 2009. Tashkent. Page 102[3]
4. Adilova. L.A. Landscape architecture manual. Part 1 2009. Tashkent. Page 109. [4]



## TUPROQ VA UNING TARKIBI , SHO'RLANGAN TUPROQLARNING MELIORATIV HOLATI VA UNI YAXSHILASHNING ILMIY ASOSLARI

*Odilova Mohigul Shukurillo qizi - Farg'ona davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sho'rlangan tuproqlarning meliorativ holati va uni yaxshilashning ilmiy asoslari, sho'rxoklashgan va sho'rxok tuproqlarning melioratsiyasi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Sho'rlanganlik darajasi, sho'r yerlar, tuproq, gips qatlamlari, bo'z tuproq, yerga ishlov berish.

Tuproq (qum) — litosfera yuza qavatlarining suv, havo va tirik organizmlar ta'sirida o'zgarishidan shakllanadigan va genetik jihatdan o'zaro bog'liq gorizontlardan tashkil topgan tabiiy tuzilma; Yer po'stining yuza va unumdor qatlami. T.ning nuragan tog jinslaridan farq qiladigan eng muhim xususiyati — unumdorligidir (qarang Tuproq unumdorligi). T.ni o'rganish va uning tasnifini tuzish, tarkibini yaxshilash hamda unumdorligini oshirish usullarini ishlab chiqish singari masalalar bilan tuproqshunoslik fani shug'ullanadi. T. hosil qiluvchi asosiy omillar: iqlim, tuproq ona jinsi, o'simliklar va hayvonot olami, hududning relyefi va geologik yoshi hamda odamning xo'jalik faoliyati.

Tuproqning yuqori qatlami.

Yer yuzasiga chiqib turgan tog' jinslari yog'insochin, karbonat angidrid, kislorod, havo harorati, mexanik kuchlar, suv va unda erigan moddalar, havo, mikroorganizmlar va tuban o'simliklar (yo'sin, lishayniklar) ta'sirida yemiriladi (nuraydi). Nuragan jinslar maydalanib, g'ovak qatlam hosil qiladi. Bu qatlam vaqt o'tishi bilan yangi xususiyat — nam sig'imi va o'simliklar o'zlashtira oladigan bir oz miqdordagi oziq moddalarga ega bo'ladi. Vujudga kelgan yangi muhitdagi mikroorganizmlar o'z hayot faoliyati tufayli o'simliklarning o'sishi uchun sharoit yaratadi, o'simliklar tuproqdan o'z hayoti uchun zarur oziq moddalarni o'zlashtiradi va o'zida to'playdi. Nobud bo'lgan o'simlikning bir qismi mikroorganizmlar ta'sirida parchalanib, mineral moddalarga, qolgan qismi esa murakkab biokimyoviy jarayonlar natijasida chirindi (gumus) ga aylanadi. Bu jarayonlarning barchasi uzluksiz davom etadigan nurash sharoitida sodir bo'lib, o'simlik ildizlari ajratgan nordon moddalar hamda organik qoldiqlar ta'sirida yanada tezlashadi.

Tuproqning kimyoviy tarkibi — tuprokdagi mineral, organik, organikmineral va ba'zi kimyoviy elementlar. Tuproqning mineral kismi birlamchi (kvars, dala shpatlari, amfibollar, piroksin, slyuda va h.k.) va ikkilamchi (montmorillonit, kaolinit, gidroslyuda va h.k.) minerallardan tashkil topgan. Tuproqning organik qismi gumusdan iborat. U gumin, fulvo kislotalar hamda gumin moddalardan tarkib topgan

bo'lib, elementlar tarkibi doimiy emas. Och tusli sur tuproqlarning A gorizontidagi gumus miqdori 1 —1,5, azot 0,08—0,14% ni, tipik bo'z tuproqlarda esa 1,5—3,5 va 0,1—0,2% ni, taqirda 0,3—0,8 va 0,03—0,06% ni, sur tusli qo'ng'ir tuprokdarda 1% gacha va 0,07% dan kamroqni tashkil etadi. Tuproq eritmasida organik va mineral moddalar hamda gazlar bor. Erigan moddalar ion, molekulyar va kolloid shakllarda mavjud bo'ladi. Eritmada mineral birikma anionlaridan KQ, NQ, gazlardan SO<sub>2</sub>, O<sub>2</sub> va h.k., organik birikmalardan — organik kislotalar, qand, aminokislotalar, spirtlar, fermentlar, oshlovchi moddalar va boshqa, organikmineral moddalardan — gumus kislotalari, polifenollar, kichik molekulyar organik kislotalar va h.k.ning bo'lishi xarakterli. Tuproqning gazsimon qismi (hajmiy foizlarda) 78,1 N, 19—21 O<sub>2</sub>, 0,1—1,0 SO<sub>2</sub> dan iborat; qo'shimcha sifatida ammiak, gleyli va botqoqtuproqlarda esa vodorod sulfid, metan va vodorod uchraydi (yana qarang Tuproq).

Sho'r tuproqlarni tur va turchalarga bo'lganda, albatta, tuzlarning geoximiyasi va agrofiziologik prinsipi asos qilinib olinadi. Faqat shu yo'l bilangina ularning hosil bo'lishi, sho'rlanish shakllari, tabiiy unumdorlik darajasi va qishloq xo'jalik ekinlarini ekish uchun o'zlashtirishdagi meliorativ tadbirlarni ilmiy asosalagan holda ishlab chiqish mumkin. Quyida tabiatdagi tuzlarning turlari keltirilgan. Tuz qatlamlari: tuz qatlamlarini kelib chiqishi va yoshiga qarab ikkiga ajratamiz. Birinchisi hozirgi zamon tuz qatlamlari, bular turli nomakob suvlarning (ko'l, dengiz, geologik qatlam, neft va boshqa suvlar) hozirda bug'lanishga sarflanishidan cho'kmaga tushgan tuzlar bo'lib, ikkinchisi ham shu yo'l bilan, lekin uzoq geologik o'tmishda hosil bo'lgan. Tuz qatlamlarini kimyoviy jihatdan quyidagilarga bo'lasiz. Ohak tuz qatlamlari. Arid zonalarda keng tarqalgan, buni turkey xalqlar tilida sho'x, xitoy tilida shechiyan deb ataladi. Sho'xlar zich joylashganligi uchun o'simlik ildizlarining tarqalishi, haydab ishlov berish og'ir. Ohak tuzi qatlamlari (sho'x yerlar)ning fiziologik aks ta'siri yo'q. sho'x yerlarni chuqur qilib portlovchi modddalar bilan portlatib, so'ngra maxsus mashinalar bilan ishlov berish orqali ekishga o'zlashtirish mumkin. Gips qatlamlari adir zonalarning yanada chuqurroq, kam suvli qisimlarida sodir bo'ladi. Gips qatlamlari Markaziy Osiyoda keng tarqalgan. Tabiatda gips 6 qatqaloq sifatida yoki ko'l suvlarining bug'lanishi evaziga hosil bo'lsa, gips qatlamlari esa ko'hna geologik davrdan saqlanib qolgandir. Gips qatlamlarini suv rejimi o'simlik uchun juda qulaymas. Bu tuproqlar tez qurg'oqchilikka ucharydi. Fizik xossalari ham yomon. Tuz qatlamlari Markaziy Osiyoning eng quruq qismida tarqalgan bo'lib, iqlim quruq bo'lganligi tufayli tuz qatlamlari yoki qatqaloqlari sifatida saqlanadilar. Tuz qatqalog'i yoki qatlami ko'p vaqt 90-100% gacha sof bir xil tuzlardan, ba'zida esa boshqa tuzlarning aralashmalaridan tashkil topadi. Shunday qilib hozirgi zamon tuz qatlamlarining qalinligi bir necha 10 sm dan bir necha 100sm gacha bo'ladi. Sug'oriladigan tuproqlarning ikkilamchi sho'rlanishi va uning oldini olish. Ikkilamchi sho'rlanish deb, sug'oriladigan shirin tuproqlarning tezda pasayib, turli darajadagi

sho`rlangan tuproqlarga aylanish jarayoniga aytiladi. Ikkilamchi sho`rlanish yangidan ochilib sug`oriladigan yerlarda va yangidan qurilgan, lekin foydali ish ko`ffisienti kichik bo`lgan irrigatsiya tarmoqlarida, sug`orish ishlarining boshlanishidan ko`p yil o`tmay rivojlanadi. Hozirgi zamon gidroizolyatsiyasiz o`tkazilayotgan sug`orish kanallarini foydali ish ko`ffisienti 0.5- 0.6 dan kichik, buning ustiga ekinlar sug`orilmagan vaqtda ham dalalarimizdan juda ko`p suv foydasiz oqib, yer ostiga shimilib yotadi. Bu yer ostiga shimilib yotgan suvlar o`zi bilan birga tuproq qatlamlaridagi yotqizilgan kurna tuzlarini eritib, sizot suvlariga tushiradi. Bu hol birinchidan, sizot suvlarning minerallasuvining oshishiga va joyning oqimi yomon bo`lganligi uchun qayta yer betiga ko`tarilishiga sabab bo`ladi. Ikkilamchi sho`rlanishning ikkinchi davrida yirik va o`rta kattalikdagi irrigatsiya kanallarining har ikki tomonlarida turli kenglikdagi turg`un dehqonchilikni davom ettirish mumkin bo`lgan chuchuk sizot suvlik zonasi hosil bo`ladi, qolgan 50-60 % yer maydoni kuchli sho`rlanishi tufayli xo`jalik oborotidan chiqib qolishi mumkin. Ikkilamchi sho`rlanishning oldini olishni asosiy choralariga sug`orishda suvdan foydalanish intizomiga qattiq rioya qilish, suvdan foydalanish ko`ffisientini 0.8-0.9 gacha ko`tarish, kanallarni betonlash, polietilin trubalardan foydalanish, 7 sun`iy yomg`ir usulida sug`orish, qish kunlarida kanallarni bekitib qo`yish, kanal yoqalarida ixota daraxtzorlarini o`tkazib, drenajni kuchaytirish va boshqalar kiradi. Xullas, yer betiga yaqin joylashgan sho`r sizot suv ta`sirida hosil bo`lgan hozirgi kunda ikkilamchi sho`rlangan tuproqlarni tuzdan tozalash uchun yuqoridagi ogohlantirish choralari bilan bir qatorda, sizot suvlarini kiritik pastga tushurish maqsadida yetarli miqdorda zovur kanallar qazilib, sizot suvlarni tezlashtirish, uni chuchuklashtirish, bir yo`la eritish kabi ishlarni olib borish kerak. Quruq va issiq iqlimli sharoitlarda ekinlarimizni 10-12 marotaba sug`oramiz. Sho`r yuvish bilan sug`oriladigan yerlarning tuproq eritmasini konsentratsiyasi 15- 20g/l dan ortmasligi kerak. Shuning uchun bundau tuproqlarni sug`orish rejimi tuzlarni yuvish rejimida o`tkazilishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, yaxshi ishlaydigan zovur kanallar yordamida tuzlarning doimiy yuvilib, ekin maydonlaridan chiqib ketishini, tuproq eritmasini yangi chuchuk sug`orish suvlari bilan almashiib turishini ta`minlash kerak. Aytganlarga xulosa qilib shularni tavsiya qilamiz; a) Sug`oriladigan suvlarning sho`rligi bir litrda (1-2g/l) dan ortmagan, sug`orish natijasida tuproqda yig`ilib qolishi mumkin bo`lgan tuzlarni yuvib turish uchun har yili bir marotaba vegaetativ sho`r yuvish ishlari amalga oshirib turiladi. b) Sug`oriladigan suvning minerilizatsiyasi 4-5 g/l bo`lsa, har yili bir marotaba sho`r yuvish ishlari o`tkazilishi kerak. c) Sug`oriladigan suvning sho`rligi 10-12 g/l bo`lsa, u vaqtda zich o`tkazilib, yaxshi ishlaydigan zovur kannallari yordamida har gal bostirib sug`oriladi. d) Sug`oradigan suvning minerilizatsiyasi 7-8 g/l bo`lsa, har ikki sug`orishdan so`ng uchinchisi sho`r yuvish sug`orish bo`lishi kerak. Ko`rsatilganlarga rioya qilmaslik, yuqorida aytganiomizdek, og`ir oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Sho`rxok tuproqlarning melioratsiyasi haqida juda ko`p ishlar qilingan. Shu jumladan keying yillarda o`zbek olimlarimizdan prof. L.Tursunov va O.Kamolovlarning olib brogan ishlari katta ahamiyatga egadir. Sho`rxoklashgan va sho`rxok tuproqlarning o`simlik ildizlari tarqalgan qatlamlarida mavjud bo`lgan suvda eruvchi tuzlar miqdorining 0.3-0.4 % , sizot sularida esa bu ko`rsatkich 2-3 g/l dan butun o`simlik vegetatsiyasi davomida oshmasligini ta`minlashimiz kerak. Sho`rxok tuproqlarning melioratsiyasi davrida gorizontal zovurlar quydagi vazifani bajarishi shart. 1) Sho`rsizot suvlarning sizot suvlarning kamida kiritik chuqurligidan 30-40sm pastga tushirilishi 2) Sizot va zovur sho`r suvlarini sug`oriladigan yer maydonidan tashqariga oqib turishi va shu borada tuproq va sizot suvlarining chuchukm suvlar bilan almashinuvi 3) Sug`oriladigan ekin maydonini tabiiy oqimsizlikdan qutqarib, sizot vazovur suvlarini umumiy oqimini ta`minlashni va nihoyat, tuzlarni qaytadan restavratsiyasi orqali tuproqlarni sho`rlatishdan saqlovchi tuz va suv rejimini hosil qilib, uni saqlashni ta`minlash kerak. Meliorativ davrda zovur sestimalari sho`rxok va sho`rxoklashgan tuproqlarning sho`rini yuvish va yuvindi sho`r suvlarni maydondan tashqariga chiqishni ta`minlash kerak. Bu davrni ham ikki bosqichga bo`lamiz: a) Tuproqning o`simlik ildizlari tarqaluvchi qatlamini optimal darajagacha tuzdan tozalash davri: b) Sho`rxok tuproqlarning ostidagi sizot suvlarning ostidagi suvlarning konsentratsiyasini optimal sho`rlik darajasigacha kamaytirish davri ; Bu davrning birinchi bosqichida katta suv normalari bilan 2-3 yil sho`r yuvish ishlari olib boriladi. Shuning uchun bu bosqichda, zovur kanallari sho`r yuvish uchun berilgn suvlarning 60-80 % ini maydondan tashqariga taslashni ta`minlash 9 kerak. Bu zovurlardan foydalanishni ikkinchi bosqichida, asosan, sizot suvlarning tuzini kamaytirish ko`zda tutiladi. Biroq sizot suvlarni chuchuklashtirish og`ir. Sho`rxoklar melioratsiyasining bu bosqichida sizot suvlarni chuchuklashtirish va tuproqlarni tuzsizlantirish, ekinlarni narmal sug`orish bilan olib borilishi kerak. Bulardan tashqari vaqti- vaqtida 1-3 m<sup>3</sup> suv bilan kuzgi-qishki sho`r yuvish ishlarini olib borish lozim bo`ladi. Meliorativ bosqichning bu davrida sug`orish uchun beriladigan suvning 25-30% I zovurlar orqali chiqarib tashlanadi. Melioratsiyaning ikkinchi davri – eksplutatsiya (normal ishlash) davrad tuzdan tozalanib, sizot suvlarining sho`rlanish darajasi bir litr suvda 2-3 g dan ozaygandan so`ng boshlanadi. Sizot suvlarning mineralizatsiyasi kritik sho`rlikdan ozaygandan so`ng, bu suv eng qimmat xo`jalik suviga aylanib, bu suvdan ariq qatori madaniy o`simliklar ham foydalana oladilar. Melioratsiyaning bu davrida shlyuzlash yo`li bilan sizot suvlarni yanada yer betiga yaqinroq chuqurlikda saqlab turish mumkin. Bu yo`l bilan subirrigatsiyaga erishish, saqlab turish, o`tloqi tuproqlar hosil bo`lishi jarayonlarini ta`minlash orqali tuproqlardan yuqori hosil olishga erishish mumkin. Shunday qilib sizot suvlari to`liq chuchuklashgandan keyin, zovurlar tuproqni suvdan tozalash bilan birga, o`simliklarni yer ostidan sug`orish subirrigatsiya rolini bajarishi kerak. Tuproqni tubdan melioratsiya qilish masalalari hozircha to`liq hal bo`lmagan.

Ayniqsa hozirgi qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan xalqimizni to'liq ta'minlash, yerlarimizning unumdorligini oshirish, tuproqlarni suv va shamol eroziyasidan, ikkilamchi sho'rlanish va botqoqlanib unumdorligini yo'qotish, bu orqali butun biosferadagi tuproqning roli va o'rni yo'qolib, biogeosenozli- jarayonlar oqimining buzilishidan saqlab qolish, tuproq melioratsiyasida qilinadigan murakkab va og'ir ishlarining bir qismi xolos. Tuproq xalqimizning eng noyob va eng qimmatli boyligidir. Uni seving undan to'g'ri foydalaning, kelajak avlodlarimiz uchun serunum, yuqori darajada madaniylashtirilgan tuproq qolsin. 10 Sho'rxok tuproqning profili. Sho'rxoksimon sur qo'ng'ir tusli tuproqlar tarkibida suvda oson eriydigan tuzlarning ko'proq bo'lishi bilan ajralib turadi. Gipsli sur-qo'ng'ir tuproqlarda 40-50 sm chuqurlikda 50 % gacha va bundan ziyod gips bo'ladi. Ular asosan kuchli gipslangan dengiz yotqiziqlarida paydo bo'ladi. Sur qo'ng'ir tuproqlar sho'rlanish, sho'rtoblanish darajasi va profilining qalinligiga ko'ra turlarga ham bo'linadi. Sho'rlangan tuproqlarning sho'rlanish darajasi va sifatiga qarab, klassifikatsiyasi( qishloq xo'jalik ekinlari uchun) O'rtacha tuzga chidamli q/x ekinlarining holatiga qarab Tuproqning sho'rlanish darajasi Tuz tarkibiga ko'ra tuproqlarning sho'rlanish turi S od ali Xloridli -sodali va sodali - sulfatli Sulfatli - sodali va sodali - sulfatli Xlorli Sulfatli - Xlorli Xlorli – sulfatli Sulfatli Tuproqning 0-60sm qalinligidagi quruq qoldiq % hisobida Tuproqning 0-1000 sm qalinligidagi quruq qoldiq % hisobida O'simlikning revoji va hosili Juda kuchsiz yoki shirin tuproq. 0.50 >0.60 >0.70 >0.80 >1.0 >1.20 >2.0 Qashqadaryo quyi oqimidagi tuproqlar uchun klassifikatsiya Tuproqlar Quruq qoldiq % hisobida Xlor % hisobida Sho'rlanmagan kuchsiz Sho'rlangan o'rtacha Sho'rlangan kuchli Sho'rlangan sho'rxok 0.3 0.3-0.7 0.7-1.0 1.0-2.0 2.0 0.01 0.01-0.06 0.0-0.010 0.010-0.20 0.20 12 Qashqadaryo viloyati sug'orma yerlarning sizot suvlarini joylashish chuqurligi bo'yicha taqsimlanishi. (Fermer xo'jaliklari ma'lumotlari asosida to'plangan ilmiy natijalarning majmuasi). № Tumanlar Maydon ming/ga S I Z O T S U V L A R S A T H I, m < 1 1-1,5 1,5-2,0 2-3 3-5 >5 1. Kasbi 44,87 - 0,23 0,50 15,04 28,73 0,37 2. Koson 72,10 0,03 0,12 0,29 25,28 32,75 12,63 3. Muborak 34,34 - 0,04 0,58 8,24 25,48 - 4. Mirishkor 54,96 - 0,06 0,81 27,58 26,43 0,08 5. Nishon 52,20 0,05 0,19 1,09 18,93 19,63 12,26 6. Qarshi 47,78 0,01 0,07 0,51 13,87 27,70 1,62 13 Xlor ionining sulfat kislotasi ioni nisbatiga qarab tuproqlarning sho'rlanish klassifikatsiyasi. Tuproqning sho'rlanish turi Xlor ioni SO<sub>4</sub> ga nisbatan S.V.Zonin bo'yicha 1934 E.N.Ivanova va A.N.Rozanova bo'yicha 1939 O.A.Grabovskaya bo'yicha 1947 y Xlorli Sulfatli xlorli Xlorli-sulfatli Sulfatli 5 1-5 0.5-1 0.5 2 1-2 0.2-1 0.2 4 1-4 0.5 0.5 Tuproqlarning sho'rlanganlik darajasi bo'yicha taqsimlanishi. № Sho'rlanganlik darajasi 0-100 sm li qatlamdagi tuzlar miqdori Quruq qoldiq Shu jumladan xlor 1. Sho'rlanmagan 3,0 >0,15 Sho'rlangan tuproqlar va ularning melioratsiyasi Sho'r tuproqlar tarqalgan hududlar katta miqyosidagi tuproq- geokimyoviy formatsiya bo'li, turli xil tuproqlarni o'zida birlashtiradi. Uning umumiy belgilari quyidagilardan iborat



; akkumilyativ yoki poliakkumulyativ landshaftlarda hosil bo'lishi, yuqori konsentratsiyadagi eritmalarda suvda oson eruvchi tuzlarning tuproq hosil bo'ish jarayonlarida ishtirok etishi, o'simliklarning yoki tuproq eritmalarining yuqori konsentratsiyasi yoxud u yoki bu tuproq qatlamlaridagi o'ta yuqori ishqoriylik sababli normal o'sishi va revojlaniishi uchun noqulay sharoitlar vujudga kelishi ( bundan sho'rlanuvchi tuproqlarda o'suvchi galofitlar mustasno) va boshqalar. Sho'rlangan tuproqlar deb, tuproq profilida madaniy o'simliklarning revojlaniishi uchun zaharli ta'sir etuvchi suvda oson eruvchi tuzlarning miqdoriga aytiladi. Suvda oson eruvchi tuzlarga sovuq suvda gipsning ( $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ) eruvchanligidan ( $2\text{g/l}$ ) atrofida ortiq eriydigan tuzlar kiradi. Tuproqning yuqorigi 0-30 sm qatlamida 0.6% dan ortiq soda, 0.1 % dan ortiq xlor va 2% dan ortiq sulfatlar ushlagan sho'rlangan tuproqlar sho'rxoklar deb ataladi. Bunday tabaqalanish tuzlarning xar xil zaxarliligidan kelib chiqadi. Masalan eng zaharli tuz soda ( $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ) hisoblanib, uning 0.6% miqdori tuproqni butunlay yaroqsiz ahvolga unumsiz yerga aylantirib aylantirib, 0.1 % atrofida miqdori o'simlikning normal o'sishi va revojlaniishiga salbiy ta'sir etadi. Dunyo tuproq xaritasidagi tuproqlar sestimatikasida yuqori 0-15 sm li qatlamda 3 % dan ortiq miqdorda tuz ushlagan tuproqlar sho'rxoklar guruhiga kiritiladi. Yuqorida ko'rsatilgan miqdordagi tuzlar tuproqning yuza qatlamida emas, balki chuqurroq qatlamlarida bo'lgan tuproqlar sho'rxokli tuproqlar va shu miqdordan kam bo'lgan lekin tuproqning xoxlagan qatlamlarida joylashgan bo'lsa, bunday tuproqlarga sho'rxoksimonlar deyiladi. Demak tuproqlar , tuzlarning tuproq profilida joylanishiga qarab yuza va chuqur sho'rxoksimon bo'lishi mumkin. sho'rxoklarning tarqalgan asosiy hududlari subareal va subtropik mintaqalarning dasht va yarim dasht mintaqalari hisoblanadi. Sho'rxoklar maydoni yer sharida 69.8 mln.ga ni, barcha sho'rlanadigan tuproqlar maydoni esa 240 mln.ga ni tashkil etadi. (Kovda, Rozanov 1988y). Sho'rlangan tuproqlar va sho'rxoklarning paydo bo'lishi ikki xil jarayon – landshaftlarda (tabiatda ) erkin harakat qiluvchi va ularni tuproqda to'planishi sodir bo'lishi kerak. Tuzlar hosil bo'lishining asosiy manbalari tog' jinslarining nurashi natijasida hosil bo'ladigan, o'zida tuz ushlovchi va tuproq hosil qiluvchi har xil jinslar hisoblanadi. Ma'lumki, dunyo bo'ylab har yili 3 mlrd.tonna suv oqimlari bo'lmagan kontenitlarga 1 mlrd.tonnagacha tuz kelib qo'shiladi. Tuz to'plovchi manbalardan, ya'ni tuz ushlovchi, tuproq hosil qiluvchi jinslar, tuzlarning shamol yordamida dengizdan quruqlikka tomon harakatlanishi ( impulverizatsiya), atmosfera yo'g'inlari, tuproq gurunt suvlari, o'simliklar, sug'orish suvlari va boshqalar hisoblanadi. Tuzlar hamma joylarda bayo bo'lib, yer yuzasining ustki qatlamlarida yig'iladi. Shunga qaramasdan sho'rlangan tuproqlar maydoni va ayniqsa sho'rxoklar maydoni yer yuzida unchalik katta maydonni egallamaydi, chunki tuproqda tuzlarning yig'ilishi ma'lum sharoitlarni taqazo qiladi. Agar atmosfera yog'in sochinlari miqdori, namlikning bug'lanishidan ortiq bo'lsa, tuproqda tuz to'planishi sodir bo'lmaydi, chunki bunday paytda



yuviluvchi suv rejimi ustunlik qiladi. Tuproqda tuzlar bug`lanish, atmosfera yog`i-sochinlaridan ortiq bo`lganda to`planadi. Eng ko`p tuz to`planishi cho`l mintaqalarida bug`anish atmosfera yog`in- sochinlaridan 13-20 marta ortiq bo`lgan hududlarda sodir bo`ladi. Turli landshaft – geokimyoviy holatlarda turlicha tuzlar to`planadi. Namlik bir muncha ko`proq iqlim sharoitlarida kam eriydigan tuzlar to`plangani holda suvda ko`proq eriydigan chuqur qatlamlarga tuproq ona jinsi va gurunt suvlarigacha yuvilib ketad. Iqlim sharoiti qurg`oqchiligi ortgan sari suvda eriydigan tuzlar ko`proq to`plana boshlaydi. Kuchsiz sho`rlanishning boshlang`ich davrida soda ko`proq to`plana boshlaydi. Sho`rlanish kuchaygan sari birinchi o`rinni sulfatlar, undan keyin xloridalar egallay boshlaydi. Gurunt suvlarining kimyoviy tarkibi, ularning miralizatsiyasiga chambarchas bog`liq kam konsentratsiyadagi gurunt suvlarida gidrokarbonatlar, miniralizatsiyasining oshishi bilan xloridlar katta rol o`ynaydi. Sho`rxok o`simliklari onda – sonda, yakka- dukka tarzda revojlangan bo`lib, ular sho`ra o`simliklarini turli ko`rinishda noyon qiladi. (sertuz va yuqori osmotik bosimli tuproq eritmasida hayot kechirishga moslashgan qora sho`ra, sarsazan, sho`ra, Burgan, shuvoq kurmak kabi ) va ildiz sestimalarining chuqur ketishi va kul moddasining yuqori miqdorda bo`lishi bilan farqlanadi. Sho`ralarning ayrim turlarida kul elimentlarining miqdori 20-30% ni tashkil etadi. Tuproqni yuvishga tayyorlash Suvni oz sarfla, tuproqdan ko`p tuzlarni yuvib yuborish uchun qator agrotexnik shartlarga rioya qilish zarur. Sho`r yuvishdan oldin dalani yaxshilab tekislab chiqish eng muhim shartlardan hisoblanadi. Agar sho`ri yuviladigan dalaning yuzi notekis bo`lsa, u yerni tekis va yetarlicha sho`rsizlantirib bo`lmaydi. Sharoitga qarab sho`r yuvish natijalari turlicha bo`ldi. Sug`oriladigan sho`rlangan yerlarni yuvishga oid ma`lumotlarni misol qilib keltiramiz. Turlicha asosiy ishlov berishlar bilan birgalikda sho`r yuvish muddatiga bog`liqdir. Yerning sho`ri kechiktirib yuvilganda kuzgi shudgorlash o`zining effektini ancha yo`qotadi. Bu holda paxta hosili ham shudgorlashgacha yuvilgandagiga qaraganda kam bo`ladi. Ikkinchi holda sho`r yuvish oldidan dalani g`o`zapoyadan tozalab olinadi hamda tuproq chezil bilan yumshatiladi. Paxta bir necha marta terilganda 20-25 sentabrdan, 20 oktabr 1-noyabrigacha muddatda sho`r yuviladi. Kuchsiz sho`rlangan tuproqda sho`r yuvish normasi 1800dan 2500m<sup>3</sup> gacha . Sho`r yuvish uchun eski egatlar orqali suv quyiladi, suv sug`orilayotgan maydondan boshqayerga tashlab qo`yilmaydi va mavjud sug`orish tarmoqlari (o`qariqlar, muvaqqatariqlar) dan bo`g`ot- uvatlar sifatida foydalaniladi. Demak ekish oldidan sho`ri yuviladigan yerning iqlim sharoitiga va tuproq meliorativ holatiga qarab tuprog`iga ishlov berish va sho`rini yuvish lozim ekan. Sho`r yuvish muddati va usullari Sziot suv sathi juda chuqur joylashgan paytda sho`r yuvish ma`qul. Bunda suv oz sarf qilingan holda tuproq tuzlardan yaxshiroq tozalanadi va ekish vaqtiga kelib yanada sho`rsizlanadi. Sug`oriladigan yerlarda sho`r yuvish uchun eng yaxshi vaqt oktabr, noyabr va dekabr oylaridir. Qishda sho`r yuvish ancha qiyinlashadi ko`pchilik rayonlarda esa bahorda sho`r yuvishning foydasi ancha

kam.Yetarlicha zavurlashtirilmagan va sizot suv sathi yuza joylashgan yerlar kechiktirib yuvilganda tuproq tuzlardan toza yuvilmaydi yuvish ta`sirida ko`tarilgan suv sathi pasayishga ulgurmaydi, oqibatda tuproqning ustki gorizonti sezilarli darajada qaytadan sho`rlana boshlaydi. Tuproqqa ishlov berish sifati yomonlashadi, natijada ekin siyrak bo`lib qoladi, yomon o`sadi, kechikib rivojlanadi olinadigan hosil kamayadi. Shunday qilib, sho`r yuvish kechiktirilgani sari va u bahorga qoldirilganida sho`r yuvish effekti ham kamayib boradi. Quyidagi tajriba ma`lumotlari shuni tasdiqlaydi. Sho`rlangan tuproqlarda asosan tuproqqa suv bostirib yuvish usuli har taraflama qo`llaniladigan usul bo`lib qoldi. Bunday usul bilan sho`r yuvishda uchastka muvaqqat ariq va uvatlar yordamida chek (pol)larga bo`lib chiqiladi. Jo`yaklarga suv muvaqqat ariqlardan beriladi. Sho`r yuviladigan pollar turlicha kattalikda bo`lishi mumkin. Dalaning yuzi qanchalik yaxshi tekislangan, nishabi qanchalik kichik va suv singdiruvchanligi qanchalik oz bo`lsa, pol maydoni ham shuncha katta bo`lishi mumkin. Nishabi kichik bo`lgan yerlarda polning o`lchamlarini quyidagicha olish tavsiya etiladi. Sho`rlangan, o`zlashtiriladigan yerlarni intensive zavurlashtirish va jadal yuvish usullari. Dalaning tekislanganlik darajasi Pollarning maydoni, ga hisobida Suv o`tkazuvchanligi yaxshi, yengil tuproq O`rtacha tuproq Suv o`tkazuvchanligi yomon, og`ir tuproq Yaxshi 0,2-0,15 0,15-0,20 0,20-0,25 O`rtacha 0,08-0,10 0,10-0,12 0,12-0,15 Yomon 0,04-0,05 0,05-0,06 0,06-0,08 Zovur qazilmagan sharoitda: a) sug`orish tarmoqlaridan isrof bo`lgan suvning sizot suv sathining ko`tarilishiga ta`siri; b) ekin ekilayotgan qo`shni maydonlarda sizot suv sathining ko`tarilishini maksimal cheklab qo`yish ham zarurligini nazarda tutish lozim. Zavur qazilmagan sharoitda ruxsat etiladigan chegaraviy sho`r yuvish normasi va tuproq sho`rlanganligi. Yuvish oldidan sizot suv sathining chuqurligi, m Taxminiy miqdorlar Keying yog`ingarchiliklarni ham qo`shib hisoblaganda kuzgi sho`r yuvish-ning chegaraviy normasi m 3 /ga Tuproqni xlor bilan chegaraviy sho`rlanganligi (0-100sm), % 1.5 2.0 2.5 3.0 3.5 700-1300 1800-2000 2500-3300 3500-4000 4300-5200 - 0.025 0.03-0.05 0.05-0.11 0.11-0.20 19 Mexanik tarkibga ko`ra o`rtacha va og`ir tuproqlarni zavur qazilmagan sharoitda yuvish natijalarini analiz qilinganda ruxsat etiladigan chegaraviy sho`r yuvish normasi bilan tuproqni faqat dastlabki sho`rlanganlik darajasi jadvalda ko`rsatilgandagidek bo`lgandagina qoniqarli sho`rsizlantirish mumkin. Sho`rlangan tuproqlarni yuvishda qo`llanilgan usullar samaradorligi (Sho`r dog`larini yuvish va o`zlashtirish) Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holati yomon bo`lgan ba`zi xo`jaliklarda sho`r dog`lar umumiy ekin maydonlariga nisbatan 20-25 % ni tashkil etadi. Agar sho`r dog`larga qarshi kurash olib borilmasa, u yerlarda tuz to`planishi va sho`r dog`lar yanada ko`payishi mumkin. Natijada paxta hosili kamayadi, mehnat sarfi oshadi. Relifiga qarab ; 1) do`ng 2) chuqur 3) yassi dog`lar bo`lishi mumkin. Yassi hamda chuqur dog`lar ko`pincha mexanik tarkibi og`ir, tuzilishi jihatidan qattiq tuproqlarda uchraydi. Bunday yerlarda, odatda, ekin unib chiqmaydi, unib chiqqani

ham sho`rxok o`tlar orasida quriydi. Bunday sho`r dog`li yerlar, odatda, tekis va ko`pincha bir metirli qatlami kuchli sho`rlangann bo`ladi. Do`ng dog`lar asosan mexanik tarkibi o`rtacha va yengil tarkibli yumshoq tuproqli yerlarda uchraydi. Ularni odatda sho`rxok o`tlar qoplagan bo`ladi, butunlay suv chiqmaydigan yoki qiyinchilik bilan chiqadigan baland reliefli yerlarga to`g`ri keladi. Bunday yerlarda tuzning ko`p qismi tuproqning ustki gorizontlarida bo`ladi. Sho`r dog`lardagi tuproqlarda xlorning tarkibi Tuproq gorizonti, sm Tuproqdagi xlor 2010 yilga nisbatan, % hisobida

2009	2010	2011	0-20	20-40	40-60	60-80	80-100	0-100	0.159	0.101	0.089	0.089	0.085	0.093
**Stomach and bowel:** Stomach acid kills many bacteria soon after they enter your body. You also have beneficial (good) bacteria in your intestines that kill harmful bacteria.

The lymph, or lymphatic, system is a major part of the immune system. It's a network of lymph nodes and vessels. Lymphatic vessels are thin tubes that branch, like blood vessels, throughout the body. They carry a clear fluid called lymph. Lymph contains tissue fluid, waste products, and immune system cells. Lymph nodes are small, bean-shaped clumps of immune system cells that are connected by lymphatic vessels. They contain white blood cells that trap viruses, bacteria, and other invaders, including cancer cells.

White blood cells are the cells of the immune system. They are made in one of your lymph organs, the bone marrow. Other lymph organs include the spleen and thymus.

**Severe combined immunodeficiency (SCID).** This is an example of an immune deficiency that is present at birth. Children are in constant danger of infections from bacteria, viruses, and fungi. This disorder is sometimes called “bubble boy disease.” In the 1970s, a boy had to live in a sterile environment inside a plastic bubble. Children with SCID are missing important white blood cells.

**Temporary acquired immune deficiencies.** Your immune system can be weakened by certain medicines, for example. This can happen to people on chemotherapy or other drugs used to treat cancer. It can also happen to people following organ transplants who take medicine to prevent organ rejection. Also, infections like the flu virus, mono (mononucleosis), and measles can weaken the immune system for a brief time. Your immune system can also be weakened by smoking, alcohol, and poor nutrition.

AIDS. HIV, which causes AIDS, is an acquired viral infection that destroys important white blood cells and weakens the immune system. People with HIV/AIDS become seriously ill with infections that most people can fight off. These infections are called “opportunistic infections” because they take advantage of weak immune systems.

**Reference:**

1. Posner M. I. & Digirolamo G. J. Cognitive Neuroscience: Origins and Promise, Psychological Bulletin, - 2020, - no 126(6), - pp. 873—889.
2. Pirmanova, G. N., Yarkulovna, S. S., Najmiddinova, K. D., Mustafakulovich, I. A., & Shavkatovna, J. N. (2021). <https://doi.org/10.21744/lingcure.v5nS2.1716>
3. Zukhriddinova, Z. D. (2022). Development of Classification Criteria for Neuroretinal Ischemia in Arterial Hypertension. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES, 3(3), 59-65. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/K76ZT>
4. Zuhridinova Z. D., Kamaljanova M. D. DEVELOPMENT OF CLASSIFICATION CRITERIA FOR NEURORETINAL ISCHEMIA IN HYPERTENSION //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 02. – C. 972-978. <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/951/882>
5. Yuldashev S. S., Mamadaliev A. M., Aliev M. A. To Questions Of Surgical Tactics In Damagesof The Thoracic And Lumbar Parts Of The Spine //European Journal of Molecular & Clinical Medicine. – 2020. – T. 7. – №. 03. – C. 2020. [https://www.ejmcm.com/article\\_3419\\_20727dc3df7f4324cbcb048aa2f37c88.pdf](https://www.ejmcm.com/article_3419_20727dc3df7f4324cbcb048aa2f37c88.pdf)
6. Bakhritdinov B.R, Aliev M.A, & Mardieva G.M. (2022). MULTIVOXEL MAGNETIC RESONANCE SPECTROSCOPY IN THE DIAGNOSIS OF BRAIN TUMORS. World Bulletin of Public Health, 8, 149-156. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbph/article/view/738>
7. Mamadaliev A. M., Aliev M. A., Saidov K. D. The Research Of Different Methods Efficiency Of Posttraumatic Valve Defects Plasty //European Journal of Molecular & Clinical Medicine. – 2020. – T. 7. – №. 03. – C. 2020. [https://ejmcm.com/article\\_4676\\_1feec211fea5848f81258ea221dae974.pdf](https://ejmcm.com/article_4676_1feec211fea5848f81258ea221dae974.pdf)
8. Z. ,Z. D. (2022). Rehabilitation and Treatment Algorithm for Patients with Ocular Ischemic Syndrome on the Background of Arterial Hypertension. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES, 3(2), 211-213. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/SYA5K>
9. Zukhriddinova Z. D. MODERN ASPECTS OF NEUROPROTECTIVE TREATMENT IN HYPERTENSIVE RETINOPATHY //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 02. – C. 949-952. <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/947/878>

10. Zukhriddinova, Z. D. (2022). Clinical and Metabolic Peculiarities Children and Teenagers with Arterial Hypertension. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES, 3(3), 177-184. Retrieved from <https://cajmns.centralasianstudies.org/index.php/CAJMNS/article/view/755>
11. Z. , Z. D., & K., M. D. (2022). Magnetic Resonance Tractography as a Method of Choice for Neuroimaging in Ocular Ischemic Syndrome against the Background of Hypertension. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES, 3(2), 207-210. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/E2AH9>
12. D. Z, Z., Zh. B, E., & Z. Z, M. (2022). Changes Visual Systems at Patients with Essential Arterial Hypertension. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES, 3(3), 744-750. Retrieved from <https://cajmns.centralasianstudies.org/index.php/CAJMNS/article/view/851>
13. Zuxridinova, J. D. (2022). Ultrasonic Dopplerography of Retinal Vessels in Acute Cerebral Ischemia Against the Background of Arterial Hypertension. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES, 3(3), 100-106. Retrieved from <https://cajmns.centralasianstudies.org/index.php/CAJMNS/article/view/737>
14. Babayev, S. A., Bekturdiyev, S. S., Rakhimov, N. M., Jalalova, D. Z., Yusupova, D. Z., & Shakhanova, S. S. (2021). ASSESSMENT OF THE STATE OF IMMUNITY IN PATIENTS WITH TUMORS. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES, 2(3), 218-225. <https://doi.org/10.47494/cajmns.v2i3.204>
15. Pirmanova, G. N., Yarkulovna, S. S., Najmiddinova, K. D., Mustafakulovich, I. A., & Shavkatovna, J. N. (2021). <https://doi.org/10.21744/lingcure.v5nS2.1716> <https://media.neliti.com/media/publications/507798-extracurricular-classes-on-the-study-of-48af7bd6.pdf>
16. Pulatov F A, Amanova N F, Amanova F F. (2022). cultural linguistics as the main direction of modern linguistics. British view issn 2041-3963, volume 7(issue 1 2022), 152–161. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6673999>
17. Pirmanova G. N. et al. Extracurricular classes on the study of historical and cultural monuments of England //Linguistics and Culture Review. – 2021. – T. 5. – №. S2. – C. 1366-1372. <https://lingcure.org/index.php/journal/article/download/1716/614> <https://lingcure.org/index.php/journal/article/view/1716>
18. Amanova N.F Amanova F.F . innovative activity in the field of tourism. euroasia conferences, 1(1), 308–309. retrieved from <http://papers.euroasiaconference.com/index.php/eac/article/view/97>
19. Amanova N.F Amanova F.F (2022) Malum bir maqsadga qaratilgan va maxsuslashgan til. <https://conf.iscience.uz/index.php/yumti/article/view/118/110>

20. Amanova N, and Amanova F. "problems of quality of distance learning online." ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali (2022): 89-91. <http://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/1515/1403>
21. Farangiz F. A. problems of quality of distance learning online // scientific progress. 2021. №2. url: <https://cyberleninka.ru/article/n/problems-of-quality-of-distance-learning-online> <http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-2.%20262.%201506-1508.pdf>
22. Farangiz F A use of modern information technologies in teaching foreign languages // scientific progress. 2021. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/use-of-modern-information-technologies-in-teaching-foreign-languages-1>
23. Farangiz F A employees as an integral part of the tourism product // scientific progress. 2021. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/employees-as-an-integral-part-of-the-tourism-product> <http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-2.%20259.%201496-1498.pdf>
24. Zukhriddinova, Z. D. (2022). Development central asian journal of natural sciences, <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/K76ZT>
25. Zuxridinova, J. D. (2022). central asian journal of natural sciences, retrieved from <https://cajmns.centralasianstudies.org/index.php/CAJMNS/article/view/737>
26. Z. , Z. D. (2022).. central asian journal of natural sciences, <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/SYA5K>
27. Pirmanova, G. (2022). Extracurricular study of world monuments culture - historical and cultural architectural english heritage . Scientific Research Results in Pandemic Conditions (COVID-19), 1(05), 166–168. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/scientific-research-covid-19/article/view/8536>



УЎК 636.31:591.4:591.471.3

## ТУРЛИ ЗОТЛИ ҚЎЙЛАР ПОСТНАТАЛ ОНТОГЕНЕЗИДА ЕЛКА СУЯГИНИНГ КОМПАКТ МОДДАСИНИ ЎЗГАРИШИ

*Ойбек Алламуродов*

*Эркин тадқиқотчи*

**Аннотация:** жайдари ва ҳисори зотларига мансуб бўлган қўйларнинг постнатал онтогенези мобайнида елка суягининг дорсал ва плантар компакт моддаси қалинлигининг мутлақ кўрсаткичларини ўзгариш динамикаси ўрганилган ва суякнинг турли анатомик қисмларида оғирлик кучининг таъсир этиш кўлами билан боғлиқ равишда ўзига хос морфометрик хусусиятлар аниқланган.

**Калит сўзлар:** ҳисори, жайдари, елка суяги, дорсал, пальмар, компакт модда, постнатал онтогенез, ўсиш коэффициенти, морфометрик, мутлақ кўрсаткич.

**Кириш.** Суяклар организмда таянч-механик функциясини бажариши билан бир қаторда, минерал моддалар алмашинуви жараёнининг меъёрида кечиши учун ҳам муҳим ҳаётий аҳамият касб этади. Суяклар организмда кальций, фосфор ва бошқа кўплаб макро-, микроэлементлар алмашинувини таъминлаб берадиган асосий органлардан бири ҳисобланади. Суяк деворининг мустаҳкамлиги авваламбор юқоридаги элементларнинг миқдори билан боғлиқ бўлиб, у ҳайвон туғилганидан кейинги тараққиёти даврида жуда кўп омиллар таъсирида шаклланиб боради ва ёши ҳамда зотига кўра маълум хусусиятларни намоён қилади

Узун найсимон суякларнинг морфометрик кўрсаткичларини даврга қараб ўзгаришини аниқлаш мақсадида ҳар хил асрларга мансуб одамларнинг мазкур суякларини ички структуралари ҳамда мустаҳкамлиги бир-биридан фарқ қилиши, яъни ҳозирги замондаги одамларда суяк диафизиде деворидаги компакт моддасининг камайиб бориши, илик бўшлиғини ошиши, минералланиш ҳамда мустаҳкамлик даражасини пасайиши кузатилган [4]. Муаллиф буни физик фаоллик, овқатланиш, ҳаёт тарзи ва экологик ҳолатга нисбатан суяклар тизимида юзага келган адаптив қайта қурилиш натижаси, деб тушунтиради.

Кальций алмашинувида суякнинг иштирок этиш механизми остеобластлар томонидан янги ҳосил бўлган суяк тўқимасининг органик матриксида гидроксипатит кристаллари кўринишида кальцийни тўпланишига асосланади. Депо ҳолатидаги кальций суякда остеокластлар томонидан унинг тегишли қисми емирилгунча сақланади. Суякнинг остеокластик резорбциясида кальцийнинг

ажралиб чиқиши, суяк тўқимасининг органик матрикси ҳосил бўлганда эса кальцийни захирага тўпланиши содир бўлади [6, 7]. Муаллифнинг таъкидлашича, суяк тўқимаси организмда нафақат кальцийнинг, балки пептид, гликопротеид ва бошқа кўпгина оксилларнинг ҳам ишончли депоси ҳисобланади.

Скелетнинг турли қисмлари бўйича бир-бирига боғлиқ бўлмаган кўрсаткичлар алоҳида турнинг ёшга оид структураси ҳақида бирмунча ҳаққоний маълумотларни бериши мумкин [1]. Муаллиф, суякдаги морфологик ва патологик ўзгаришларнинг миқдорий баҳолаш ҳайвондан фойдаланиш ҳамда экологик яшаш шароитини қайта қуришда муҳим аҳамият касб этишини алоҳида таъкидлайди.

Тадқиқотчи томонидан ҳаракат тури ҳар хил бўлган ҳайвонлар сон суягининг диафиз қисмини компакт моддасини морфофункционал хусусиятлари ўрганилган бўлиб, таянч-куч оғирлиги компакт модданинг турли соҳаларига тушиши аниқланган. Яъни фалангда юрувчилар гуруҳига кирувчи қўйларда таянч-куч оғирлиги суякнинг компакт моддасини каудал соҳасига кўпроқ тушиши қайд этилади [3].

Минерал моддалар организмнинг барча алмашинув функцияларида муҳим рол ўйнайди. Улар тўқималар ва тана суюқлигининг таркибига киради, ҳайвонлар ва паррандаларни яхши ўсиши ва ривожланиши учун зарур бўлган мураккаб органик бирикмалар синтезланишида бевосита иштирок этади [2, 5, 8].

Кальций бирикмаси ва унинг эркин ионларининг кўп қисми ингичка ичакда фосфат кислотасининг кислота қолдиғи билан реакцияга киришади. Сўнгра улар пальмитин, стеарин ва олиен юқори ёғ кислоталари билан сувда эримайдиган бирикмаларни ҳосил қилади. Мицеллалар ҳужайра мембранасига осон кириш хусусиятига эга ва кальцийни қон йўлига ўтказди, бунда ёғ кислоталари ажралади ва ингичка ичак деворида қайта синтез жараёнига иштирок этади [9].

Ҳисори ва жайдари қўйлар постнатал онтогенезининг турли физиологик босқичлари елка суякларининг микроанатомик тузилишидаги ўзига хос хусусиятларни аниқлаш мақсад қилиб қўйилди.

**Текшириш усул ва материаллари.** Илмий тадқиқот ишлари Қашқадарё вилояти Қамаш тумани шароитида парвариш қилинган ҳисори ҳамда жайдари қўйлар олдинги оёқ скелетининг елка суяклари устида олиб борилди. Илмий текширишлар учун постнатал тараққиётнинг 3, 6, 12, 18, 36, 48, 60 ойлик босқичларидаги ҳайвонларнинг олдинги оёқ елка суяклари олинди.

Суякларга ишлов беришда ва морфометрик кўрсаткичларини аниқлашда Н.П.Чирвинский томонидан қўлланилган ҳамда жорий қилинган умумморфологик услублардан фойдаланилди.

Илмий текширишлар натижасида олинган барча рақамий маълумотлар Е.К.Меркурьева услуги бўйича математик ишловдан ўтказилди.

Суякларнинг ёшига қараб динамикасини аниқлаш учун ўсиш коэффициенти

К.Б.Свечин томонидан ишлаб чиқилган  $K = \frac{V_t}{V_0}$  формуласи билан аниқланди:

$K$  – ўсиш коэффициенти;

$V_t$  – катта ёшли ҳайвон суягининг мутлақ кўрсаткичи;

$V_0$  – суякнинг бошланғич кўрсаткичи.

Математик-статистик таҳлил Стьюдент ва Фишер мезонлари ёрдамида компьютернинг Microsoft Excel электрон жадвалида бажарилди.

**Олинган натижалар ва унинг муҳокамаси.** Тадқиқотлар натижасида постнатал онтогенезнинг турли физиологик босқичларида турли зотга мансуб қўйлар елка суягининг микроанатомик тузилмалари ўзига хос ўзгариш динамикасини намоён қилиши аниқланди. Суякнинг дорсал компакт моддаси қалинлигининг мутлақ кўрсаткичи жайдари қўйлар постнатал ривожланишнинг дастлабки 3 ойлик босқичида  $0,316 \pm 0,03$  см га тенг бўлиб, кейинги 6 ойликдан бошлаб бу кўрсаткични босқичли тарзда камайиб бориши кузатилади, яъни у 6 ойликда  $0,267 \pm 0,02$  см га, ўсиш коэффициенти эса 0,84 мартага тенг бўлди. Елка суяги дорсал компакт моддасининг мутлақ қалинлиги 12 ойлик ҳайвонларда 6 ойликдагига нисбатан кескин камайиб,  $0,194 \pm 0,02$  см га, ўсиш коэффициентини 0,72 мартага тушиши кузатилди. Суякнинг мазкур кўрсаткичи постнатал онтогенезнинг 18 ойлик босқичида 12 ойликдагига нисбатан сезиларли даражада кўтарилиб,  $0,296 \pm 0,02$  см га, ўсиш коэффициенти эса 1,5 мартага ( $p < 0,05$ ) тенг бўлиши, дорсал компакт модданинг мутлақ қалинлиги 36 ва 48 ойлик ҳайвонларда деярли ўзгармасдан, бу кўрсаткични мос равишда  $0,299 \pm 0,04$  см ( $K=1,01$ ),  $0,299 \pm 0,01$  см ( $K=1,0$ ) га тенг бўлиши, постнатал ривожланишнинг 60 ойлик босқичида суякнинг дорсал компакт моддасини мутлақ қалинлиги 36 ойликдагига нисбатан сезиларсиз камайиши, ўрганилган босқичлар мобайнида бу кўрсаткичнинг ўсиш коэффициенти 0,94 мартага тенг бўлиши қайд қилинди.

Ҳисори зотли қўйлар елка суягининг дорсал компакт моддаси қалинлигининг мутлақ кўрсаткичи постнатал онтогенезнинг 3 ойлик босқичида  $0,318 \pm 0,05$  см га ( $p < 0,05$ ) тенг бўлиб, 6 ойликдан бошлаб у  $0,314 \pm 0,02$  см га, 12 ойликда эса  $0,228 \pm 0,02$  см, ўсиш коэффициенти эса 0,73 мартага тушиши аниқланди. Суякнинг мазкур кўрсаткичини қўйлар постнатал ривожланишининг 18 ойлик босқичидан бошлаб босқичма-босқич ошиб бориши, яъни у 18 ойликда –  $0,329 \pm 0,06$  см ( $K=1,45$ ;  $p < 0,05$ ), 36 ойликда –  $0,344 \pm 0,03$  см ( $K=1,05$ ), 48 ойликда –  $0,367 \pm 0,02$  см ( $K=1,06$ ), 60 ойликда –  $0,369 \pm 0,04$  см ( $K=1,01$ ) га тенг бўлиши қайд қилинди. Ҳисори қўйлар елка суягининг дорсал компакт моддаси қалинлигининг мутлақ кўрсаткичини ўсиш коэффициенти постнатал онтогенезнинг ўрганилган 3

ойлигидан 60 ойлигига қадар бўлган давр мобайнида 1,16 мартага тенг бўлиши кузатилди.

Елка суяги пальмар компакт моддасининг мутлақ қалинлиги жайдари кўйлар постнатал онтогенезининг дастлабки 3 ойлик босқичида  $0,274 \pm 0,01$  см га ( $p < 0,03$ ) тенг бўлиб, кейинги 6 ойликда унинг сезиларсиз қалинлашуви рўй беради, яъни  $0,284 \pm 0,03$  см ни, ўсиш коэффиценти эса 1,03 мартани ташкил қилди. Суякнинг мазкур кўрсаткичини ҳайвонлар постнатал ривожланишининг 12 ва 18 ойлик босқичларида 6 ойликдагига нисбатан бирмунча камайиши, яъни 12 ойликда  $0,261 \pm 0,03$  см ( $K=0,92$ ), 18 ойликда эса  $0,258 \pm 0,03$  см ( $K=0,98$ ;  $p < 0,05$ ) га тенг бўлиши кузатилди. Постнатал тараққиётнинг 36 ойлик босқичида суякнинг пальмар компакт моддасини мутлақ қалинлиги  $0,272 \pm 0,03$  см га, ўсиш коэффиценти 1,06 мартага тенг бўлиб, 48 ойликда ҳам уни сезиларсиз ортиши, яъни  $0,281 \pm 0,03$  см ( $K=1,03$ ) ни ташкил қилиши қайд этилди. Постнатал тараққиётнинг 60 ойлик босқичида елка суяги пальмар компакт моддасининг мутлақ қалинлиги  $0,227 \pm 0,04$  см гача, ўсиш коэффиценти 0,8 мартага тушиши, 3 ойликдан 60 ойликкача бўлган давр мобайнида эса ўсиш коэффиценти 0,78 мартагача пасайиб бориши аниқланди.

Ҳисори зотли кўйлар елка суягининг пальмар компакт моддасини мутлақ қалинлиги 3 ойликда  $0,309 \pm 0,05$  см га ( $p < 0,04$ ) тенг бўлиб, постнатал ривожланишнинг 6 ва 12 ойлик босқичларида бу кўрсаткични босқичли тарзда, яъни 6 ойликда  $0,306 \pm 0,02$  см ( $K=0,99$ ), 12 ойликда  $0,287 \pm 0,04$  см ( $K=0,93$ ) гача пасайиб бориши кузатилди. Постнатал онтогенезнинг 18 ойлигидан бошлаб 48 ойлигига қадар суякнинг мазкур кўрсаткичини босқичли тарзда сезиларсиз ортиб бориши, яъни у 18 ойликда  $0,305 \pm 0,06$  см ( $K=1,06$ ;  $p < 0,05$ ) ни, 36 ойликда  $0,309 \pm 0,03$  см ( $K=1,01$ ) ни, 48 ойликда  $0,308 \pm 0,03$  см ( $K=0,99$ ) ни ташкил қилиши аниқланди. 60 ойлик кўйларда суякнинг пальмар компакт моддасининг мутлақ қалинлиги 48 ойликдагига нисбатан сезиларли даражада камайиши рўй беради, яъни у  $0,271 \pm 0,03$  см ( $p < 0,03$ ) ни, қуйи ёшдагига қараганда ўсиш коэффиценти эса 0,87 мартани ташкил қилди. Ҳайвонлар постнатал онтогенезининг ўрганилган босқичлари давомида суякнинг ушбу кўрсаткичини ўсиш коэффиценти 0,88 гача пасайиши қайд қилинди.

#### **Хулоса:**

- елка суяги дорсал ва пальмар компакт моддаси қалинлигининг мутлақ чизиқли ўлчамлари кўйлар постнатал онтогенезининг турли физиологик босқичларида ўзига хос ўзгариш динамикаси намоён қилиб, бу кўрсаткичлар ривожланишнинг барча даврларида ҳисори зотли кўйларда жайдари кўйларникига нисбатан юқори бўлиши кузатилади;

- суякларнинг турли анатомик қисмларига тушадиган оғирлик кучининг кўлами ҳамда функционал ҳолати билан боғлиқ равишда дорсал компакт моддаси

қалинлигининг мутлақ кўрсаткичлари постнатал тараққиётнинг ўрганилган барча босқичларида пальмар компакт модданикига нисбатан юқори бўлиши аниқланди.

### Адабиётлар

1. Антипина Ек.Е. Костные остатки животных из поселения Горный (биологические и археологические аспекты исследования) // Российская археология. - Москва, 1999. № 1. – С. 103-116.
2. Батазова Н.В., Гундоров В.В., Зеников В.И. Химизация в отраслях АПК // Ч.2. Животноводство. М.: Росагропромиздат, 1990. –С. 7.
3. Дурткаринов Е.С. Микроархитектоника компактного вещества кости у животных при различной статолокомоции // Морфология. Т. 126. Вып. 4. Тезисы докладов VII конгресса международной ассоциации морфологов. - Санкт-Петербург, 2004. – С. 44.
4. Медведева Н.Н. Адаптационно-приспособительная перестройка скелета человека // Морфология. Т. 133. Вып. 2. Материалы докладов IX конгресса международной ассоциации морфологов: - Санкт-Петербург, 2008. – С. 85.
5. Тутельян В.А., Спиричев В.Б., Суханов Б.П., Кудашева В.А. Микронутриенты в питании здорового и больного человека (справочное руководство по витаминам и минеральным веществам) // М.: Колос, 2002. –С. 167.
6. Фриденштейн А.Я. Стволовые остеогенные клетки костного мозга // Онтогенез. - М., 1991. Т.22. – С. 189-196.
7. Харченко Л.Г. Влияние дозированного принудительного движения на морфологию вен пальцев грудной конечности бычков в условиях промышленного комплекса // Влияние экологических факторов на морфофункциональное состояние внутренних органов животных / - М., 1986. – С. 16-19.
8. Armstrong T.A., Spears J.W. Effect of dietary and phosphorus metabolism, and bone mechanical properties in growing barrows // J. Anim.Sci., 2007.-79 N12.-С. 3120-3127.
9. Canan Bolukbasi S., Saban Celebi, Necati Utlu. The Effects of Calcium and Vitamin D3 in Diet on Plasma Calcium and Phosphorus, Eggshell Calcium and Phosphorus Levels of Laying Hens in Late Laying Production Period // International Journal of Poultry Science, 2005. – Vol. 4. – №8. –P. 600-603.
10. Zukhriddinova, Z. D. (2022). Development central asian journal of natural sciences, <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/K76ZT>
11. Zuxridinova, J. D. (2022). central asian journal of natural sciences, <https://cajmns.centralasianstudies.org/index.php/CAJMNS/article/view/737>
12. Z. , Z. D. (2022).. central asian journal of natural sciences, <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/SYA5K>
13. Pirmanova, G. (2022). Extracurricular study of world monuments culture–168.<https://inlibrary.uz/index.php/scientific-research-covid-19/article/view/8536>



## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARDA KIMYO FANI METODIKASI

*Babajanova Xurshida Baxadir qizi*

*Xorazm viloyati Shovot tumani 48-umumiy o'rta ta'lim maktabi*

*Kimyo fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** O'quvchilarda kimyo faniga bo'lgan qiziqish va mehr va predmetga mas'uliyatli munosabat uyg'otish, kimyo fanining hozirgi davrdagi roli va o'rni haqida to'g'ri tasavvur shakllantirish haqida.

**Kalit so'zlar:** Ko'nikmalarini tekshirish, o'zlashtirish saviyasi, pedagogik jarayon.

Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi kimyo ta'limi pedagogik jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, ta'limning umumiy maqsadlariga muvofiq o'quvchi shaxsini tarbiyalashga xizmat qiladi. Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillarida ta'lim- tarbiya sohasini isloh qilish natijasida to'plangan tajribalar, chiqarilgan bir qator xulosalar asosida amaldagi ta'lim-tarbiya tizimini hozirgi taraqqiyot va kelgusidagi talablar darajasiga ko'tarishga, uni takomillashtirishga jiddiy e'tibor berish zarurligi ta'lim- tarbiyaning uzluksizligini ta'minlashdan kelib chiqib, «Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining IX sessiyasida muhokama qilindi va tasdiqlandi. Shu munosabat bilan barcha o'quv predmetlari qatori kimyo ta'limi oldiga ham aniq vazifalar qo'yildi. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga muvofiq:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining kimyo ta'limi konsepsiyasini qayta ishlab chiqish;

2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining kimyo ta'limi konsepsiyasidan kelib chiqqan holda, uning standartini ishlab chiqish taqozo qilinadi. Kimyo ta'limi standarti kimyo o'quv predmetining majburiy mazmunini belgilab beradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining kimyo ta'limi standarti, kimyo ta'limi tizimidagi barcha komponentlarni: ta'limning mazmuni, maqsadi, ta'limning kimyo ta'limi konsepsiyasiga muvofiq kimyo ta'limining yo'nalishi va maqsadi yosh avlodning kimyo fani asoslarini chuqur egallashi, o'quvchilarning siyosiy -g'oyaviy, estetik, ekologik tarbiyasi, tabiatga va jamiyatga bo'lgan ijobiy munosabat, qadimgi yashab ijod etib o'tgan buyuk mutafakkirlar, keyingi yillarda olimlarimizning kimyo sohasidagi erishgan yutuqlariga oid o'quv materiallari bilan tanishtirib borish orqali vatanga bo'lgan e'tiqodni shakllantirish, kasbga yunaltirish ko'zda tutiladi.

Kimyo ta'limi standarti-kimyo o'qitishda o'quvchilarga beriladigan ta'lim va tarbiyaning mazmuni negizini belgilovchi ko'rsatkichlar, shuningdek o'quvchilarning tayyorgarlik darajasidagi bilim va amaliy fa oliyatlar darajasi me'yorini

belgilaydigan mezon bo'lib hisoblanadi. Kimyo ta'limi standarti – umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun tuziladigan kimyo ta'limi dasturi va o'quv materiallarining hajmini belgilab beruvchi mezon bo'lib Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari xizmat qiladi. Kimyo ta'limi standarti – kimyo ta'limida o'qituvchilarning davlat va jamiyat oldidagi vazifalari, burchi va javobgarligini qay darajada his qilishlari mezon bo'lib ham hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining kimyo ta'limi standarti-kimyo o'quv predmetidan o'quvchilarga beriladigan bilimlar miqdori, o'quvchilar egallaydigan bilim, hosil qiladigan amaliy ko'nikma va malakalar hajmini ko'rsatuvchi me'yor bo'lib, umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi kimyo ta'limi negizini belgilovchi ko'rsatkichlar o'quvchilarning kimyo ta'limidan tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar majmuasidan iborat bo'lgan hujjat tariqasida tasdiqlanadi va xizmat qiladi.

Kimyo darslarida o'quvchilar bilim va ko'nikmalarini tekshirish va baholashda test sinovlari muhim o'rin tutadi. O'quvchilardan kimyoviy testlarni olishda ularning o'zlashtirish darajasiga qarab, test topshiriqlarini tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi. Test topshiriqlarida nazariy savollar bilan birga kimyoviy masalalardan foydalanish yaxshi samara beradi, chunki o'quvchilar bunday masalalarni yechayotganda o'zlarining nazariy bilimlariga tayanib, mustaqil fikrlash qobiliyatini oshiradilar. Guruhdagi har bir o'quvchining bilim va ko'nikmalariga qarab test materiallarini tuzish ularning o'zlashtirish darajasining yanada yaxshilanishiga olib keladi. O'zlashtirish saviyasi yaxshiroq bo'lgan o'quvchilarning test topshiriqlariga nisbatan murakkabroq masalalardan kiritish bilan ularning bilim saviyasini yanada oshirish mumkin. O'zlashtirish saviyasi o'rtacha bo'lgan o'quvchilarga nisbatan engilroq masalalar berib, keyinchalik ular e'tiborini ancha qiyinroq masalalarni yechishga qaratish mumkin. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun o'tilgan mavzulardagi asosiy kimyoviy tushunchalarni o'zida mujassam etuvchi yengil masalalar berib, ularni masalalarni yechish usullarini o'rganishga jalb qilish kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. A.G. Muftaxov. Organik kimyodan olimpiada masalalari va ularning yechimlari. O'rta umumta'lim maktablari uchun qo'llanma.- T.: O'qituvchi, 1997.
2. I.R. Asqarov., va boshqalar. Martabda kimyodan amaliy mashg'ulotlar. T.: O'qituvchi, 1992.
3. T. Gulboyev. Ta'lim jarayonining tayanch bilimlari. T.: Fan, 1996.
4. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Toshkent, 1999, 3 -son
5. I.R. Asqarov. Organik birikmalar nomenklaturasi va izomeriyasi.- T.: O'qituvchi, 1995.
6. I.R. Asqarov., K. G'ofurov., va boshqalar. Kimyodan test. T.: O'qituvchi, 1997.

## IMPLUS. IMPLUSNING SAQLANISH QONUNI VA UNI HAYOTGA TARQALISHI

*Imomaliyeva Robiyaxon Xolyigit qizi*

*Andijon viloyati Bo'ston tumani 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi*

*Fizika fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada Impuls.Impulsning saqlanish qonuni. Biror sistema tarkibidagi har bir jismga ichki va tashqi kuchlar ta'sir etishi mumkin. Jismlarning o'zaro bir birlarigako'rsatayotgan ta'sir kuchlari ichki kuchlarni tashkil qiladi. Sistemadagi jismlarning sistemadan tashqaridagi jismlar bilan o'zaro ta'sirlanishi natijasida vujudga keluvchi kuchlar tashqi kuchlar bo'ladi. Nyutonning ikkinchi qonunini i -tartib nomerli jismga tadbiiq etishi haqida

**Kalit so'zlar:** implus, yig'indi, qiymat, saqlanish, nisbat

Impulsning saqlanish qonuni nima? Fizikada saqlanish so'zi qiymati o'zgarmaydigan narsalarga nisbatan qo'llanadi. Ya'ni saqlanuvchan kattalikning qiymati vaqt o'tishi bilan o'zgarish sodir bo'lishidanoldin va keyin kattalikning miqdori o'zgarmaydi.Fizikada saqlanuvchi kattaliklar juda ko'p. Ular odatda fizik hodisada qanday o'zgarishlar sodir bo'lishini oldindan aytish uchun qo'llanadi. Mexanikada uchta saqlanuvchi kattalik mavjud: impuls, energiya va impuls momenti. Impulsning saqlanish qonunidan asosan ikkita jismning to'qnashuvini tasvirlashda foydalaniladi.Boshqa saqlanish qonunlari kabi impulsning saqlanishi ham yopiq sistema uchun o'rinli. Yopiq sistemada tashqi kuchlar mavjud emas, ya'ni hech qanday tashqi impuls yo'q. Buni haqiqiy ikki jismning to'qnashuviga doir masalada ko'rsak, biz harakat davomida faqat ikkita jismga ta'sir qiladigan kuchlarni e'tiborga olamiz.

Impuls nega saqlanadi?

Impulsning saqlanish qonuni, aslini olganda, Nyutonning uchinchi qonuni natijasi hisoblanadi.A va B jismlar orasidagi to'qnashuvni ko'rib chiqaylik. Ikki jism to'qnashganda, A jismga B jism tomonidan ta'sir qiladi, biroq Nyutonning uch inchi qonuniga ko'ra, B jismga ham A jism tomonidan miqdor jihatdan teng, yo'nalish jihatdan qarama-qarshi kuch ta'sir qiladi.Kuch ikki jism bir-biriga tegib turgan vaqtda ta'sir qiladi. Ikki jismning ta'sirlashish (to'qnashish) vaqti vaziyatga qarab turli xil bo'lishi mumkin. Masalan,

ikkita rezina koptokning urilish vaqti bilyard sharlarining urilish vaqtdan katta bo'ladi. Biroq vaqt doimo ikkita shar uchun ham bir xil bo'lishi lozim.

Natijada A va B jismlar olgan impulslar son jihatdan teng va yo'nalish jihatdan qarama-qarshi bo'ladi.Agar biz kuch impulsi jism impulsining o'zgarishi

ekanini yodga olsak, ularning kuch impulsleri teng, biroq yoʻnalish jihatdan qarama-qarshi ekanini bilishimiz mumkin. Bundan kuch impulslarining (impuls oʻzgarishlarining) yigʻindisi nolga teng.

Impuls saqlanish qonunining nimasi qiziq?

Unda eng kamida toʻrtta qiziqarli va baʼzan intuitsiyaga zid jihat bor: Impuls vektor kattalik boʻlgani sababli sistemaning umumiy impulsini topish uchun biz har bir jismning impulsini vektorlardek qoʻshishimiz kerak. Ikkita teng massali jism bir xil tezlik bilan bir-biriga qarama-qarshi yoʻnalishda harakatlanayotgan holatni qaraylik, jismlarning impulsleri miqdor jihatidan teng va yoʻnalish jihatidan qarama-qarshi boʻlgani sababli ular bir-birini qisqartirib yuboradi, natijada ikkala jism harakatlanayotganiga qaramay, sistemaning impulsini nolga teng boʻladi. Toʻqnashuvlarni impulsning saqlanish qonuni yordamida tahlil qilish juda ham qiziqarli. Toʻqnashuvlar tez sodir boʻlgani sababli jismlarning taʼsirlashish vaqti juda kichik boʻladi. Qisqa toʻqnashuv vaqtining qisqaligi tashqi kuchlar, masalan, ishqalanish kuchining kuch impulsini, juda kichikligini anglatadi. Hattoki murakkab harakatlarda ham jismning impulsini topish va uning oʻzgarishini kuzatib borish oson. Ikkita muz xokkeyi shaybasining toʻqnashuvini koʻrib oʻtaylik. Toʻqnashuv shunchalik kuchli boʻlsinki, shaybalarning biri ikkiga boʻlinib ketsin. Bunda kinetik energiya saqlanmasligi mumkin, biroq impulsning saqlanishi aniq. Toʻqnashuvdan keyin barcha boʻlaklarning massalari va tezliklarini bilsak ham, vaziyatni tushunish uchun hamon impuls saqlanish qonunidan foydalanishimiz mumkin. Bu juda qiziq, chunki bu vaziyatda energiyaning saqlanish qonunidan foydalanish, aksincha, deyarli ilojisiz. Yaʼni shaybani sindirishda qancha ish bajarilganini topish juda qiyin boʻladi.

—Qoʻzgʻalmaydigan jismlar bilan sodir boʻladigan toʻqnashuvlar juda ham qiziqarli. Tasavvur qiling, mmm massali koptok vvv tezlik bilan devor tomonga qarab harakatlanmoqda. U devorga uriladi va  $-v$  minus,  $v$  tezlik bilan qaytadi. Devor yerga qattiq mahkamlangan va joyidan qoʻzgʻalmaydi. Shunga qaramay, koptokning impulsini  $2mv$  ga oʻzgaradi. Chunki tezlik musbatdan manfiyga oʻzgaradi.

Impulsning saqlanish qonuniga koʻra, yerning va devorning impulsini  $2mv$  ga oʻzgaradi. Biroq yer koptokka nisbatan juda ogʻirligi sababli bizga bu oʻzgarish sezilmaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Strelkov S.P. Mexanika . T., 1977 y.
2. Sivuxin D.V. Umumiy fizika kursi .1 tom . T., 1981 y.
3. Raxmatullaev M . Umumiy fizika kursi. Mexanika. T., 1995 y.
4. Xaykin S.E. Fiz.osnovo` mexaniki. M., 1971 g.
5. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
6. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

## BAZALT TOLALI KOMPOZITSION QOPLAMA MATERIALLARI ISHLANMASINI YARATISHNING ILMIY ASOSLARI

*Babayev Sultonbek Sunnat o'g'li*

*Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti*

*Magistratura 2-kurs qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bazalt tolali kompozitsion qoplama materiallari ishlanmasini yaratish masalasining ilmiy asoslarini yoritishga, xorij tajribalarini muhokama etishga bag'ishlanadi.

**Kalit so'zlar:** bazalt, sement, qurilish, metod, texnologiya.

### KIRISH

Bugungi kunda yurtimizning har bir tuman va shaharlarida qurilish bunyodkorlik ishlari yangi bosqichga chiqdi. Tabiiyki, mamlakatimizda zamonaviy turar-joy binolari va ijtimoiy obyektlarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bunga mos tarzda, qurilish sohasida foydalaniladigan sifat darajasi yuqori, ekologik toza, tannarxi arzon, mahalliy xom ashyodan tayyorlangan qurilish materiallarini ishlab chiqarish ayni kunimizning dolzarb masalalaridandir.

Shuningdek, bugungi fan va ilmiy texnika yangiliklarini puxta va tez o'zlashtira oladigan, zamonaviy dunyoqarashga ega kadrlarni tayyorlash, ularning chet el oliy ta'lim muassasalarida, ilmiy tadqiqot institutlarida o'zaro tajriba almashishi va bilimlarini oshirishi uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratish, moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berildi.(1)

Shu bilan birga, ushbu qaror asosida 2019-2020 yillarga mo'ljallangan "Qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularning samaradorligini oshirish bo'yicha" chora-tadbirlar dasturi ham ishlab chiqilib, bugungi kunda amaliyotga keng tadbir etilmoqda.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Bazal't tolasi uzluksiz va diskret yoki shtabel turlariga bo'linadi[4]. Diskret tolasini paxta deb xam yuritiladi. Uzluksiz bazal't tolasining yo'g'onligi 7dan 24mkm gacha boradi. 7-15 mkm yo'g'onlikdagi bazal't tolasi kompozitlarni armirlashda ishlatiladi. Bunda organik yoki mineral bog'lovchi asos qilib olinib uning tarkibiga bazal't tolasi kiritiladi natijada mexanik mustahkamligi yuqori bo'lgan kompozit olishga erishiladi. Shuningdek, bazal't tolasi filtr to'siq vazifasida ham foydalaniladi. Keyingi yillarda bazal'tdan kabellarning sirt po'stini; quvurlarni; yong'inga qarshi himoyalash qobiqlarini tayyorlashda qo'llanilib boshladi. Bazal't tolasini olish juda sodda texnologiya bo'lib bunda bazal't toshi ma'lum bo'laklargacha maydalanib, kichik gabaritli eritish qurilmasiga yuklab beriladi va u erda 1450-15000S haroratda eritiladi.



Keyinchalik yaxshilab erigan qismi qurilmani ost qismiga o'rnatilgan platina-rodidiyan yasalgan filtr orqali oqib chiqadi va tomchi hosil bo'ladi. Filtrdagi teshiklar soni 200-400gacha borib ularning diametri kichik bo'ladi. Hosil bo'lgan tomchilardan diametri 9 mkmgacha teng bo'lgan tola tezligi 50 m/s teng bo'lgan tezlikda cho'ziladi. Cho'zilgan tola sirt yuzasini yog'lash uchun surkov vositasi surtiladi va bobinalarga o'raladi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Bazal't tola ishlab chiqarish yuzasidan katta xajmdagi ilmiy tadqiqot ishlari va amaliy tajribalar asosan Rossiya davlatida eng oldingi o'rinda turadi. Internetda keltirilgan ma'lumotlarga asosan [3] Rossiya davlatida 150 dan ortiq bazal't tolasi ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyat olib borib, bu korxonalar Ural, Kavkaz, Kareliya Sibir va Altay regionlarida jamlangan. Bu korxonalarning asosiy hom ashyolari bazal't, gabbro-bazal't, porfirit, diabaz, amfibiolit kabilardir. Bazal't tolasi bir komponentli arzon va taqchil bo'lmagan xom ashyo asosida bir bosqichli texnologik jarayonida olinadi. Shu bois ularning tannarxi boshqa tur tolalaridan 15-20% ga arzonlashadi, 1 kg bazal't tolasi olinishi mumkin. Bazal't tolasi olishga mo'ljallangan qurilmalar va texnologiyalar ekologik toza, ixcham, chiqindi hosil bo'lmasligi bilan ajralib turadi.

### Turli xududlarda tarqalgan bazal't xom ashyolarining o'rtacha kimyoviy tarkibi (mass % larda)

№	Mamlakat, jins nomi	Komponentlar (minerallar)								
		SiO2	TiO2	Al2O3	Fe2O3	FeO	MgO	CaO	Na2O	K2O
1	Tojikiston andezitli porfirit	49,05	2,83	12,49	3,98	10,25	5,37	8,54	3,34	0,65
2	O'zbekiston bazal't	48,2	0,60	11,8	4,12	6,20	9,15	13,3	1,45	2,25
3	Xitoy, toleitli bazal't	48,03	2,85	12,59	3,88	8,15	5,47	10,5	2,32	2,68
4	Ukraina, andezito bazal't	52,8	1,17	18,14	5,28	5,1	3,72	8,44	2,24	1,37

Oziq-ovqat va suv bilan asbest borligida kanserogen ta'sir ko'rsatadigan dalillar yo'q. Turli xil asbest tolalarining fibrojenikligi va kanserogenligi juda farq qiladi va tolalarning diametri va turiga bog'liq. Ishchilar o'limi va kasallanishining ko'payishi to'g'risidagi ma'lumotlar allaqachon e'lon qilingan. Masalan, Evropadagi eng katta ochiq konlardan biri Finlyandiyada Paakkila shahrida joylashgan edi. Atigi 586,076 tonna amosit va krokidolit asbest qazib olingan. Ushbu jamoada o'lim darajasi mamlakat bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichning 150 foiziga etdi. 70-yillarda bu erda erkaklarning

o'rtacha umr ko'rishi 57 yoshni tashkil etgan bo'lsa, butun mamlakat bo'ylab bu ko'rsatkich 67 yoshni tashkil etdi. Sobiq ishchilar o'limining asosiy sababi o'pka saratoni. Natijada, kantserogen moddasi xalqaro tan olinishidan oldin ham kon yopilgan edi.

### XULOSA VA MUNOZARA

Mamlakatimizni taraqqiy ettirishning barcha sohada strategik yo'nalishlarini aniq belgilanib, olib borilayotgan amaliy ishlar ham aniq maqsadga yo'naltirilmoqda. Yangi O'zbekistonni barpo qilinishi jarayonida qurilayotgan yangidan-yangi binolar mamlakatimizning yuqori salohiyatini namoyon etib turibdi.

Prezidentning Sh.Mirzayoyev 2019-yil 23-maydagi "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid kushimcha chora-tadbirlar tug'risida" gi PK-4335-sonli karorida xam qurilishda yangi texnologiyalarni qo'llash masalaga alohida etibor qaratgan. Tadqiqtlarimizda, ekologik tabiiy toza qurilish materiallari dolzarb bo'lib turgan ayni vaqtda nano texnologiyalar va inovatsion ishlanmalar asosida, maxalliy shart-sharoitdan kelib chikib, yukori samarali, bazalt tolalari asosidagi asbestsiz kompozit varaki tomyopkich materiallar yaratish borasidagi ilmiy izlanishlar olib bordik va uning natijalarini amalda sinab ko'rdik.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 maydagi PQ-4335-sonli qarori.
2. Шавкат Мирзиёев «Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз» 1-жилд «Ўзбекистон» 2019
3. О'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
4. K.Matyoqubova "Sulton uvays tog'i bazal't minerali asosida shisha tola olish imkoniyatlari" magistrlik dissertatsiyaishi 2016 yill
5. M.Saidmuradova Bazalt minerali asosida izolyatsion materiallar ishlab chiqarish sexini loyihalash. Bitiruv malakaviy ishi 2016-yil
6. Қосимов Э. "Қурилиш ашёлари". Дарслик. Т.:«Мehnat».–2004, - 512 б. г.
7. Samig'ov N. A., Samig'ova M.S. "Qurilish materiallari va buyumlari". Darslik. Toshkent. "Mehnat". 2013y. 310b.
8. Н.Н.Ходокова, Т.К.Углова, В.В.Фирсов, О.С.Татаринцева Минеральное сыре Кавказа для производства базальтовых волокон. Ползуновский вестник. Борнаул №1 2013 С. 138-142

## BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARIDA EKOLOGIK TARBIYANI TAKOMILLASHTIRISH METODOLOGIYASI

*Mamatov Eldorbek Komil o'g'li*

**Annotatsiya:** Hozirgi vaqtda maktab o'quvchilarini ekologik tarbiyalash pedagogik nazariya va amaliyotda ustuvor yo'nalishga aylanib bormoqda. Bu sayyoramizdagi qiyin vaziyat bilan bog'liq: tez o'sish aholi soni, demak, uni oziq-ovqat bilan ta'minlash, sanoatni mineral xom ashyo bilan ta'minlash muammosi, energiya muammosi va, albatta, tabiiy muhitning ifloslanishi - bularning barchasi yer yuzida hayotning mavjudligiga tahdid soladi. Bunday holatning eng muhim sabablaridan biri aholining ekologik savodsizligi, ularning tabiatga aralashuvi oqibatlarini oldindan ko'ra olmaslikdir.

**Kalit so'zlar:** tafakkur, ekologiya, o'quvchi, tashkilot, aholi, vosita.

**Аннотация:** В настоящее время экологическое воспитание школьников становится приоритетным направлением в педагогической теории и практике. Это связано с непростой ситуацией на нашей планете: стремительным ростом населения, а значит, его продовольственной обеспеченностью, проблемой обеспечения промышленности минеральным сырьем, проблемой энергетики и, конечно же, загрязнением природной среды - все это на земле угрожает существованию жизни на лицо. Одной из важнейших причин такого положения является экологическая безграмотность населения, неумение предвидеть последствия своего вмешательства в природу.

**Ключевые слова:** мышление, экология, студент, организация, популяция, инструмент.

**Abstract:** Currently, environmental education of schoolchildren is becoming a priority in pedagogical theory and practice. This is related to the difficult situation on our planet: the rapid growth of the population, which means its food supply, the problem of supplying the industry with mineral raw materials, the energy problem and, of course, the pollution of the natural environment - all this is the earth threatens the existence of life in the face. One of the most important reasons for this situation is the environmental illiteracy of the population, the inability to foresee the consequences of their interference with nature.

**Keywords:** thinking, ecology, student, organization, population, tool.

### KIRISH

Ekologik xavfsizlik muammosi nafaqat milliy va mintaqaviy, balki butun insoniyatning umumbashariy muammosidir. Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning

manfaatlariga mos bo'lib, rivojlanishning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqdir. Atoqli pedagog V.A.Suxomlinskiy «Bolalarga jonim fido» asarida «Men bolalar «Alifbo»sini ochib, birinchi so'zni hijjalab o'qishlariga qadar avval dunyodagi eng ajoyib kitob –tabiat kitobini mutolaa etishlarini istardim» - deb ta'kidlaganidek, bu borada barcha ishlarni bolaning kichikligidanoq boshlash maqsadga muvofiqdir.

### **TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI**

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 50-moddasida: «Fuqarolar atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar» va 55- moddasida esa: «Yer va er osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umumiy boyliklardir. Ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat mudofaasidadir» - deb juda o'rinli ta'kidlangan. Fuqarolarda ekologik madaniyatni tarkib toptirish, ularga tabiat, atrof-muhit bilan qanday munosabatda bo'lishni o'rgatish ijtimoiy pedagogika nazariyasi va amaliyotining eng dolzarb mavzusiga aylandi. O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni, «Sog'lom avlod uchun» ordenining ta'sis etilishi, shu nomda Davlat dasturi, «Ekologik ta'lim-tarbiya konsepsiyasi» ning ishlab chiqilishi, «Ekosan» jamg'armasining tuzilishi va 2000 yilning «Sog'lom avlod yili» va 2005 yilning «Sihat-salomatlik yili» deb e'lon qilinib, davlat dasturi ishlab chiqilishi ekologik tarbiyaning ijtimoiy muammolarini hal qilishga qaratilganligidan dalolat beradi. Aholi sonining tez o'sib borishi natijasida ekologik ijtimoiy muammolar ham tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, aholini yer, suv, energetika, oziq-ovqat bilan ta'minlash haqidagi muammolar butun dunyo ijtimoiy muammolariga aylanib bormoqda. Yer kurrasida insonning farovon yashashi endi ekologik muammolarni yechishga bog'liq bo'lib qolmoqda. Ekologik muammolarning ilmiy, iqtisodiy, texnik, gigienik, yuridik, estetik, pedagogik va psixologik yo'nalishlari mavjud. Pedagogik yo'nalishda ekologik ta'lim va tarbiya berish ko'zda tutiladi. Ekologik ta'lim deganda, aholiga berilishi lozim bo'lgan tabiat bilan inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimi tushuniladi. Ekologik tarbiya esa insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir. Ekologik ta'lim-tarbiyadan bosh maqsad ham turli yoshdagi kishilarda atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iborat. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik savodxonlik va madaniyat ta'lim-tarbiya muassasalari va oilada amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik tarbiya berishda milliy xususiyat va tomonlarga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Bular: suv, yer, tuproq, havo muqaddas hisoblangan. Ota-bobolarimiz: «Suv – tabiat in'omi, hayot manbai», - deb bejiz aytishmagan. Maktabda o'quvchilarni ekologik tarbiyalashda bunday ma'lumotlarni berib borish o'qituvchilarning asosiy vazifasi bo'lmog'i darkor. Atrof-muhitga, tabiat boyliklariga e'tiborsiz bo'lish butun sayyoriga jiddiy zarar yetkazishi ma'lum. Inson bilan tabiat o'rtasidagi muammolarni yechish zaruriyati tug'ildi.

O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish, tabiat, atrof-muhit bilan qanday munosabatda bo'lishni o'rgatish pedagogika nazariyasi va amaliyotida dolzarb muammoga aylandi. Ayniqsa, umumta'lim maktablarida maktab partasidanoq tabiatga muhabbat ruhida tarbiya berishga astoydil kirishish zarur. Ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya berish mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi: -atrof-muhit va uning shaxs ma'naviy dunyosiga ta'siri; -tabiat va uning ahamiyatini anglash; -tabiatga muhabbatni shakllantirishda maktab va oilaning hamkorligi; -o'z tumani, shaharini, qishloq va maktab hovlisini ko'kalamzorlashtirishda, hatto sinf xonasidagi o'simliklarni ham parvarishlashga qiziqtirish; -oiladagi, maktabdagi tabiatni, o'simliklar va hayvonot dunyosini e'zozlashga o'rgatish, jonivor va qushlarni parvarish qilish; -yoshlarni ekologik tarbiyalashda milliy an'ana va udumlarni qayta tiklash, ularga e'tiborni kuchaytirish. «Avesto»da kishilarni ekologik tarbiyalash bo'yicha quyidagi tadbirlar belgilangan: "Inson butun umri davomida suv, tuproq, olov, umuman dunyodagi jamiki yaxshi narsalarni pok va bus-butun asrashga burchlidir. Yer, suv, havo, olovni asrash qoidalarini buzgan kishi 400 qamchi urish jazosiga mahkumdir. Ota-bobolarimiz azalazaldan tabiatga yuksak mehr ko'rsatishgan. Yurtni obod etishgan, ko'chalarni, hovlilarni sarishta qilishgan." Bundan ko'rinadiki, azaldan tabiatga munosabat milliy qadriyatlarimiz bilan uyg'unlashib ketgan. Maktab o'quvchilari ekologik tarbiya jarayonida quyidagilarni bilishlari zarur: -tabiat haqida tushuncha, tabiiy muhit, tabiiy omillar va ular orasidagi bog'lanish; -tabiat boyliklaridan tejab-tergab foydalanish va ularni muhofaza qilish; - atrof-muhitni ifloslantirishdan saqlash; -tabiatni kelajak avlodlar uchun tabiiy holda qoldirishga intilish. Shu sababli, YUNESKO va YUNEP xalqaro tashkilotlari Yer aholisining ekologik ta'lim mazmuni va muddatlarini qayta ko'rib chiqish zarurligi masalasini ko'tarmoqda.

### **TADQIQOT NATIJALARI**

Aholining ekologik madaniyatining shakllanishi, shakllanishining boshlanishi bola hayotining birinchi 7-8 yiliga to'g'ri keladi. Boshlang'ich maktab yoshi - bu inson hayotining hal qiluvchi davri, chunki bu erda atrof-dagi dunyoga to'g'ri munosabatda bo'lish asoslari qo'yiladi. Muayyan ekologik g'oyalarni olgan o'quvchilar tabiatga nisbatan ehtiyotkor bo'ladilar. Kelajakda bu ma'lum bir mintaqada ham, butun mamlakatda ham ekologik vaziyatning yaxshilanishiga ta'sir qilishi mumkin. Ekologik ta'lim zamonaviy ta'limning o'zagiga aylanib bormoqda va uning zamonaviy tizimlarini va umuman jamiyatni qayta qurishning kalitidir. Shunday qilib, ekologik ta'limning yangi axloqning asosi va odamlarning amaliy hayotining ko'plab masalalarini hal qilishda qo'llab-quvvatlash roli bugungi kunda ayniqsa dolzarbdur. Kichik yoshdagi o'quvchilarni ekologik tarbiyalash o'qituvchining eng muhim vazifasi ekanligi sababli ushbu mavzuning dolzarbligi ortib bormoqda. boshlang'ich maktab atrof-muhit, jumladan, o'lkashunoslik darsida ekologik ta'limning turli shakllari va usullaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Boshlang'ich maktab o'quvchilarida tabiatga muhabbat



Qadimdan insonlar dorivor o'simliklarni o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib o'rganib kelishgan. Bog'dorchilikning hamda dehqonchilikning an'anaviy metodlari aynan tarixdan shu kungacha amalga oshirilib kelingan biologic tadqiqotlarning natijasidir. Bizga ma'lumki, biologiya olimlarining zimmasida butun yer yuzi aholisini oziq ovqat bilan ta'minlashdek mashaqqatli vazifa turibdi. Insonlarni sifatli ozuqa bilan ta'minlash o'z navbatida sifatli va zararsiz hamda oson yetishtirilgan hayvon yoki o'simlik turlarini aniqlash va ularni atroflicha o'rganishni talab etadi. Insoniyatni ozuqaga bo'lgan talabi tarixdan ularni bevosita botanika, zoologiya agronomiya ba'zi hollarda mikologiya bilan shug'ullanganligini ko'rsatadi. Biz oziq-ovqat sanoatiga tadbiq qilayotgan o'simligimiz ham oziqabop ham dorivor bo'lsa, aholining reproduktiv salomatligiga sezilarni hissa qo'shgan bo'lamiz. Dorivor o'simliklarni ozuqabopliligini o'rganish ularni qo'llash bilan aholining kundalik ovqat ratsionidan sun'iy kimyoviy moddalarni kamayishiga olib keladi. Masalan har xil sun'iy kukunli ozuqalar, sun'iy shirinliklar, gazli ichimliklar bizning sog'limizga yomon ta'sir qilib immunitetni keskin tushishiga olib keladi. Insonlarning sun'iy ozuqalarga bo'lgan talabi aslida hujayralarda tabiiy ozuqalardan keladigan mironutrientlarning yetishmasligi sabab yuzaga keladi. Takidlash joizki, bunday turdagi sun'iy ovqatlanish immun tizimining zaiflashuvi va ortiqcha va muommosi, kamqonlik singari kasalliklarni keltirib chiqaradi. Bunday sun'iy oziqlanishni tabiiysiga almashtirish nafaqat inson salomatligini tiklaydi balki uning umrini ham uzaytirishi fan yutuqlarida yaqqol ko'rinadi. Qadimdan dorivor o'simliklar orasida imbir ya'ni zanjabil alohida ahamiyatga ega. Ilmiy nomi zingiber officinale dir. Bundan 5000 yil oldin Sanskrit xalqi imbirdan keng foydalanishgan va uni shoxli ildiz deya atashgan. Turli xalqalar orasida mashhur bo'lgan bu o'simlik hayot ildizi, oltin jangchi, samuray qilichi degan nomlarni olgan. Quyida esa bu o'simlikni nega bunchalik mashhur bo'lish sabablarini ko'rib chiqamiz.

**Zanjabilni birinchi bo'lib Hindistonning shimoliy hududlari aholisi etishtirdi.**

Aynan o'sha joydan bu ajoyib ziravorlar dunyoning boshqa qismlariga olib kelingan. Bu arab savdogarlari tomonidan amalga oshirilgan. Bugungi kunda Xitoy, Nigeriya, Avstraliya, Braziliya, Yamayka va Barbados orollari aholisi bu o'simlikni o'stirmoqda. Ziravorlarni yaxshi ko'radiganlar mo'tadil iqlim sharoitida ildizni qozonlarda uyda ekishga muvaffaq bo'lishadi.

**Zingiber officinale** o'simligining ildizlaridan odamlar kundalik ovqatlari tarkibida qo'llab kelishar ekan, imbir ildizlari ovqatga hushtam berishi bilan birga aholini mikronutrientlar bilan ta'minlab kelayotgani fanga aniq bo'ldi. Qadimgi arab, rim va xitoy olimlari o'z asarlarida zanjabilni to'laqonli dori vositasi sifatida tariflashgan. Uzoq yillar oldingi manbaalarga qaraganda Osiyolik taniqli hakimlar imbirdan gastrintologiya muommolaridan keng foydalangani yozib ma'lum. Ko'ngil aynishi va diareya imbir yordamida davolangan. Bundan tashqari zanjabil quyidagi kasalliklarga qarshi qadimgi tabobatda samarali natijalar ko'rsatgan. Bular: mushaklardagi og'riqni qoldirish, shamolash va tumovda, me'da kasalliklarida, kuyishda, hamda ayollardagi minstural sikldagi siqish bilan kechadigan og'riqlarda. Hozirgi davr tibbiyotida odamlar zanjabilidan asosan oshqozon og'riqlarini qoldirishda foydalanib kelishmoqda. Sababi notog'ri ovqatlanishga odatlanish insonlarda me'da kasalliklarini avj olishoga sabab bo'ladi. Xar bir soha rivojlangani barobarida ovqatlar tarkibi ham "fast food" larga almashinib borayotgani sabab dori vositalarining tarkibiga kirayotgan zanjabil miqdorini tonnalarga oshirayapti. Zanjabil bir urug'pallalilar sinfiga mansub bo'lib zanjabildoshlar oilasining (zingiberceae) vakili bo'lib, yo'g'on ildizpoyali ko'pyillik o't. Asosan, tropik va subtropik mintaqalarda yarqalgan bu o'simlikning vatani Janubiy Sharqiy Osiyodir. Lekin hozirgi kunda butun dunyoda ekilib ko'paytirib kelinadi. Zanjabilning yer ostki qismida to'liq efir moylari bo'lib. Zanjabil ildizlari xushbo'y hidli va mazali bo'lib, ildiz maydalangani sari uning xushbo'yliigi ham ortib boradi. Maydalangan imbir kukunlari yaxshilab elanib asal nilan birga choy sifatida damlab ichilsa jigar yurak, me'da kasalliklariga davo sifatida foydalaniladi. Oziq ovqat sanoatida konditer mahsulotlari tayyorlashda va pazandichilikda, hamda zirovar sifatida foydalaniladi.

Zanjabil ildizining foydasi va zarari sinchkovlik bilan o'rganishga loyiqdir, chunki bu ko'plab odamlarning sog'ayishiga yoki vaznini yo'qotishiga yordam berdi. Keling, u bizga qanday etib kelganidan boshlaymiz. Bir marta, Xitoyda qazish ishlari paytida, ular zanjabil sumkalarini topdilar. Topilma miloddan avvalgi II asrga tegishli edi. Konfutsiy, Gippokrat, Avitsenna ham o'zlarining asarlarida bu o'simlikni tasvirlab berishgan. Mashhur yozuvchilar C.Dikkens, V.Dahl, L.Tolstoy, A.Pushkinlar ham zanjabil haqida so'z yuritadilar. Ildizning foydasi va zarari keyinroq bayon qilinadi. U haqida birinchi eslatmalar kanonik Veda tibbiyoti matnlarida uchraydi. Ular allaqachon 5000 yoshdan oshgan. 15-asrda yashab ijod etgan Yusuf Muhammad ibn Yusuf at-Tabib al-Xaraviy “

Xayrli kishilarga foydalar” asarida zanjabil haqida ancha mukammal ma’lumot bergan. 16-asrda yashab ijod etgan Hakim Davoiy al-G’iloniy ham “Insonlarga foydalar” asarida zanjabil haqida kengroq ma’lumot beradi. Zanjabilning ildizi dorivor bo’lib, tarkibida 1.5 foizdan 3 foizgacha efir yog’lari, 70 foizgacha organik kistolalar noyob aminokislotalar bor. Vitaminlardan C, A, D, B GURUHI vitaminlari. Imbir tarkibida yana kaliy, fosfor, magniy, temir hamda mis bo’lib, ular ham moddalar almashinuvida faol ishtirok etishadi. Zanjabil tarkibidagi C vitamini va kaliy hamda fosfor elementlari immunitetni mustahkamlashsa, gripp hamda shamollashda va yana viruslarga qarshi kurashda faol ishtirok etadi. Aterosklerozda, yog’lar va xolesterin almashinuvi buzilganda qon tomirlar holatini me’yorga solidi. Bosh og’rig’ida, yelka og’riqlar paydo bo’lganda, surunkali bod xastaligida imbirli compress qilinadi. Zanjabil artrit kasaligida ham shifo bo’ladi. Zanjabil \_aromaterapiyada keng qo’llaniladi sab va ruhiy zo’riqishlar undan keng foydalaniladi. Ildizpoyalaridan ko’paytiriladigan bu o’simlik 6-8 dyum uzunlikdagi qalamchalari, 2-4 dyumdagi chuqurlikka ekiladi. Zanjabil o’simligidan yaxshi hosil olish uchun sakkiz yoki o’n oy muddat kutishni va parvarishni talab qiladi. Zanjabil o’simligining asosan ikki navi yetishtiradi. Bular qora zanjabil yoki Barbados o’tkir ta’mi va kuchli hidi bilan xarakterlanadi. Ikkinchi navi oq zanjabil yoki Bengal turi Rossiya bozorlarida keng tarqalgan. Oq zanjabilidan sulfat kislota bilan birga dori vositalari tayyorlanadi. Zanjabil ildizlarini eksport qilish ularni sifatli saqlashni talab qiladi. Zanjabil ildizlari asosan ikki xil usulda saqlanadi bulardan biri qog’oz qopchalarga o’rab, germetik kontenerlarda saqlash bo’lsa ikkinchisi zaytun moyiga bo’ktirib qo’yish usulidir.

### **Zanjabilli choy tayyorlash**

Qirg’ichdan yangi chiqarilgan 3 choy qoshiq zanjabil ildizi 100 ml. suv yoki sutga solinib, qopqog’i zich yopilgan emalli idishda past olovda 10 daqiqa qaynatiladi. So’ng 5-10 daqiqa dimlab qo’yiladi hamda asal va limon qo’shib issig’ida ichiladi.

### **Zanjabilli choyga qarshi ko’rsatmalar**

Ovqat hazm qilish a’zolarida muammosi borlar, homilador ayollar, bolalar va kuchli antikoagulyant dorilar qatoriga kiruvchi aspirin, varforin, tiklopidin yoki geparin kabi dori-darmonlar ichib yuruvchi kishilarga tavsiya etilmaydi. Zanjabilni ichishdan oldin shubha tug’ilsa, davolovchi shifokor bilan maslahatlashish lozim.

Buyuk hakim Abu Ali Ibn Sino “Tib qonunlari” asarida ko’plab xastaliklarni davolashda qo’llanadigan malhamlarni tayyorlashda ular tarkibiga zanjabil qo’shish lozim, deb yozgan. Bir qator xastaliklarni davolashda zanjabilidan samarali foydalangan buyuk hakim Abu Ali ibn Sino o’z asarida shunday yozadi: “Zanjabil eslash qobiliyatini orttiradi, bosh va yurak atrofidagi rutubatlarni ketkazadi, ovqatni yaxshi hazm qildiradi”. Uning kimyoviy tarkibida 400 ga yaqin foydali elementlar mavjud. Ushbu ildiz o’z tarkibida juda kerakli bo’lgan aminokislotalar, uglevodlar, oz miqdorda yog’, ko’p miqdorda sellulozani saqlaydi. Zanjabil vitaminlarga juda boy (V-guruh



vitaminlari, askorbin kilotasi, tokoferol, vitamin K ni alohida ta'kidlash kerak). U o'zining tarkibida kaliy, fosfor, magniy, temir, kalsiy, rux va shu kabi boshqa mikro va makroelementlarni, efir moyini saqlaydi. Bu o'simlik ildizining kaloriyaliligi uning qay holatda ekanligiga bog'liq 100 g barra ildizning energetik qiymati 80 kkal ga teng, quritilgan holatda esa bu ko'rsatkichi deyarli 4 marta oshadi (taxminan 330 kkal/100 g ni tashkil qiladi). Zanjabilning shifobaxsh xususiyatlari keyingi bir necha o'n yilliklarda zamonaviy mutaxassislar tomonidan faol o'rganilmoqda.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytishimizi mumkin zanjabil tarkibida biriktiruvchi moddalar va gingerol mavjudligi unga o'ziga xos yoqimli hid berib turadi, qator foydali xossalarga egaligi ham shundan kelib chiqadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Курбонов, Х. У., Олимов, С. М., Жовлиев, Ф. Б., & НЕКОТОРЫЕ, А. Ф. О. ORIENSS. 2022. № Special Issue 4-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nekotorye-aspekty-fitolecheniya-onkologii>.
2. Курбонов, Х.У., Олимов, С.М., & Жовлиев, Ф.Б. (2022). НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ФИТОЛЕЧЕНИЯ ОНКОЛОГИИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 ( Special Issue 4-2), 905-910.
3. Курбонов, Х.У., Олимов, С.М., & Жовлиев, Ф.Б. (2022). НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ФИТОЛЕЧЕНИЯ ОНКОЛОГИИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 ( Special Issue 4-2), 905-910.
4. Xasanova, G. R., Ernazarova, M. E., & SHIFOBASH, Q. O. T. F. J. ORIENSS. 2022. № Special Issue 4-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/shifobash-qoqi-o-tining-foydali-jihatleri>.
5. Усманова, М., Эрназарова, М., Куйлиева, М., & Хасанова, Г. (2021). Дорихона фаолиятини ташкил этиш, дорилар саклаш чора тадбирлари. *Экономика и социум*, (11), 90.
6. Yakubova, Sarvinoz Raxmonqulovna, & Xasanova, Gulbaxor Raxmatullayevna (2022). КАМҚОНЛИК НАҚИДА ТУШУНЧА. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 ( Special Issue 4-2), 897-900.
7. Нажмиддинов, Х. Б., Дилмуродов, Ш. Н., & Раймкулова, Ч. А. (2021). Определение Аммиака Неинвазивным Методом В Выдыхаемом Воздухе Человека. ТА'ЛИМ VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMİY JURNALI, 1(5), 50-54.
8. Омонтошева, М. Т., Махмудова, М. М., Нажмиддинов, Х. Б., & Бердимуродова, Ф. П. (2021). ИСТОЧНИКИ И МЕТОДЫ ПОЛУЧЕНИЯ ЛЕКАРСТВЕННЫХ ВЕЩЕСТВ. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMİY JURNALI, 1(5), 6-9.

9. Усманова, М., Эрнazarova, М., Куйлиева, М., & Хасанова, Г. (2021). Дорихона фаолиятини ташкил этиш, дорилар саклаш чора тадбирлари. Экономика и социум, (11), 90.
10. Ernazarova, M. SH., Yuldashev SA, capparis and its importance, international journal of discourse on innovation, integration and education, v-2, i-01, 2021, ISSN: 2181-1067.
11. Xasanova, G. R., Ernazarova, M. E., & SHIFOBASH, Q. O. T. F. J. ORIENSS. 2022. № Special Issue 4-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/shifobash-qoqi-o-tining-foydali-jihatleri>.
12. Shamsiyeva, N. O., Sh, E. M., Eshonqulova, K. H., HOSSALARI, A., ORGANIZMGA, T. S., O'RGANISH, O. L. I. N. I. S. H. I. N. I., & REAKSIYALARI, S. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. V-1, I-2, ISSN, 2181-2020.
13. O.J.Meliqulov, N.D.Kodirov, & E.S.Baymuradov (2022). 4-XLOR-5,6-DIMETILTIENO[2,3-D]PIRIMIDINNING TO'YINGAN GETEROSIKLIK BIRIKMALAR BILAN REAKSIYASI. Ta'lim fidoyilari, 18 (5), 285-288.
14. Меликулов, О. Ж., Кодиров, Н. Д., Баймурадов, Э. С., & ИСПОЛЬЗОВАНИЕ, Б. В. Ф. ORIENSS. 2022. № Special Issue 4-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovanie-barbarisa-v-farmakoterapii>.
15. Meliqulov, O. (2021). 2H-4-GIDRAZINIL-5, 6-DIMETILTIENO [2, 3-d] PIRIMIDINNING sINTEZI VA UNING ALDEGIDLAR BILAN KONDENSATSIYA REAKSIYALARI. Scienceweb academic papers collection.
16. Меликулов, О. Ж., Кодиров, Н. Д., & Баймурадов, Э. С. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ БАРБАРИСА В ФАРМАКОТЕРАПИИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 4- 2), 911-913
17. Meliqulov, O. J., & Ernazarova, M. S. (2022). DORI VOSITALARINING BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 4-2), 978-982.

**“AMU-QASHQADARYO ITHBDA ISHLATILAYOTGAN NASOS STANSIYALARINING IQLIM KO‘RSATKICHLARINI TADQIQOTI”**

***Fayzullayev Joxon Toshpo‘lat o‘g‘li***

*“TIQXMMI”MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti,  
stajyor o‘qituvchisi*

***Sarmonov Nodir O‘tkir o‘g‘li***

*“TIQXMMI”MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti, assistent.*

***Aralov Behro‘z G‘ayratovich***

*“TIQXMMI”MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti,  
stajyor o‘qituvchisi*

***Sag‘dullayeva Sevara***

*“TIQXMMI”MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti, talabasi*

***Shoniyozov Shahzod Abdusamat o‘g‘li***

*“TIQXMMI”MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti,  
stajyor o‘qituvchisi*


**Anotatsiya:** Qarshi magistral kanali Qashqadaryo viloyatining Nishon, Qarshi, Koson, Kasbi, Mirishqor, G‘uzor va Muborak tumanlaridagi 250 ming gektar yer maydonlaridagi yokinlarni sug‘orish, shuningdek, ichimlik, texnik suv ta‘minoti uchun suv yetkazib beradi

Qarshi magistral kanaliga Amudaryoning Pulizindon tirsagidan suv olinadi va 7 ta nasos stansiyalaridan tashkil topgan kaskad yordamida daryo suvi Talimarjon suv omborigacha yetkazib beriladi. Kaskaddagi 7 – nasos stansiyasi bevosita suv omborni to‘ldirishga xizmat qiladi. Qarshi magistral kanalining Talimarjon suv omborigacha bo‘lgan uzunligi 78,4 km ni tashkil etadi. Kaskadning umumiy suv ko‘tarish balandligi 6 – nasos stansiyasining yuqori befigacha 132,2 metrga teng, suv omborning me‘yoriy suv sathigacha balandlik 158,9 metrni tashkil etadi. Qarshi magistral kanali kaskadining me‘yoriy suv sarfi 175 m<sup>3</sup>/s, oshirilgan suv sarfi 195 m<sup>3</sup>/s ga, umumiy quvvati esa 516 000 kVt ga teng. Qarshi magistral kanali nasos stansiyalari Qarshi cho‘lidagi xo‘jaliklarning ekin maydonlarini suv bilan ta‘minlash uchun xizmat qiladi.

Qarshi cho‘li hududida yillik yog‘in miqdori unchalik katta emas (Qarshida– 278 mm, Muborakda – 179 mm). Yoz faslining uzoq davom etishi oqibatida hududda yillik haroratning yuqoriligi natijasida bug‘lanish 1609 mm gacha yetadi, bu esa o‘z navbatida namlik tanqisligi (defitsit) ni vujudga keltiradi. Hududda qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori mahsulot olish uchun sug‘orma dehqonchilikni rivojlantirish talab etiladi.

**Kalit so'zlar:** gidromexanik, iqlim, kavitatsi, temperatura, sharoit, gidromorf, statistik.

Qarshi cho'lining markaziy va g'arbiy qadimiy qoldiq platolari atrofida taqirli (jami 391 ming ga, shu jumladan 106 ming ga sug'oriladigan, 285 ming ga sug'orishga yaroqli) va sur tusli qo'ng'ir (Devxona, Jarqoq platosi, Dengiz sirt past tog'larida 337 ming ga) tuproqlar tarqalgan. Cho'l zonasining ancha yirik qismida gidromorf tuproq maydonlari ham rivojlangan, bular sho'rxoklar, o'tloqi va botqoq tuproqlardir. Bu yorda sug'orish uchun foydalaniladigan yerlarning kattaligi, intensiv qishloq xo'jalik raenlarining vujudga keltirilganligi, issiqlik resurslariga boyligi qimmatbaho qishloq xo'jalik yokinlarini etishtirish imkonini bersa, keng cho'l maydonlari doimiy yaylov chorvachiligini rivojlantirish uchun manba bo'lib xizmat qiladi.



1 – rasm. Qashqadaryo viloyatining irrigasion haritasi

Hozirda Qarshi cho'li yer resurslaridan yaylov chorvachiligi, sug'oriladigan va lalmi dehqonchilik tarmoqlarida keng foydalanilmoqda. Qarshi cho'lining suv tanqis qishloq xo'jaligiga yaroqli bo'lgan hududlarida qadimdan to hozirgi vaqtga qadar yaylov sifatida foydalanib kelinmoqda. Ammo bu hududlarda to'g'ri keladigan chorva turi sonining ko'pligi, yillik tiklanadigan yem-xashak sig'imidan ko'ra kattaroqdir.

Qarshi cho'li sug'oriladigan yer fondining solishtirma bahosi (tuproq xossalari, unumdorligi, dehqonchilikdagi faol foydaning cheklanganligi, ozuqabopligi, yokin turlarining cheklanganligi, sho'rlanish darajasi, Eroziyaga beriluvchanligi, boniteti)

hozirgacha unchalik katta emas. Ammo Qarshi cho‘lida sug‘oriladigan yer maydoni yildan yilga ortib 1913 yilga nisbatan 1983 yilda 36 barobar oshgan (200 ming ga) bo‘lsa, 2008 yilda 45 barobarga yetgan (246 ming ga).

Qarshi cho‘lining och tusli bo‘z va taqir tuproqlarida kelajak istiqbolda sug‘orma dehqonchilikda foydalanishga yaroqli bo‘lgan yerlar qariyb 1,0 mln.ni tashkil etadi. Suv resurslari bilan taminlash imkoniyatlari cheklangan bo‘lmaganida cho‘l hududi sug‘orma dehqonchilik yerlaridan kelgusida 1,3 mln. tonna paxta, 300 ming tonnadan ortiq g‘alla, 300 ming tonnaga yaqin meva va boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlarini etishtirish imkoni bo‘lardi.

***QMK nasos stansiyalari hududining iqlimiy ko‘rsatkichlari  
(Qarshi meteostansiyasi ma’lumotlari)***

**1.1 – jadval**

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Miqdori
O‘rtacha oylik havo harorati:		
yanvar	0 <sub>S</sub>	1,1
iyul	0 <sub>S</sub>	30,1
O‘rtacha yillik havo harorati:	0 <sub>S</sub>	15,8
Mutlaq maksimum harorat	0 <sub>S</sub>	49,0
Mutlaq minimum harorat	0 <sub>S</sub>	-28,0
Nisbiy namlik yanvar	%	79,0
iyul	%	30,0
yil davomida	%	55,0
Yog‘in – sochinlar Yanvar	mm mm	43,9
mart	mm	61,0
yil davomida		278,0
Bug‘lanish yanvar	mm mm	21,0
mart	mm mm	49,0
iyul		306,0
yil davomida		1609,0
Namlik taqchilligi (yil davomida)	mm	1380,0



	Shamolning o'rtacha tezligi		
	yanvar	m/sek	2,3
	iyul	m/sek	4,4
	yil davomida	m/sek	3,1

Ayniqsa adir iqlimli cho'l yerlarni sug'orish natijasida qayta sho'rlanish, irrigasiya eroziyasi, cho'kish, zah bosish (botqoqlanish), agrolandshaftlarning kimyoviy birikmalar bilan zaharlanishi, tuproqlar tarkibida pestitsidlar, gerbitsidlar va nitratlar miqdorining ortib borishi, yer usti va yer osti suvlarining minerallashish darajasining kuchayishi, tabiiy resurslarning kamayib borishi va geokologik vaziyatning keskinlashuviga olib kelmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. M.M. Muxammadiev, Urishev B.U. Gidroenergetik qurilmalar. Darslik. T.: "Fan va texnologiya", 2013, 280 bet.
2. Urishev B.U. «Nasoslar va nasos stansiyalari» fanidan ma'ruzalar matnlari to'plami. Q., QarMII., 2000. – 76 b.
3. Справочник. Устройства закрытых оросительных систем. Трубы. Арматуры. Оборудование./ Под ред. проф. д.т.н. В.С.Дикаревского, М., 1986. – 256 с.

## БОСИМ ҚУВУРИНИ ГИДРАВЛИК ЗАРБАДАН ҲИМОЯЛАГИЧ ҲИСОБИ

*Файзуллаев Жохон Тошнўлат ўғли*

*“ТИҚХММИ” МТУ Қарши ирригатсия ва агротехнологиялар институти,  
стажор ўқитувчиси*

**Анотация:** Насос станция биносига бир нечта мураккаб гидромеханик ва энергетик машиналар ва ускуналар, ёрдамчи жиҳозлар, сўриш ва босимли қувурлар коммуникациялари, юк кўтариш қурилмаси, бошқариш ва назорат-ўлчов асбоблари, алоқа ва автоматика воситалари жойлаштирилади.

Сув хўжалик тизимларидаги насос станциялари аҳамиятига қараб, суғориш, қуритиш, сув таъминоти, канализация, вертикал қудуқ ва гидромеханизация насос қурилмалари ва станциялари турларига бўлиш мумкин. Насос станцияларнинг асосий ускуналари уларга ўрнатиладиган насос агрегатлари (насос, двигатель, улар ўртасидаги узатма) ҳисобланади.

**Калит сўзлар:** Электродвигателлар, гидравлик зарба, босим қузури.

Ҳозирги кунда саноатда, қишлоқ хўжалигида, суғоришда, сув таъминотида ва нефтни ўзатишда насос станцияларидан ва қурилмаларидан кенг фойдаланилади. Насос танциялари ва қурилмаларининг асосий иншоотларидан бири анча узун бўлган босим қувурлари ҳисобланади. Бу узун босим қувурлари сув, нефт ва бошқа уюқликларни исрофсиз узатишда асосий ишни бажаради. Босим қувурлари ҳар хил арматуралар (қулфак, тескари клапан ва бошқалар), яъни жиҳозлар билан таъминланади. Бу арматуралар нормал ишламаса, насос станциялари ва қурилмаларининг меъёрдаги иш режимига салбий таъсир кўрсатади.

Электродвигателлар насосларни ҳаракатга келтиради, яъни насослар электр энергиясининг истъемолчиси ҳисобланади. Электродвигателларга тусатдан электр таъминотининг узилиши натижасида насос станцияси ёки насос қурилмалари босим қувурларида набарқарор ҳаракат жараёни, яъни гидравлик зарба жараёни юзага келади. Бу гидравлик зарба жараёни жуда ҳавфли жараён бўлиб, насос станциялари ва насос қурилмалари босим қувурларида ҳосил бўлади. Бу ҳавфли гидравлик жараён насос станциялари ва қурилмаларининг нормал ишлашини издан чиқаради. Бу ҳавфли ҳодиса вақтида босим қузури, тескари клапан, насос ва насос вали ишдан чиқиши мумкин. Бундан ташқари ёзнинг жазирама иссиқ кунлари қишлоқ хўжалик ўсимликларининг бир-неча кун сувсиз қолиши, ҳосилдорликнинг пасайишига

сабаб бўлади, яъни иқтисодий зарар кузатилади. Бу нохуш ҳодисанинг олдини олишда ҳар хил қурилмалар, усуллар ва тадбирлардан фойдаланилади.

Ҳозирги вақтда ресурстежамкор ҳисобланган қурилмаларга гидравлик зарба сундиргичлари киради. Бундай гидравлик зарба сундиргичга –универсал ҳаволи гидравлик қалпоқларни киритиш мумкин. Бу универсал ҳаволи гидравлик қалпоқнинг оптимал ҳажмини ҳисоблаш долзарб масала ҳисобланади. Бу сундиргичнинг универсаллиги шундан иборатки, у гидравлик зарба босим камайишидан (салбий гидравлик зарба) ёки босим ортишидан (ижобий гидравлик зарба) ҳосил бўлишидан қатъий назар жуда юқори даражада сундиради (70 фоизгача). Бу гидравлик зарба сундиргич-универсал ҳаволи гидравлик қалпоқнинг оптимал ҳажми уни асосий босим қувурига улайдиган иккита улаш қувурларидаги напор йўқолиш қийматларига боғлиқ [1]. Бу универсал ҳаволи гидравлик қалпоқ босим қувури бошида тескари клапандан кейин, яъни гидравлик зарба учоғига ўрнатилади. Ҳар иккала улаш қувурчалари тескари клапан ва жумрак (вентиль) билан жиҳозланади.

Жумраклар ёрдамида уланиш қувурчаларида напор йўқолишининг оптимал қийматлари аниқланиб, универсал ҳаволи гидравлик қалпоқ босим қувурига улаш қувурчалари ёрдамида ўрнатилади. Ҳар иккала улаш қувурчалари учун напор йўқолишини аниқлаш бўйича тарировка графиклари қурилади. Бу напор йўқолишининг оптимал қийматлари тарировка графигидан аниқланади. Бу қийматлар ўз навбатида универсал ҳаволи гидравлик қалпоқнинг энг кичик ҳажмини аниқлашга имкон беради. Масалани ечишда ўлчамсиз кўринишдаги тўлқин тенгламаларидан фойдаланилади [1,2]:

$$\left. \begin{aligned} \frac{d\bar{V}}{dt} &= \frac{2\pi}{\sqrt{2\pi\sigma}} \left[ h-1 - \left( \bar{h}_{mro} + \bar{h}_{do} \right) \bar{V} \left| \bar{V} \right| \right] = f_1 \left( \bar{t}, \bar{V}, \bar{h} \right) \\ \frac{d\bar{h}}{d\bar{t}} &= -2n\bar{h}^{\frac{1-n}{n}} \pi \sqrt{\frac{2\sigma}{n}} \bar{V} = f_2 \left( \bar{t}, \bar{V}, \bar{h} \right) \end{aligned} \right\} \quad (1)$$

бунда

$h - t$  вақт давомида диафрагмали ҳаволи гидравлик қалпоқнинг ўлчамсиз абсолют гидродинамик напори;

$n$  - политропа кўрсаткичи;

$\sigma$  -характеристик катталиқ бўлиб қуйидагига тенг:

$$\sigma = \frac{\omega L V_0^2}{2gH_{ga} W_0}$$

$H_{га}$  - абсолют геодезик напор;

$L$  - босим қувори узунлиги;

$V - t$  вақт давомида босим қувори ўлчамсиз тезлиги;

$h_k$  - босим қуворида барқарор ҳаракат вақтида ўлчамсиз напор йўқолиши;

$h_{\sigma} - V_0$  тезликда диафрагмада напор йўқолиши;

$W \square$  абсолют гидродинамик напор  $H_a$  қийматига мос диафрагмали ҳаволи

гидравлик қалпоқда ҳаво ҳажми;

$h_0 - V_0$  тезликда босим қуворида напор йўқолиши;

$V_0$  - босим қуворида барқарор суюқлик ҳаракат тезлиги бўлиб унинг қиймати

ҳажмий усулда аниқланади.

(1) тенгламалар қуйидаги бошланғич шартлар асосида ечилади

$$\left. \begin{aligned} h &= h_0 = 1 + \bar{h}_k \\ \bar{V} &= V_0 = 1 \end{aligned} \right\} \quad (2)$$

(1) тенгламаларни бошланғич шартлар (2) асосида ечилади. (1) тенгламалар системаси Рунге – Кутта сонли усулида [3,4] ечилади. Кейин универсал ҳаволи гидравлик қалпоқнинг ўлчамларини аниқлаш мумкин.

Хулоса қилиш мумкинки, гидравлик зарба сундиргичини – универсал ҳаволи гидравлик қалпоқни ҳисоблашда босим ва уланиш қувурларида напор йўқолишини ҳисобга олиш илмий ва амалий аҳамиятга эга. Сабаби универсал ҳаволи гидравлик қалпоқнинг энг минимал ўламларини аниқлашга имкон беради. Бу универсал ҳаволи гидравлик қалпоқни ясашда сарфланадиган металл миқдорини тежашга олиб келади. Универсал ҳаволи гидравлик қалпоқнинг “қаттиқ” модел асосида ўлчамлари аниқлангандан кейин суюқликнинг ва қувур деворининг деформацияланишини ҳисобга олиб гидравлик зарбанинг кучини аниқликда ҳисоблаш мумкин.

#### Адабиётлар

1. Жонқобилов У.У., Жонқобилов С.У. Суғориш насос станцияларининг напорли қувурларини гидравлик зарба таъсиридан ҳимоя қилиш. Монография. Қарши, ҚарМИИ босмаҳонаси, 2020. – 131 б.
2. Сурин А. А. Гидравлический удар в водопроводах и борьба с ним. – М. – Л., Трансжелдориздат, 1946, - 371 с.
3. Демидович Б. П., Марон И. А. Основы вычислительной математики. М., Наука, 1970, 664 с.
4. Шуп Т. Решение инженерных задач на ЭВМ . (пер. с англ.). М., Мир, 1982, 235 с.

**“SUYUQLIKNING SILINDRDAGI TEKIS XARAKATI MASALASI”***Xo'jaqulov Farrux Normamatovich**“TIQXMMI”MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti, o'qituvchisi***Annotatsiya**

Gaz dinamikasi bilan bog'liq masalalarda siqiladigan gaz nazariyasining matematik modellarini takomillashtirish zarur, shuningdek, texnologik jarayonning etarlicha batafsil modellarini o'rganish imkonini beradigan hisoblash tajribasini ham hisobga olish kerak. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, matematik modellashtirish zamonaviy fan va texnologiyaning aksariyat sohalarining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Transport va energetikani yanada rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan fundamental muammolarning yechimi nazariy gidrodinamikaning mazmunini tashkil etadi.

Ishning asosiy maqsadi silindrga gaz etkazib berishni hisoblashning yangi matematik modellari va usullarini ishlab chiqish bilan bog'liq nazariy va amaliy muammolarni hal qilishdir.

**Annotation**

Mathematical models of compressed gas theory need to be improved in matters related to gas dynamics, as well as computational experience that allows the study of sufficiently detailed models of the technological process. Practice shows that mathematical modeling has a significant impact on the development of most areas of modern science and technology. The solution of fundamental problems that are important for the further development of transport and energy is the essence of theoretical hydrodynamics.

The main purpose of the work is to solve theoretical and practical problems associated with the development of new mathematical models and methods for calculating the gas supply to the cylinder.

**Suyuqlikning silindrdagi tekis xarakati masalasi**

Suyuqlik va gazlarning erkin chegarali oqimi masalasi texnologiyaning turli tarmoqlarida qo'llanilishi bilan, xususan, dvigatelning gaz taqsimlash mexanizmida amaliy ahamiyatga yega. Gidravlik qarshiligi yeng past bo'lgan dvigatel silindrida gaz almashinuvining fizik jarayonlari siqilgan gaz oqimi nazariyasining masalalariga keltiriladi.

Ishning asosiy maqsadi silindrga gaz etkazib berishni hisoblashning yangi matematik modellari va usullarini yaratish bilan bog'liq nazariy va amaliy muammolarni hal qilishdir.



Tashqi kuchlarni hisobga olmagan holda tezligi tovush tezligigacha bulgan sikilmas gazning silindrdagi potensial oqimining masalasi ko‘rib chiqimiz. Oqim potensial va statsionar bo‘lib, jarayon politropikdir.

Bir sekundlik okim sarfi  $q$  bo‘lgan musbat manba (istochnik) A nuqtada joylashgan deb olamiz:  $q = V_A h$ , bu yerda  $V_A$  - gaz zarrachasining A nuqtadagi tezligi,  $h$  - manbadagi oqim kengligi. Silindr bo‘shlig‘ini to‘ldirib turgan gaz zarrachalari noma’lum chegarali erkin sirtini hosil qiladi, bu yerda bosim doimiy bo‘ladi. Kirayotgan gaz oqimi cheksizlikda  $V_\infty = V_A$ .

Uzluksizlik tenglamasini va uyurmasiz harakat shartlarini yozamiz [5-7]:

$$\frac{\partial u}{\partial x} + \frac{\partial v}{\partial y} = 0, \quad \frac{\partial v}{\partial x} - \frac{\partial u}{\partial y} = 0. \quad (1)$$

Ideal suyuqlik uchun ba’zi gidrodinamik metodlar [8] asosida qaralayotgan masalani kompleks funksiyalar nazariyasidan foydalanib yechamiz.


Koordinata boshi O nuqtada bulgan  $z=x+iy$  koordinatalar sistemasini kiritamiz,  $y$  o‘qini oqimning simmetriya o‘qi bo‘ylab yo‘naltiramiz (2.3-rasm).

Biroq  $W(z)$  konform akslantirishni aniqlash masalasi ancha murakkab, chunki akslantiruvchi soxalar murakkab kurinishga ega. Soddalashtirishning usullaridan biri kompleks o‘zgaruvchili  $\zeta = \xi + i\eta$  tekislikda yordamchi kompleks kanonik soxani kiritishdir. Bevosita  $W(z)$  funksiyani qidirish o‘rniga ikkita analitik funksiyalarni  $W(\zeta)$  va  $z = z(\zeta)$  aniklash yetarli.

Muammoni hal qilish uchun fizik tekislikdagi oqim sohasini  $\zeta$  yuqori yarim tekislikka mos ravishda konform akslantiramiz (2.4- rasm).  $z = z(\zeta)$  analitik funksiya  $Im \zeta \geq 0$  yuqori yarim tekislikni oim soxasiga akslantirsa, bunda oqim soxasi chegaralari yukori yarim tekislikning haqiqiy o‘qiga mos keladi,  $Im \zeta \geq 0$  soxaning  $b, 0, d, k, l, e, f, n$  nuqtalari oqim sohasining B, C D, K, M, E, F, N nuqtalariga mos keladi.

$W = \varphi + i\psi$  kompleks potensial funksiyasi oqim sohasida analitik funksiya xisoblanadi.  $W$  kompleks potensial soxa kengligi  $q$  ga teng bulgan polosani ifodalaydi

$$W(\zeta) = -\frac{q}{\pi} \ln(\zeta - 1) + iq. \quad (2)$$



2.3- rasm




Рис. 2

2.4- rasm

[8] metoddan foydalanib, karalayotgan masala sikilmaydigan suklik uchun yechiladi. ( $\zeta$ ) yuqori yarim tekislikda

$$\omega(\zeta) = \ln \frac{iV_0}{\bar{V}} \quad (3)$$

analitik bo'lgan Jukovski funktsiyasini kiritamiz:

$$\omega(\zeta) = \ln \frac{V_0}{V} + i \left( \theta + \frac{\pi}{2} \right), |\bar{V}| = V$$

bunda  $V_0$ - erkin sirtidagi tezlik moduli.

$\omega(\zeta)$  funktsiya uchun chegaraviy shrtlarni yozamiz:

AB, DK, EF, NA: da  $\eta = 0, -\infty < \xi < -b, d < \xi < k, e < \xi < f, n < \xi < \infty$ ;  $Im\omega = 0$ ;

BC, KM, NF: da  $\eta = 0, -b < \xi < 0, k < \xi < 1, f < \xi < n, Im\omega = \frac{\pi}{2}$ ;

ME: da  $\eta = 0, 1 < \xi < e, Im\omega = -\frac{\pi}{2}$ ;

CD: da  $\eta = 0, 0 < \xi < d, Re\omega = 0$ .

Endi quyidagi chegaraviy qiymatlarni qanoatlantiruvchi

$$\omega_1(\zeta) = \frac{\omega(\zeta)}{\sqrt{\zeta} \sqrt{\zeta - d}}$$

funktsiyani ko'rib chiqamiz:

$Im\omega_1 = 0, \eta = 0$  da,  $-\infty < \xi < -b, 0 < \xi < d, d < \xi < k, e < \xi < f, n < \xi < \infty$

$Im\omega_1 = \frac{\pi}{2} \frac{1}{\sqrt{d - \xi} \sqrt{|\xi|}}, da \eta = 0, -b < \xi < 0, Im\omega_1 = -\frac{\pi}{2} \frac{1}{\sqrt{\xi} \sqrt{\xi - d}}, da$

$\eta = 0, 1 < \xi < e; Im\omega_1 = \frac{\pi}{2\sqrt{\xi} \sqrt{\xi - d}}, da \eta = 0, k < \xi < 1, f < \xi < n.$

Parametrik ( $\zeta$ ) soxaning haqiqiy chegarasida  $\omega(\zeta)$  funktsiyaning mavxum qismi ma'lum. SHu sababli Shvarsning integral formulasidan foydalanib  $\omega(\zeta)$  funktsiyaning qurish mumkin [9].

YUqori yarim tekislik uchun oqim sohasini parametrik sohaga akslantiruvchi  $\omega(\zeta)$  ni olamiz:

$$\omega(\zeta) = \ln \left[ \frac{F^2(\zeta, 1)F(\zeta, n)}{F(\zeta, b)F(\zeta, k)F(\zeta, e)F(\zeta, f)} \right], \quad (4)$$

$$F(\zeta, b) = \frac{\sqrt{d(\zeta + b)}}{\sqrt{\zeta - d} + \sqrt{\zeta(d + b)}}, \quad F(\zeta, k) = \frac{\sqrt{\zeta - k}}{\sqrt{k(\zeta - d)} + \sqrt{\zeta(k - d)}}$$

$$F(\zeta, 1) = \frac{\sqrt{\zeta - 1}}{\sqrt{\zeta - d} + \sqrt{\zeta(1 - d)}}, \quad F(\zeta, f) = \frac{\sqrt{\zeta - f}}{\sqrt{(\zeta - d)f} + \sqrt{\zeta(f - d)}}$$

$$F(\zeta, n) = \frac{\sqrt{\zeta - n}}{\sqrt{n(\zeta - d)} + \sqrt{\zeta(n - d)}}$$

Oxirgi ifodadan kompleks tezlikni topamiz:

$$\vec{V} = u - iv = iV_0F(\zeta), \tag{5}$$

Bunda

$$F(\xi) = \frac{F(\zeta, b)F(\zeta, k)F(\zeta, e)F(\zeta, f)}{F^2(\zeta, 1)F(\zeta, n)};$$

$G_z$  oqim soxasi chegaralariga mos kyeladigan yuqori yarim tekislik xakikiy uk buylab tezlik taqsimotini topamiz.

$\eta = 0, -b < \xi < 0$  bo‘ylab,  $\vec{V} = u - iv = V_0F_1(\xi), u = V_0F_1(\xi), v = 0,$

$$F_1(\xi) = \frac{F_1(|\xi|, b), F_1(|\xi|, k), F_1(|\xi|, e), F_1(|\xi|, f)}{F_1^2(|\xi|, 1)F_1(|\xi|, n)};$$

$\eta = 0, 0 < \xi < d$  bo‘ylab,  $\vec{V} = V_0F_2(\xi), u = V_0ReF_2(\xi), v = V_0ImF_2(\xi),$

$$F_2(\xi) = \frac{(\sqrt{\xi} \sqrt{b+d} - i\sqrt{b(d-\xi)}) (\sqrt{\xi} \sqrt{k-d} - i\sqrt{k(d-\xi)}) (\sqrt{\xi} \sqrt{e-d} - i\sqrt{e(d-\xi)})}{d^3 \sqrt{d} \sqrt{\xi+b} \sqrt{k-\xi} \sqrt{e-\xi}} \times \frac{(\sqrt{\xi} \sqrt{f-d} - i\sqrt{f(d-\xi)}) (\sqrt{\xi} \sqrt{1-d} + i\sqrt{d-\xi})^2 (\sqrt{\xi} \sqrt{n-d} - i\sqrt{n(d-\xi)})}{(1-\xi)\sqrt{f-\xi}\sqrt{n-\xi}}$$

$W(\zeta)$  va  $\omega(\zeta)$  ni e’tiborga olib, yuqori yarim tekislikning haqiqiy o‘qidagi nuqtalariga mos keluvchi oqim tekisligidagi nuqtalarda bosimlar taqsimotini va oqimning geometrik elementlarini aniqlash mumkin.

Buning uchun har bir  $\zeta$  uchun  $z = x + iy$  oqim tekisligidagi nuqtani aniqlab, shu nuqtadagi bosimni ham hisoblash mumkin:

$$dz = \left( d\varphi + i \frac{\rho_0}{\rho} d\psi \right) \frac{e^{i\theta}}{v} \tag{6}$$

Parametrik soxaning xakikiy o‘kida ko‘rsatilgan oraliklarda integrallash natijasida  $z(\zeta)$  aniqlaymiz :

$$z(\zeta) = \frac{V_0 h}{\pi} \int_{-b}^{\zeta} \frac{iF^2(\zeta, 1)F(\zeta, n)}{F(\zeta, b)F(\zeta, k)F(\zeta, e)F(\zeta, f) \xi^{-1}} d\zeta. \tag{7}$$

Oqim sohasidagi qattiq chegaralarning geometrik o‘lchamlari va tezlik  $V_A$  ma’lum deb qarab, (2.7) integrallash orkali, yuqori yarim tekislikning haqiqiy o‘qida kursatilgan oraliklarida bu masalani yechimiga kiruvchi noma’lum parametrlarning qiymatlarini  $(b, d, k, e, f, n)$  topish uchun oltita tenglamalar sistemasiga ega bo‘lamiz.

CD erkin sirt ko‘rinishini topamiz

$$x(\xi) = x(0) + Re \int_0^{\xi} \frac{dz}{d\xi} d\xi, \quad y(\xi) = y(0) + Im \int_0^{\xi} \frac{dz}{d\xi} d\xi. \tag{8}$$

BC klapanga ta'sir etuvchi gidrodinamik bosimni hisoblaymiz. Oqimning uzluksizligi tufayli vakt birligi ichida xar bir ko'ndalang kesimdan bir xil gaz sarfi o'tadi:

$$V_A S_0 = V_0 S = const, \quad (9)$$

Bu yerda  $S_0 = \frac{1}{4} \pi h^2$ ,  $S \pi l^2$  – mos ravishda silindrning kirish va chiqish qismlarida ko'ndalang kesim yuzasi.

(2.9) tenglamadan gaz zarrachasining erkin sirdagi xarakat tezligini topamiz. Agar  $p_A = p_0$  bosim berilgan bo'lsa, u holda Bernulli integrali yordamida klapanga ta'sir etuvchi umumiy bosim R ni topish mumkin:

$$P = \int_{-b}^0 (p - p_0) dx \quad (10)$$

Shunday qilib, tezliklar va bosimlar uchun hisoblash formulalari keltirib chikarildi va ularning silindrdagi gaz oqimi jarayonlarida gidrodinamik xarakteristikalarini hisoblash uchun qo'llanilishi keltirildi.

### Xulosa

Zamonaviy dvigatel konstruksiyasining rivojlanishi ularning dizayni va ishlash prinsipini takomillashtirish bog'liq. Gaz taqsimlash mexanizmlarining konstruksiyalari juda murakkab, issiqlik almashinuvning foydali ish koeffitsiyenti past, silindrni yangi zaryad bilan to'ldirish va yonish mahsulotlaridan tozalash koeffitsiyenti past. Shu bilan birga, gaz taqsimlash mexanizmida yassi yopqich tipidagi yuqori samarali dvigatelni yaratish, zamonaviy ekologik talablarga muvofiqligini ta'minlash uchun bir qator boshqa muammolarni hal qilish bilan bog'liq.

Tashqi kuchlarni hisobga olmagan holda tezligi tovush tezligigacha bulgan sikilmas gazning silindrdagi potensial oqimining masalasi ko'rib chiqildi. Ideal suyuqlik uchun gidrodinamik metodlardan biri -N.E.Jukovskiy metodi asosida qaralayotgan masalani kompleks funksiyalar nazariyasidan foydalanib olingan analitik yechimi keltirildi. Gaz aralashmasining silindrdagi oqimini nazariy o'rganish amalga oshirildi va oqimning gaz-gidrodinamik parametrlarini (bosim va zichlik, silindr ichidagi tezlik taqsimoti) aniqlash uchun erkin chegarali oqimlar nazariya usullaridan foydalangan holda analitik formulalar olindi.

### Adabiyotlar

1. Шароглазов Б.А., Фарафонов М.Ф., Клементьев В.В. Двигатели внутреннего сгорания: теория, моделирование и расчёт процессов. Челябинск, Изд. ЮУрГУ, 2005.
2. Двигатели внутреннего сгорания: Устройство и работа поршневых и комбинированных двигателей. Под общ. ред. А. С. Орлина, М. Г. Круглова. - М.: Машиностроение, 1990.
3. Venkata Suman Movva, B.Tech. Simulation of fluid flow in internal combustion engines using wave action simulation. A thesis in Mechanical Engineering, 2004.

4. Грехов Л.В., Иващенко Н.А., Марков В.А. и др. Машиностроение. Энциклопедия. - М.: Машиностроение. Двигатели внутреннего сгорания. Т. IV-14, 2013. 784 с.
5. Седов Л.И. Механика сплошных сред. Том.2. М.Дрофа.2004.
6. Лойцянский Л.Г. Механика жидкости и газа. М., Дрофа. 2003
7. Кочин Н.Е., Кибель И.А., Розе Н.В. Теоретическая гидромеханики. Ч.1, 2 М., Физмат изд. 1963.
8. Гуревич М.И. Теория струй идеальной жидкости. - М., Физматгиз, 1961.
9. Лаврентьев М.А., Шабат Б.В. Методы теории функций комплексного переменного. -М.: Наука, 1987.
10. Spalart, P.R. and Allmaras, S.R., "A One-Equation Turbulence Model for Aerodynamics Flows", Boeing Commercial Airplane Group, Seattle, Washington, 1992.



## ЎЗБЕКИСТОНДА СУҒУРТА КОМПАНИЯЛАРИНИНГ МОЛИЯВИЙ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

*Кулдашев Фарид*

*Тошкент молия институти талабаси*

*Илмий раҳбари: DSc Ражабов Ш.У.*

Жаҳон амалиётида иқтисодий хавф-хатарларнинг глобаллашуви ва турли инқирозларнинг вужудга келиши натижасида миллий иқтисодиётнинг макроиқтисодий ва молиявий барқарорлигига таъсири давлатларнинг мавжуд молия тизими механизмини жумладан, суғурта тизими ва суғурта компаниялари фаолиятини такомиллаштиришни тақозо этмоқда. Шу боис дунё мамлакатларида ва халқаро муносабатларда суғурта хизматларисиз бирор фаолият амалга оширилмайди. Ривожланган мамлакатларда суғурта хизматларидан тўпланган маблағлар мамлакат ялпи ички маҳсулотининг 8-12 фоизни ташкил этмоқда. Халқаро муносабатларда суғурта компанияларининг молиявий барқарорлик даражасини намён этувчи кўрсаткичлардан бири бу йиғилган суғурта мукофотлари бўлиб, улар йирик ҳажмдаги инвестиция маблағларининг тўпланишига имконият яратиб бериши билан баҳоланмоқда. Бу ўз навбатида суғурта компанияларининг инвестиция қилишга бўлган имкониятини кенгайтиради ва суғурталовчининг молиявий барқарорлик даражасини мустаҳкамлайди.

Суғурта – бу ижтимоий механизм бўлиб, ушбу механизм индивидларга ва ташкилотларга турли кўринишдаги нохуш ҳолатлар натижасида ҳосил бўлган иқтисодий йўқотишлардан кўрилган зарарларни қоплашга имкон яратади. Суғурта воситасида келажакда йўқотишларга олиб келиши мумкин бўлган иқтисодий қийматдаги маълум ноаниқликларни аниқликка алмаштириш имконияти пайдо бўлади. Шундай қилиб, суғурта молия-кредит тизимининг қисми сифатида бутун жамият ва иқтисодиётни барча даражаларда барқарорликни оширишнинг муҳим воситаси сифатида амал қилади. Шунинг учун хўжалик субъектларини турли қутилмаган ҳодисалардан кўриладиган зарарлардан ҳимоя қилишда суғурта борган сари муҳим ўрин тутиб бормоқда.

Маълумки, суғурта фондлари тўрт кўринишда ташкил этилади, булар:

- давлат маблағлари ҳисобидан натурал ва пул кўринишида ташкил этиладиган марказлашган суғурта фондлари;
- ҳар қандай фуқаро ёки юридик шахс томонидан ташкил этиладиган натурал ёки пул кўринишидаги суғурта фондлари;

- фуқаролар ва юридик шахсларнинг ихтиёрий келишувлари асосида ташкил этиладиган ўзаро суғурталаш жамиятларининг пул кўринишида (баъзи ҳолатларда натурал кўринишда) ташкил этиладиган суғурта фондлари;
- тижорат асосида ташкил этилган суғурта компанияларининг пул кўринишидаги суғурта фондлари.

Марказлашган давлат суғурта фондлари йирик ҳажмдаги катастрофик ҳодисалар юз берганда кўриладиган зарарларни қоплаш мақсадида ташкил этилади. Аммо бу маблағлар ҳар доим ҳам зарарларни қоплашга етарли бўлмайди. Фуқаро ва юридик шахс томонидан ўз фаолияти билан боғлиқ хавф-хатарларни кўзда тутган ҳолда ташкил этиладиган натурал ёки пул кўринишидаги суғурта фонди фақатгина кичик ҳажмдаги зарарларни қоплаш имкониятига эга.

Суғурта молия категориясининг қисми сифатида эътироф этилсада, у ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, улар қуйидагилардан иборат:

суғуртанинг мулкнинг пул шаклидаги эҳтимолий ҳаракати билан боғлиқлиги. Яъни, иқтисодий субъектларнинг суғурталанган мулкига нисбатан кутилмаган ҳодисаларнинг юз бериши натижасида зарар етганда пулли қайта тақсимлаш муносабатларининг юзага келиши;

суғурта учун зарарни тақсимлашнинг чегараланганлик хусусияти хос. Яъни суғурта муносабатларида иштирок этаётганларнинг ичидаги зарар кўрганларнинг зарари жами иштирокчилар ўртасида тенг тақсимланиши;

суғуртанинг маълум доирадаги ҳаракати – маълум ҳудуд ва вақт доирасида. Суғуртанинг эҳтимоллик табиати нисбатан катта ҳудудда ва кўп сондаги суғурта объектларида амал қилиш заруратини ва суғурта тўловларининг бир қисмини маълум йил оралиғи учун заҳиралаштириш заруратини келтириб чиқаради;

суғурта фондига йўналтирилган маблағларнинг қайтарилиш хусусиятининг мавжудлиги. Суғуртадаги бу ўзига хослик суғуртада амал қилувчи эквивалентликнинг қуйидаги базавий принципи билан боғлиқ: суғурта тушумлари суммаси суғурта қопламалари ва суғурта ташкилоти харажатларига тенг. Суғуртага қабул қилинган маблағларнинг қайтарилиш хусусияти кредит категорияси билан ўхшаш бўлганлиги унинг фақат молия категорияси эмас, балки кредит категорияси ҳам эканлигини билдиради.

“Суғурта фаолияти тўғрисида”ги Қонун ҳамда олимлар томонидан берилган, суғуртанинг моҳиятини очиб берувчи таърифлардан келиб чиққан ҳолда суғуртага қуйидагича таъриф бериш мумкин: суғурта – мақсадли пул фондларини шакллантириш ва инсонлар ҳамда иқтисодий субъектлар фаолияти билан боғлиқ маълум ҳодисалар (суғурта ҳодисалари) юз берганда уларнинг мулкий манфаатларини ҳимоя қилиш учун ишлатиш билан шуғулланувчи иқтисодий муносабатлар тизимидир.

Суғуртанинг функцияси суғуртанинг иқтисодий моҳиятига мос келади ва унинг намоён бўлишининг ташқи шакли ҳисобланади. Иккинчи томондан, улар суғуртанинг ўзига хосликларини молиявий тизимнинг звеноси сифатида намоён бўлишига имконият яратади.

Молиянинг тақсимлаш функцияси суғуртанинг алоҳида ҳолатида қуйидаги функцияларда намоён бўлади:

1) суғуртанинг стабиллаштирувчи (рискли) функцияси асосий функция бўлиб, суғуртанинг моҳиятини акс эттиради. Бунда иқтисодий субъектларнинг мулкый манфаатларини ҳимоя қилиш мақсадида уларнинг таваккалчиликлари қайта тақсимланади. Бу билан суғурта бутун иқтисодий тизимнинг динамик стабиллигини таъминлайди;

2) огоҳлантирувчи функция суғурта фондининг бир қисми ҳисобидан суғурта рискларининг юз бериш эҳтимоллигини камайтириш тадбирларини молиялаштиришга йўналтирилади;

3) омонат функцияси ҳаёт суғуртасида амал қилиб, бунда суғурталанувчиларнинг пул маблағлари омонат сифатида тўпланади.

Молиянинг назорат функцияси суғуртанинг шунга мос қуйидаги функцияларида намоён бўлади:

4) суғуртанинг назорат функцияси суғурта фондини шакллантириш ҳамда ундан фойдаланиш мақсадида дастурлар, актуар ҳисобларнинг методикаларини ишлаб чиқишда, прогнозлар қилишда, фонддан фойдаланиш натижаларини баҳолашда амал қилади. Назорат функцияси суғуртанинг барча звенолари воситасида амалга оширилади.

Ишлаб чиқариш жараёнларига аралашув билан боғлиқ молиянинг тартибга солувчи функцияси суғуртанинг махсус функцияси сифатида қуйидагиларда намоён бўлади:

5) суғуртанинг тартибга солувчи функцияси вақтинчалик бўш бўлган суғурта фондини инвестицияга йўналтириш ҳисобидан ишлаб чиқариш соҳасининг узлуксизлигини ва баланслашувини таъминлашда ва ижтимоий суғурта шаклида фуқароларни ижтимоий ҳимоялашда қўлланилади.

Суғурта инсоният фаолиятида юзага келадиган турли кўринишдаги хавф-хатарларнинг доимий мавжудлиги туфайли заруриятга айланган ва шу сабабли у жуда қадим замонлардан бери турли кўринишда шаклланиб инсоннинг доимий ҳамкорига айланиб келган. Дастлабки суғурта фондлари натурал кўринишда ва фақат ҳодиса юз бергандан кейингина аъзолар томонидан тўпланиб, аъзоларнинг кўрган зарарлари қоплаб берилган. Кейинчалик, товар-пул муносабатлари шаклландан кейин XIV асрдан бошлаб тижоратга асосланган, суғурта фонди пул кўринишида олдиндан шакллантириладиган суғурта ташкилотлари пайдо бўла бошлаган. Бундай ташкилотларнинг кенг тараққий қилиши XVIII асрга келиб юз берган. Натижада бундай ташкилотларнинг молиявий барқарорлиги ва тўловга қобиллиги масаласи долзарблик касб этган ва ушбу масала бугунги кунда ҳам суғурта бозорларидаги муҳим мазулардан бири ҳисобланади.

**ДИНАМИКА ВНЕШНИХ ПРОМЕРОВ И ПОКАЗАТЕЛЕЙ СТРОЕНИЯ  
ТЕЛА КАРАКОЛЬСКИХ ОВЕЦ ПО ВОЗРАСТУ**

*Рузимородов Р, Шукурова М, Мамазияева М.*

**Аннотация**

Скотоводство важная отрасль животноводства, эффективное использование пустынных пастбищ в экстремальных условиях, вывоз шкур крупного рогатого скота различных цветов и расцветок в соответствии со спросом мирового пушного рынка, обеспечение продовольственной безопасности, имеет большое значение в удовлетворении спрос на шерсть, поставляя шерсть и другие продукты для легкой промышленности, и является источником средств к существованию для более чем 3,0 млн человек, проживающих в этом районе.

Решения, принятые в последние годы, поставили перед специалистами огромные задачи по развитию этого направления.

Постановление Президента Республики Узбекистан от 16 марта 2017 года № PQ-2841 «О дополнительных мерах по углублению экономических реформ в животноводстве», Постановление Президента Республики Узбекистан от 14 марта № PQ-3603, 2018 "О мерах по опережающему развитию пиратского сектора"

Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 13 августа 2018 года № 649 «Система сдачи организациям по закупке, хранению и переработке овчины, шкур и шерсти овчины, выращенных субъектами, занимающимися браконьерством, об организационных мероприятиях», Указ Президента Республики Узбекистан № ПФ-5696 от 28 марта 2019 года «О мерах по коренному совершенствованию системы государственного управления в области ветеринарии и животноводства», 2019 г. Постановление № PQ-4420 от 16 августа 2019 г. 2016 г. «О мерах по комплексному развитию пиратской сети» тому пример.

**Ключевые слова:** зоотехника, сельскохозяйственные животные, конституция, экстерьер, каракол, мышца, кость, особь, ягненок.

**Annotations**

Cattle breeding is an important branch of animal husbandry, the efficient use of desert pastures in extreme conditions, the export of cattle skins of various colors and colors in accordance with the demand of the global fur market, ensuring food security, is of great importance in meeting the demand for wool, supplying wool and other products for light industry, and is a source of livelihood for more than 3.0 million people living in the area.

The decisions made in recent years have set huge challenges for the development of this area.

Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated March 16, 2017 No. PQ-2841 "On additional measures to deepen economic reforms in livestock", Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated March 14 No. PQ-3603, 2018 "On measures to accelerate the development of the piracy sector"

